Til – dil tarjimoni
O'zbek xalq maqoli

1991-yildan chiqa boshlagan

2024-yil. 10-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz



2025-YIL 1-YANVARDAN BOSHLAB UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MILLIY SERTIFIKATGA EGA BO'LGAN O'ZBEK TILI O'QITUVCHILARIGA 50 FOIZ USTAMA TO'LANADI

Ushbu sonda

IJOD MAKTABLARI
Qodiriyga munosib avlod — 3-bet

DOLZARB MAVZU
"... hanuz jiddiy tadbir ko'rolmadik" — 7-bet

TAHLIL
Bulduruqmi yoki bulduriq? – bir so'z imlosi izidan — 16-bet

TADQIQOT
Tilda tovushlarning hosil bo'lishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari — 44-bet

К ЮБИЛЕЮ ПИСАТЕЛЯ
«Сказки нового века» Кира Булычёва — 62-bet

YILNING ENG YAXSHI O‘ZBEK TILI O‘QITUVCHILARI TAQDIRLANDI

Poytaxtimizdagi 5-maktabda O‘zbek tili bayrami kuni arafasida “Yilning eng yaxshi o‘zbek tili o‘qituvchisi” respublika tanlovi g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti rahbari Nodir Xolbo‘tayev, Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari Farhod Boqiyev ishtirok etdi.



Tanlov yakunlariga ko‘ra, **o‘zbek tili fani yo‘nalishida:**

1-o‘rin – **Nasiba Kubayeva**, Jizzax viloyati Zomin tumanidagi 60-maktab o‘qituvchisi;

2-o‘rin – **Sarvinoz Doniyorova**, Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 13-maktab o‘qituvchisi;

3-o‘rin – **Iroda Yo‘ldosheva**, Xorazm viloyati Urganch shahridagi 15-maktab o‘qituvchisiga nasib etdi.

Ona tili fani yo‘nalishi bo‘yicha:

1-o‘rin – **Bahodir Jo‘rayev**, Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahridagi 19-IDUM o‘qituvchisi,

2-o‘rin – **O‘g‘iloy Abduraimova**, Jizzax viloyati Jizzax shahridagi 29-maktab o‘qituvchisi;

3-o‘rin – **Iqboloy Yusupova**, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumanidagi 40-maktab o‘qituvchisi g‘olib deb topildi.

G‘oliblarga egallagan o‘rniga mos ravishda 20 million so‘m pul mukofoti, monoblok va noutbuk topshirildi. Shuningdek, tanlov ishtirokchilari turli nominatsiyalar bo‘yicha ham taqdirlandi.





O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan

2024-yil. 10-son

TIL VA ADABIYOT TA’LIMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay’ati:

Hilola UMAROVA
Farhod BOQIYEV
Qozoqboy YO‘LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Jabbor ESHONQULOV
Abdurahim NOSIROV
Bahodir JOVLIYEV
Yorqinjon ODILOV
Valijon QODIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Nilufar NAMOZOVA
Sanobar TO‘LAGANOVA
Yo‘ldosh RAHMATOV
Anatoliy LIXODZIYEVSKIY
Elvina ALIYEVA
Qodirjon NOSIROV
Bekkenbauer REYMOV
Yuliya MUSURMANOVA
Bashorat BAHRIDDINOVA
Shahnoza TURNIYAZOVA
Ra’no ABDUSALOMOVA
To‘lqin XOLJO‘RAYEV
Xadicha MUHIDDINOVA
Umid XO‘JAMQULOV
Salima JUMAYEVA
Shahobiddin RASULOV
(bosh muharrir o‘rinbosari)

Bosh muharrir

Farrux JABBOROV

Nashr uchun mas’ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Sahifalovchi

Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar @TilAdabiyot_bot orqali qabul qilinadi.

Jurnaldan ko‘chirib bosilgan maqolalar “Til va adabiyot ta’limi”dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bo‘lishi mumkin.

Mualliflarning ism-familiyasi shaxsini tasdiqlovchi hujjatiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga 2024.31.10. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog‘oz bichimi 60x84$^{1}/_{8}$. Shartli bosma tabog‘i 6,0. “Arial” garniturasi. 10, 11 kegl. “Madad oshiyoni” MChJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Qushbegi ko‘chasi 6-uy. Buyurtma ___ Adadi 4300 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

IJOD MAKTABLARI

Nigora Uralova. Qodiriyga munosib avlod 3

DOLZARB MAVZU

Nilufar Namozova. “... hanuz jiddiy tadbir ko‘rolmadik” 7
Orifjon Madvaliyev. Adabiy tahrir malakasini shakllantirish: qaysi ko‘nikmalar ustida ishlash kerak? 9

TAHLIL

Suyun Karimov, Umida Rashidova. O‘zbek lug‘atshunosligi taraqqiyoti tendensiyalari 12
Munira Nabiyeva. Bulduruqmi yoki bulduriq? – bir so‘z imlosi izidan 16
Ne’matillo Maxammadjonov. Badiiy matnda “din” konseptining lisoniy voqelanishi 19

ADABIYOTSHUNOSLIK

Mahliyo Turg‘unova. Usmon Azimning badiiy obraz yaratish mahorati 22
Jamoliddin Temirov. Maxmur she’riyatiga adabiy muhit ta’siri 24

METODIK TAVSIYA

Nilufar Yuldasheva. CLIL metodikasi asosida integrallashgan o‘quv faoliyatini tashkil etish 26
Feruza Mamatqulova. Badiiy asar tahlilida fikrlar to‘qnashuvi 28

TILSHUNOSLIK

Nargiza Khodjakulova. Developing listening skills in foreign language teaching: theoretical and methodological foundations 31
Sevara Ibragimova. Teaching a foreign language in the process of independent learning 33

TADQIQOT

Xamidullo Hakimov. Dunyo til tasvirini qurishdagi atamalarning kognitiv-pragmatik asoslari 35
Nilufar Turdiyeva. Muallif idiolektining kognitiv talqini 36
Oybek Toshmatov. The importance of independent education and the role of mobile educational applications in teaching legal English in Uzbekistan 39
Aziza Muminova. Umumtilshunoslikda perfekt zamon shaklining temporal, aspektual semantikasi 41
Dilobarxon Azimova. Tilda tovushlarning hosil bo‘lishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari 44

KICHIK TADQIQOT

Xoliyor Safarov. Jadid hikoyachiligining uch davri 46
Gulruh Shodiyeva. Buyuk ma’rifatparvar 47

В МИРЕ КНИГ

Эльвина Алиева. Учебная литература нового поколения по синтаксису современного русского языка 49

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Наргис Саримсакова, Саёра Султанова. Совершенствование орфоэпических навыков студентов для дальнейшего использования в профессиональной деятельности 53
Матлюба Мирханова. Развитие навыков письма у студентов при изучении английского языка 54

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Шахноза Турсунова. Слово *благодетель* в аксиологическом аспекте 56
Шахноза Артикова. Концепт вежливости в английской лингвокультуре 57

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Наргиза Насырова. Анализ чеховской прозы в «Иллюстрированном словаре забытых и трудных слов из произведений русской литературы XVIII–XIX веков» Л.А.Глинкиной 59
Тимур Низамутдинов. Об истории изучения понятия «театральность» 60

К ЮБИЛЕЮ ПИСАТЕЛЯ

Андрей Кучинский. «Сказки нового века» Кира Булычёва 62

ЛИТЕРАТУРНОЕ ТВОРЧЕСТВО ПЕДАГОГА

Кодиржон Носиров. Творчество современного педагога-писателя 65

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Азизхон Рахмонов. Развитие креативности и языковых навыков учащихся при инновационном применении метода синквейн в обучении русскому языку 69
Наталья Розикова. Цифровая трансформация в образовании: использование технологий для повышения эффективности обучения 71

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Светлана Им. Роль психологических факторов и речевого воздействия на агрессивное поведение 73
Шахзода Абдуллаева, Гули Додаева. Идеи гуманизма в творчестве Алишера Навои и Абая Кунанбаева 75
Махбуба Кушимова. Использование словарей при профессионально-ориентированном обучении иностранным языкам 78

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

BORLIGIMIZ VA BIRLIGIMIZ TIMSOLI

Dunyoda 7 mingga yaqin til mavjud, lekin ulardan faqat 200 ga yaqinigina davlat tili maqomiga ega. Shular qatorida jahon miqyosida 50 milliondan ortiq kishi so‘zlashib, ko‘plab mamlakatlarda katta ishtiyoq bilan o‘rganilayotgan go‘zal va jozibali til – o‘zbek tili ham bor.



Mamlakatimizda bu yil ham 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni o‘zgacha shukuh bilan nishonlandi. Erta tongdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi vakillari, turli vazirlik va idoralar, tashkilot mutasaddilari, yozuvchi va shoirlar, olimlar, talaba-yoshlar Toshkent shahridagi Alisher Navoiy haykali poyiga gullar qo‘ydi.

Poytaxtimizdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida tantanali ma’rifiy tadbir tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbek tili bayrami munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigini Prezident maslahatchisi Xayriddin Sultonov o‘qib eshittirdi.

Tabrikda aytilganidek, bugun yurtimizda davlat tilini rivojlantirish, uning nufuzi va mavqeyini oshirish, xalqaro miqyosda keng targ‘ib etishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, keyingi yillarda ko‘plab idoraviy hujjatlar davlat tiliga o‘tkazildi, 100 mingdan ortiq geografik obyektning nomi davlat reestriga kiritildi, hududlardagi 150 mingdan ziyod tashqi yozuvlar davlat tili va reklama to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqlashtirildi.

Yangi paydo bo‘layotgan zamonaviy tushunchalarga nom berish, so‘z va atamalarni rasmiy iste’molga kiritishni tizimli yo‘lga qo‘yish uchun Atamalar komissiyasining faoliyati tubdan takomillashtirildi, bu borada aniq ilmiy mezonlar ishlab chiqildi. Ayniqsa, keyingi yillarda o‘zbek tilini raqamlashtirish borasida jiddiy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekcha matnlarni sun’iy intellekt yordamida qayta ishlash va o‘zbek tilida muloqot qilishga mo‘ljallangan “aqlli” dastur ishlab chiqilib, “O‘zbek tili izohli lug‘ati”ning veb-sayti yaratildi.

– Prezidentimiz tashabbusi bilan 21-oktabr O‘zbek tili bayrami kuni sifatida belgilandi, – dedi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti rahbari Nodir Xolbo‘tayev. – Bu kun nainki mamlakatimiz, balki jahon miqyosida ham tabarruk sana sifatida nishonlanmoqda. O‘zbek tili bayrami bir kunlik tadbir emas. Ona tilimizning borligi, mudom barqarorligi biz uchun katta bayramdir.

“QADRING BALAND BO‘LSIN, ONA TILIM” TANLOVI G‘OLIBLARI TAQDIRLANDI

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti e’lon qilgan “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim” tanlovi g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Davlat tili ustuvorligi ta’minlangan eng namunali hudud (tuman va shahar hokimliklari) yo‘nalishi bo‘yicha: 1-o‘ringa Toyloq tumani, 2-o‘ringa Romitan va Qo‘shtepa tumanlari, 3-o‘ringa esa Shumanay va Qamashi tumanlari, Chirchiq shahri hokimliklari munosib ko‘rildi.

Davlat tilida ish yuritish yo‘lga qo‘yilgan eng yaxshi tizim (vazirlik, idora, xo‘jalik birlashmalari) yo‘nalishi bo‘yicha: 1-o‘ringa Raqamli texnologiyalar vazirligi; 2-o‘ringa “Maksam – Chirchiq” aksiyadorlik jamiyati va Soliq qo‘mitasi; 3-o‘ringa esa O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi, Bilim va malakalarni baholash agentligi loyiq topildi.

Sovrindorlar pul mukofoti va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

12 TA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA FRANSUZ TILI BEPUL O‘RGATILADI

“Kokoro Lingua” kompaniyasi asoschisi Natali Lasslet 14-15-oktabr kunlari Toshkent shahriga tashrif buyurdi. Maqsad 3-oktabr kuni Parij shahrida Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri Hilola Umarova bilan imzolangan grant kelishuvini amalga oshirishdan iborat.

Lasslet xonim poytaxtimizdagi 34- hamda 100- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bo‘lib, bolajonlarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. So‘ngra Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlari malaka oshirish institutida ikkinchi xorijiy til sifatida fransuz tili joriy qilinadigan MTT rahbar va metodistlari uchun “Kokoro Lingua” platformasidan foydalanish bo‘yicha seminarda ishtirok etdi.

Ma’lumot uchun: “Kokoro Lingua” bolalar uchun til o‘rgatish bo‘yicha innovatsion xalqaro kompaniya hisoblanadi. Vazirlik va ushbu kompaniya o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq, “Kokoro Lingua” kelgusi bir yil davomida 12 ta maktabgacha ta’lim tashkilotida 5–6 yoshli bolalar uchun fransuz tilini bepul o‘qitadi.

Muxlisa DO‘STMUHAMEDOVA



QODIRIYGA MUNOSIB AVLOD

bilimda ham, ijodda ham peshqadam

Biz ijod maktablarida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilganmiz.
Shavkat MIRZIYOYEV


Mamlakatimiz ta'lim tizimida ijod maktablarini tashkil etish tajribasi o'zini to'la oqladi. Badiiy adabiyot va boshqa ijod sohalariga mehr qo'ygan iqtidorli yoshlarni saralash va tarbiyalash, ularning iste'dodini rivojlantirish borasidagi bo'shliq to'ldirildi. Kelajakda o'zbek adabiyoti va san'ati, ommaviy axborot vositalari uchun munosib kadrlar tayyorlashga juda katta zamin hozirlandi. Eng muhimi, ayni paytda mavjud 9 ta ana shunday ta'lim muassasasida milliy o'zligimiz, ona Vatanimiz va xalqimizga sadoqatli yetuk ijodkorlarning yangi avlodi kamol topmoqda.

"Til va adabiyot ta'limi" jurnali ijod maktablarining namunali faoliyatini keng jamoatchilikka yetkazish, samarali tajribasini boshqa ta'lim dargohlariga ham ommalashtirish maqsadida yangi rukn tashkil etmoqda. Endi nashrimizning navbatdagi sonlarida yurtimizning turli hududlarida ochilib, xalqimizning sevimli shoir-yozuvchilari nomi bilan ataladigan ijod maktablaridan tahliliy maqolalar o'qib borishingiz mumkin. Muxbirimiz dastlabki reportajni Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabidan tayyorladi.

O'zbek romanchiligining asoschisi, vatanparvar adib Abdulla Qodiriy xotirasiga ehtirom ko'rsatish, milliy adabiyotimiz rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini ulug'lash maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan poytaxtimizning Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i oldida ijod maktabi va muzey barpo etilgan.

O'tmishda jadid bobolarimiz asos solgan Turon kutubxonasi yaqinida qad rostlagan buyuk adibning mahobatli haykali oldidan o'tib, naqshinkor eshiklar orqali maktab binosiga kirdik. Chap tomondagi bejirim javonga terilgan qator faxriy yorliqlar, turli qomusiy kitoblar maktab haqidagi dastlabki taassurotni beradi.

Oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Aziza Saydullayeva maktab bilan tanishtirish avvalida bizni birinchi qavatda joylashgan, 8 mingdan ortiq kitob jamlangan kutubxona tomon boshladi. Bu yerda kitob o'qish, dars tayyorlash uchun barcha sharoitlar muhayyo. Javonlarga did bilan terilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar o'z o'quvchilariga



ko‘p ham intiq bo‘lmasligini kutubxona gavjumligidan ham sezish mumkin.

So‘ng birma-bir sinfxonalarni aylandik: keng, yorug‘, elektron doska, kompyuter, monitor, televizor kabi zamonaviy texnologiyalar… Ayniqsa, XX asr boshlariga xos uslubda yasalgan partalar, devordagi naqshinkor tokchalar va biror fanga mos jihozlangan xonalarning har birida Abdulla Qodiriy nafasi ufurib turgandek.

Mazkur dargohda 207 nafar o‘quvchi ta’lim oladi. Ularga 20 nafar oliy va birinchi toifali pedagog saboq berib kelmoqda. Albatta, havas qilsa arzigulik bunday ijod maktabining qat’iy maqsad va vazifalari bor. O‘qituvchi va o‘quvchilarga muayyan talablar qo‘yilgan. Bu haqda **direktor vazifasini vaqtincha bajarib turgan Berdiyor To‘ychiyev** shunday dedi:

– Bizning maqsadimiz ijodkor yoshlarni saralab olib, ularning intellektual salohiyati va iste’dodini yuksaltirish, ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq ona tili va adabiyot, xorijiy tillar, aniq va tabiiy hamda ijtimoiy fanlardan sifatli ta’lim berishdir. Shuningdek, o‘zbek tili va adabiyotini dunyoga tanitishga xizmat qiladigan ijodkor yoshlarni tarbiyalash, kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda liderlik, kreativ va tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash, loyihalarni boshqarish, notiqlik san’ati, bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Umuman olganda, yoshlarimizni barcha soha bo‘yicha bilim, malaka, ko‘nikmalarga ega, keng tafakkurli zamonaviy shaxs sifatida voyaga yetkazishni maqsad qilganmiz.

Maktab rahbarining so‘zlariga ko‘ra, bunga erishish uchun o‘quvchilarning ilmiy va badiiy ababiyotni o‘qishga qiziqishini oshirish orqali yot g‘oyalarga qarshi mustahkam immunitet shakllantirilmoqda. Qolaversa, ularga boy adabiyotimiz va tilimiz bilan faxrlanish, xalqimiz tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlariga hurmat tuyg‘ulari singdiriladi. Mushtarak maqsad yo‘lida bir jamoaga birlashgan o‘qituvchi-ustozlar esa maxsus sinovlar asosida ishga qabul qilinadi. Axir bunday nufuzli dargohda faoliyat yuritishni kim ham istamaydi deysiz?! Bir chetda jilmayib turgan, yaqinda ishga qabul qilingan **Jasur To‘ychiyev** gapga qo‘shimcha qildi:

– Abdulla Qodiriydek ulug‘larimizga munosib yoshlarni tarbiyalash uchun, albatta, o‘qituvchining o‘zi ham keng tafakkurga, chuqur bilimga, yetarlicha pedagogik mahoratga ega bo‘lishi lozim. Shundan kelib chiqib uch bosqichli sinov imtihonlari yo‘lga qo‘yilgan: test, suhbat va bir soatlik dars o‘tish orqali pedagogik mahoratni ko‘rsatib berish. Ana shu bosqichlardan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodgina o‘qituvchilar safidan joy oladi.

E’tiborga molik yana bir ma’lumot: Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tahlillari bu yil Abdulla Qodiriy ijod maktabi bitiruvchilari oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarida erishgan o‘rtacha natija 153,78 ballni tashkil etganini ko‘rsatdi. Ushbu ko‘rsatkich o‘quv maskanini o‘tgan yilgi reytingidagi 5-o‘rindan bir pog‘ona yuqoriga – 4-o‘ringa olib chiqdi. Bu, albatta, ustozlarning mashaqqatli mehnatlari samarasidir!

Prezidentimizning 2024-yil 1-apreldagi “Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, bunday ta’lim maskanlarida gid, tahrirchi, restavrator yordamchisi, tele- va radiokanallarda rejissor yordamchisi, ovoz yozish rejissori assistenti, muharrir yordamchisi, reportyor, bosma nashriyotlarda muharrir va dizayner, kitoblarni skaner-

lash, raqamlashtirish va raqamlashtirilgan resurslarni qayta ishlash, san'atshunoslik, aktyorlik san'ati, rejissorlik, xalq ijodiyoti sohalaridagi kasblarga o'rgatish bo'yicha amaliy darslarni joriy etish ko'zda tutilgan.

– Ushbu qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti bilan hamkorlik o'rnatildi, – deydi **direktorning ma'naviy-marifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Muxlisa Rasulova.** – Hamkorlikdagi istiqbolli rejalar muhokama qilinib, yo'l xaritasi ishlab chiqilgan. Imzolangan qo'shma qarorga ko'ra maktabimizda institutning Amaliy san'at fakulteti "Chizmatasvir" kafedrasi bo'limi tashkil etildi. Kafedra professori, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, rassom Ortiqali Qozoqov ishtirokida yuqori sinf o'quvchilarimiz uchun ijodiy uchrashuv ham o'tkazildi. Mahorat darsida ular nafaqat rassomlik, balki san'at turlariga oid barcha savollarga javob olishdi.

Abdulla Qodiriy ijod maktabi va Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'rtasida memorandum imzolandi. Shu asosda maktabda mazkur oliy o'quv yurtining "Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik" kafedrasi bo'limi ochildi. O'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida ham bo'lishdi. Tashrif chog'ida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi mudiri Sharifjon Islomovdan XX asr boshida ta'lim tizimi va shu mavzuda olib borilayotgan izlanishlar haqida ma'lumot olishdi. Restavratsiya bo'limi xodimlari Bashorat Xo'jayeva, Islom Rahimov va Nodira Saidovalar institutda saqlanayotgan qo'lyozmalar restavratsiyasi va qayta konservatsiyalash, qo'lyozmalarni ta'mirlash, mulyaj yasash sirlari bo'yicha tashkil etgan mahorat darslari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.



Yo'limiz media xonasi tomon tushdi. Sohaning yetuk mutaxassislari o'quvchilarga matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar, fotojurnalistika, videotasvir, dizaynerlik, montaj sir-u asrorlarini o'rgatadi. "MY5" telekanali boshlovchisi Dildora Abduxalilova nutq texnikalari, his-hayajonni yengish, tez gapirish muammosidan xalos bo'lish, fikrlarni tizimlashtirish, ovoz jarangdorligini oshirish bo'yicha o'tib bergan mashg'ulot nafaqat o'quvchilarda, balki biz ustozlarda ham o'zgacha taassurot qoldirdi, dedi Aziza Saydullayeva.





Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Gulnoza Nigmatullayevaning ta’kidlashicha, ijodkor yoshlarning salohiyatini yuksaltirish, badiiy so‘z bilan ishlash sirlarini puxta o‘rgatish maqsadida Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yilgan mahorat darslari ham o‘quvchilarni izlanuvchanlikka, badiiy so‘z imkoniyatini yanada chuqur o‘rganishga undamoqda. Jumladan, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Bahodir Karim, Erkin A’zam, Iqbol Mirzo, Olimjon Davlatov, Orif To‘xtash, Ahmadjon Meliboyev, Rustam Musurmon, Suvon Meli, Abdulla Sher, Shodmonqul Salom kabi taniqli olim, yozuvchi va shoirlarning ijod sirlariga oid suhbatlari, mahorat darslari o‘quvchilar qalbida badiiy so‘z sehriga muhabbatni yana bir karra oshirgani shubhasiz.

Maktabda o‘quvchilarni rag‘batlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Jumladan, ular orasidan prezident va yordamchilarining tanlab olinishi yoshlarda liderlik hissini o‘stirishga yo‘naltirilgan. Prezidentning vazifalari nimalardan iboratligi, o‘tgan o‘quv yilida o‘quvchilar saylangan bu “lavozim” egasi nimalarga erishgani haqidagi savollarimizga **ingliz tili o‘qituvchisi Tursunoy Yo‘ldosheva** shunday javob berdi:

– O‘quvchilar orasidan maktab prezidentini saylash sobiq direktorimiz Hilola Nazirovaning g‘oyasi edi. Prezident o‘quvchilar va maktab rahbariyati o‘rtasidagi muloqotni ta’minlovchi ko‘prik vazifasini bajaradi. U va yordamchilari tengdoshlarining muammolarini o‘rganadi, yechimini topishga yordam beradi. Tashabbuskor o‘g‘il-qizlarining ijodiy loyihalari bilan tanishib, ularni to‘g‘ri yo‘naltirishga ko‘maklashadi. “Zakovat” klubi faoliyati bilan shug‘ullanadi. Maktabimiz o‘quvchilarining o‘tgan yilgi prezidenti mana shu vazifalarning barchasini a’lo darajada bajargan. U qabul imtihonida 186 ball to‘plab, davlat granti asosida Sharqshunoslik institutining filologiya fakulteti talabasiga aylandi.

Maktabda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishib borar ekanmiz, bir sinfda kompyuterga tikilgancha berilib ishlab o‘tirgan o‘qituvchiga ko‘zimiz tushdi. Sinfxonaga ruxsat so‘rab kirib, ustoz bilan tanishdik: **rus tili fani o‘qituvchisi, jurnalimizning doimiy mualliflaridan biri Leyla Tagiyeva** ekan. Mohir pedagog bilan biroz suhbatlashdik:

– Har yili Abdulla Qodiriyning biror asarini rus tilida o‘quvchilar bilan sahnalashtiramiz. “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari bilan ishladik. Bu yilgi rejam – “Obid ketmon” bo‘lib turibdi. Hozir adibning ushbu asari bilan tanishib, kelgusi sahna ko‘rinishimiz ustida bosh qotirayotgandim, – dedi u jilmayib.

Maktab o‘quvchilarining ijod namunalari respublika davriy nashrlarida muntazam ravishda chop etib borilmoqda. “Mening birinchi kitobim” loyihasi doirasida 11-sinfdan Gulsanam Mamarajabova, Gulira’no Anvarova, 10-sinfdan Komila Abdug‘aniyeva, 9-sinfdan Xadicha Abdurahmonova, Shahzoda Orifjonova kabi o‘quvchilarning ilk to‘plamlari taqdimoti o‘tkazilgan. 11-sinf o‘quvchisi Muslima Ilhomjonovaning IELTSdan 8 ballik sertifikatga ega bo‘lgani ham ustozlar qalbini quvonchga to‘ldirgani aniq.

Ta’lim maskanida o‘quvchilarga nafaqat bilim berishga, balki yoshlarning jismoniy sog‘lom bo‘lishiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Ochiq va yopiq zallarda sport bilan shug‘ullanish hamda salomatlikni mustahkamlash uchun barcha qulayliklar mavjud...

Kamtar, intiluvchan ustozlarga mazmunli uchrashuv, hayajonli suhbat uchun tashakkur bildirib, yan-



gi o‘quv yili muvaffaqiyatlarga boy bo‘lishini tilagan holda xayrlashar ekanmiz, ko‘zlarida kasbidan faxr tuyg‘usi balqigan Aziza Saydullayeva so‘zini mana bunday yakunladi:

– Abdulla Qodiriy izdoshlarini, jadidlarimiz orzu qilgan farzandlarni tarbiyalayotganimizdan g‘ururlanaman. Buyuk bobolarimizning maqsad-u maslaklarini amalga oshirishga oz bo‘lsa ham hissa qo‘shayotganimizdan o‘zimni baxtiyor sezaman.

Nigora URALOVA,
“Til va adabiyot ta’limi” jurnali muxbiri



Nilufar NAMOZOVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti

"... HANUZ JIDDIY TADBIR KO'ROLMADIK"

O'zbek tili uchun bir yarim asrlik kurash tarixiga qisqacha nazar

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 35 yil to'ldi.

O'z tilini saqlab qolish uchun kurash o'zbek xalqining keyingi asrlardagi hayotida doim dolzarb va ezgu g'oyalardan biri bo'lib keldi. Negaki, Chor Rossiyasi hukmronligining ilk davridayoq Turkistonda olib borilishi ko'zda tutilgan ruslashtirish siyosatining mohiyatida mahalliy xalqning tiliga nisbatan ham qattol munosabat bor edi. Sharqshunos-missioner N.Ilminskiy Chor Rossiyasi tarkibidagi turkiy xalqlarning yozuvini kirill alifbosiga o'tkazish konsepsiyasini ishlab chiqdi [1: 43]. Garchi imperiya davrida buni amalga oshirishga jur'at etishmagan bo'lsa-da, keyingi bolsheviklar mustamlakachiligi davrida bu ish osongina hal etildi.

Bu muhim masala, albatta, Turkiston ziyolilarining doim diqqat-markazida turdi. Ismoil Gasprali: "Millat bu – til va din birligi, ushbu ikki narsadan biri yo'qotilsa, millat o'zligini yo'qotadi", [1: 32] deydi. Jadid ziyolilari ham buni chuqur anglab yetgan edilar. Shuning uchun ham ona tili rivoji uchun qayg'urishdi. Matbuotda barchaning e'tiborini shu masalaga qaratishdi. Jumladan, Abdurauf Fitrat "Tilimiz" maqolasida shunday yozadi: "Dunyoning eng boy tili turkchadur, eng baxtsiz tili xud turkcha... Dunyoning eng boy tili bo'lg'an turkchamiz yolg'uz arabcha qumruqlar (zabt etilish) bilan emas, forsi(y)cha tepkilari bilan daxi ezilmishdir. Ko'zlarimizni to'rt ochib qarayliq, dunyoning eng buyuk hakimi bo'lg'an Ibn Sino turkdir. Ikkinchi Arastu atalg'an Forobiy turkdir. Arab tilini mangulik tirg'izib kelgan Javhariy turkdir. "Vahdati vujud" falsafasining imomlaridan bo'lg'an Jaloliddin Rumiy turkdir. Forsiy adabiyotining payg'ambarlaridan bo'lg'an Nizomiy daxi turkdir. Shu yerlarda otlari yozilg'an kimsalar-da yolg'uz turk ulusini emas,

butun dunyoning ulug‘ kishilarindan erurlar... Bunlar o‘z bitiklarini turkcha yozsalar edi, bukun turk ulusining holi, ehtimolki, boshqa turli bo‘lur edi. Baxtsizlik bundan-da ortiq bo‘lurmikin?!” [2: 124] deydi.

Ashurali Zohiriy ham “turkiy tilning uzoq davr arab va fors tillari tazyiqi ostida qolib kelganidan, so‘nggi paytda esa uning butunlay “arabiy imlo tartibida yoziladirg‘on, o‘ndan bir kalimasini ham kishi yozib anglamaydurg‘on bir darajaga yetib qolg‘onlig‘idan” qayg‘urar ekan, shunday yozadi: “Buning bilan kundan-kun, yildan-yil o‘tkan sari tilimiz oqmay qolg‘on suvdak muzlamoqqa boshladi. Hatto ba’zi kishilarimiz arabiyga xeyli iqtidorli bo‘lsa, o‘z tilimizning eng keraklik qoidalarini ham bilmaydurg‘on bo‘ldilar” [3: 30].

Jadid ziyolilari o‘zbek tilining qonun qoidalarini ishlab chiqish, lug‘atlar tuzish ishiga sidqidildan kirishishdi. Aytish joizki, bugungi o‘zbek adabiy tili rivojida Fitrat, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon, Elbek, G‘ozi Olim Yunusov singari tilshunos olimlar katta hissa qo‘shishdi.

Chor imperiyasi ag‘darilib, bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgach, mahalliy millatlarni bo‘ysundirish maqsadida 1918-yili turkiy til – davlat tili deb e’lon qilindi. Albatta, keyingi 50 yil davomida hukumatga tilmochlar yordamida rus tilida murojaat qilgan Turkiston xalqini bu quvontirdi. Lekin ko‘p o‘tmay ma’lum bo‘ldiki, berilgan va’dalar faqat qog‘ozlarda qolib ketmoqda. Jadid ziyolilaridan biri Hoji Muin 1921-yili “So‘z, qaror va ish” sarlavhali maqolasida buni afsus bilan: “Bu uch yarim yillik inqilobiy davrda ko‘b so‘zlar so‘ylandi, mitinglar qilindi, tashviqotlar etildi. Va g‘oyat mutaraqqiy yaxshi qarorlar chiqarildi, lekin yo‘q darajasinda oz ish qilindi... Turkistonda aksar aholi musulmon bo‘ldig‘i e’tiborga olinib, mundan uch yil burun turkcha til – rasmiy davlat tili deb e’lon etilsa-da, buni amalg‘a kirgizmak uchun hanuz jiddiy tadbir ko‘rolmadik. Balki bu “eski hammom – eski tos” mazmunicha ko‘p mahkama va idoralarda hanuz rus tili hukmfarmoyishdadir” [4], deb yozadi. Tarixdan ma’lumki, jadid ziyolilarining til masalasidagi orzulari ham amalga oshmadi, aksincha, ko‘p o‘tmay ular millatchilikda ayblandi.

Bolsheviklar dohiysi V.I.Lenin 1922-yili “Lotinlashtirish bu – Sharqdagi ulug‘ revolutsiyadir”, deydi. Lotinlashtirish turkiy xalqlarni bir-biridan, tarixidan uzish uchun uzoqni ko‘zlab qilingan siyosatga qo‘l kelar edi. Turkistonda 1930-yilga kelib eski arab alifbosidan lotin grafikasiga, 1940-yildan rus grafikasi asosida kirill alifbosiga o‘tildi. Bu Chor Rossiyasi davrida ishlab chiqilgan rejaning amalga oshishi edi.

Albatta, faqat alifbo o‘zgargani yo‘q. Sovet hokimiyatining o‘zbek tilini rus tili hisobiga “boyitish” rejasi o‘z samarasini bera boshladi. Ilgari bemalol qo‘llanib kelingan so‘zlar endi arxaik so‘z sifatida rus tilidan kiritilgan so‘zlarga almashtirildi. Bu haqda matbuotda bong urildi. Masalan, “O‘zbek tilini ko‘p asrlar davomida arab va fors so‘zlari bosib ketgan bo‘lib, keng mehnatkashlar ommasi tushunishi qiyin bo‘lgan arxaik terminlar bilan to‘lib-toshgan edi. Burjua millatchiligi ta’siri ostida bo‘lgan ba’zi matbuot xodimlari sotsializm qurilishi davrida vujudga kelgan yangi internatsional so‘zlarni arxaik, arab-fors so‘zlari bilan almashtirishga harakat qildilar. Masalan, ular “sovet” so‘zi o‘rniga “sho‘ro”, “respublika” o‘rniga “jumhuriyat”, “doklad” o‘rniga “ma’ruza”, “kommunist” o‘rniga “ishtirokiyun”, “sotsializm” o‘rniga “ijtimoiyun” so‘zlarini ishlata boshladilar. Partiya va sovet matbuoti bu oqimlarga qarshi kurash olib borib va o‘z amaliy ishi bilan o‘zbek tilining chet el so‘zlaridan tozalanishiga va o‘zbek tili lug‘at sostavining rus va internatsional so‘zlar, terminlar va iboralar bilan boyishiga yordam berdi” [5], deyiladi 1967-yili “Mahalliy matbuot xodimlariga yordam” jurnalida.

Shu tarzda o‘zbek tilidagi so‘zlarni “ruscha-internatsional” so‘zlarga almashtirishga ruju qo‘yildi. XX asrning 60–70-yillar matbuotini varaqlasak, har bir material sarlavhasida hech bo‘lmaganda ikki yoki uchta rus tilidan kirib kelgan so‘z qo‘llanilganini ko‘ramiz. Masalan, “Planni oshig‘i bilan bajargan udarnik” singari.

O‘sha davr haqida yozilgan maqolalarda tilni saqlab qolish uchun qilingan ishlar ham qayd etilgan. Jumladan, Ibrohim Rahim “Guliston” jurnaliga muharrir bo‘lgach, “revolutsiya” – “inqilob”, “redaksiya” – “tahririyat”, “avtor” – “muallif”, “poeziya” – “nazm” yoki “she’riyat”, “proza” – “nasr”, “filosofiya” – “falsafa” tarzida ruscha so‘zlarning o‘zbekchasi muomalaga kiritiladi. Bu, albatta, “rus tiliga nisbatan qo‘pollik” deb qabul qilinib, jurnal bosh muharriri Ibrohim Rahim millatchi tamg‘asi bilan ishdan olinadi.

Shunday bo‘lsa-da, o‘zbek ziyolilari qarab turishmadi. Qayta qurish yillarida matbuotda til masalasi bot-bot ko‘tarildi. Nihoyat, mustabid tuzumning so‘nggi yillarida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishiga erishildi. Bugun davlatimizda boshqa tilni ikkinchi til sifatida qo‘llashni yoqlab chiqayotgan o‘zbek farzandlari o‘z ona tili mavqeyi uchun kurashish burchi ekanini unutib qo‘yayotgani yangi xavotirlarni uyg‘otadi. Zero, tarix saboqlari unutilmasligi, millat sifatida kelajak uchun qayg‘urish hissiyoti hech birimizni tark etmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurashidov Z. Turkistonda jadidchilik. – Toshkent: Akademnashr, 2023.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
3. Tog‘ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
4. Hoji Muin. So‘z, qaror va ish. // “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, 1921-yil 26-may.
5. Sovet milliy matbuotining vujudga kelishi va mustahkamlanishi // Mahalliy matbuot xodimlariga yordam. 1964-yil 6-son.

Orifjon MADVALIYEV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

ADABIY TAHRIR MALAKASINI SHAKLLANTIRISH: QAYSI KO'NIKMALAR USTIDA ISHLASH KERAK?

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalarida adabiy tahrir ko'nikmasini shakllantirish zarurati, muammo va yechimlar ko'rsatilgan. Xulosalar o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari o'rtasida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan. Natijalar bir necha ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilinib, tegishli xulosalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *adabiy tahrir, tahrirni o'rgatish, matn bilan ishlash, o'zbek tili ta'limi, savodxonlik.*

Annotation. *This article highlights the need, problems and solutions for developing literary editing skills in the Uzbek language and literature students. The conclusions are based on the results of experimental work conducted with students majoring in the Uzbek language and literature. The results are analyzed using several indicators and appropriate conclusions are drawn.*

Keywords: *literary editing, teaching editing, working on text, Uzbek language education, literacy.*

Аннотация. *В статье рассматриваются необходимость формирования навыков литературного редактирования у студентов направления узбекского языка и литературы, а также проблемы и пути их решения. Выводы основаны на результатах экспериментального исследования, проведенного среди студентов направления узбекского языка и литературы. Результаты проанализированы по нескольким показателям, и на их основе сделаны соответствующие выводы.*

Ключевые слова: *литературное редактирование, обучение редактированию, работа с текстом, преподавание узбекского языка, грамотность.*

Matn bilan ishlash ko'nikmasi savodxonlik darajasi bilan bevosita bog'liq. Savodxonlikning birlamchi ma'nosi o'qish-yozishni bilishdir. Bu tushuncha odamning adabiy til me'yorlariga muvofiq keladigan og'zaki va yozma nutq malakalariga, muayyan soha bo'yicha yetarli bilimga egaligi kabi ma'nolarni ham ifodalaydi [1: 417]. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yili O'zbekistonda 15 yoshdan yuqori ayollarning savodxonlik darajasi 99,98 % ga, erkaklarniki esa 99,99 % ga yetgan [2: 24]. Demak, aholining katta yoshli qismi to'liq savodli deb hisoblash mumkin. Biroq bunda savodxonlikning birlamchi ma'nosi – o'qish-yozishni bilish nazarda tutilyapti. Adabiy til me'yorlariga muvofiq keladigan og'zaki va yozma nutq malakasi qay darajada? Afsuski, bu bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmagan. Biroq ijtimoiy tarmoqlarda turli reklama-e'lonlar, televideniye, kitob va qo'llanmalarda uchrayotgan imloviy, punktuatsion va uslubiy xatolar haqidagi postlarga ko'p duch kelamiz. Vikipediya ochiq ensiklopediyasi ma'lumotlariga ko'ra, o'zbekcha Vikipediyada grammatik va imloviy xatolarga to'la, bundan ham muhimi, mujmal va tushunarsiz kontent muammodir. Ushbu ensiklopediyaga kiritilayotgan o'zbekcha matnlarda eng ko'p ko'zga tashlanadigan xatolar:

• Ba'zi maqolalardagi gaplar umuman tushunarsiz bo'lib, ularni tuzatish uchun deyarli boshdan-oyoq tahrir qilish kerak. Bunday maqolalar safiga mashina tarjima qilgan kontent yaqqol misol bo'la oladi.

• Ayrim maqolalardagi grammatik va imlo xatolarini bartaraf etish uchun chuqur tahrir qilinishi kerak.

• Ayrim maqolalarda sheva so'zlari yoki xorijiy tillardagi so'zlar ishlatilgan [3].

Vikipediyaga maqola joylovchilarning asosiy qismi yoshlar, xususan, talabalar ekanini hisobga olsak, matn yaratish va uni qayta ishlash borasida yetarlicha muammolar borligi haqida muayyan xulosaga kelish mumkin.

Savodxonlik va matn bilan ishlash ko'nikmasi dastlab maktabda shakllanadi, so'ng oliy o'quv yurtida, undan keyin esa butun umr davomida rivojlanib boradi. Buning asosini ona tili ta'limi qo'yadi. Yangi avlod "Ona tili" darsliklarida matn bilan ishlash, jumladan, adabiy tahrirga alohida e'tibor qaratilyapti. Masalan, Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan 6-sinf darsligida matn yozish, matnlarni tahlil qilish, o'zi yoki sinfdoshi yozgan matnni tahrir qilish, qayta yozish bo'yicha topshiriqlar berilgan. Alohida bir dars tahlil va tahrir soati sifatida belgilangan [4]. 7-sinf darsligida esse yozish va uni tahrir qilish, qayta tahrir, tahlil va tahrir, imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolar ustida ishlash, jamoaviy tahrir bo'yicha topshiriqlar berilgan [5]. 10-sinf darsligidan esa matn ustida ishlash, uni kengaytirish yoki qisqartirish, matnni qayta yozish, imlo va punktuatsiya, qo'shimcha va so'z qo'llash bilan bog'liq xatolarni to'g'rilash, mantiqiy xatolarni bartaraf etish bo'yicha topshiriqlar, nisbatan batafsil didaktik ma'lumotlar o'rin olgan [6].


Ijod maktablarining 7-sinflari uchun ishlab chiqilgan "Ona tili" darsliklarida esa tahrir mavzusiga yanada keng o'rin berilgan. "Tadqiqot va tahrir" nomli alohida bir bob so'z, jumla va matn bilan ishlash, adabiy tahrir malakasini shakllantirishga qaratilgan [7: 93–124].

Darslik va qo'llanmalarga adabiy tahrirga oid mavzular, mashq va topshiriqlar kiritilganini e'tirof etish zarur. Biroq u to'laqonli samara berishi uchun birinchi

galda ona tili va adabiyoti o‘qituvchilarini tayyorlash yoki malakasini oshirish kerak. O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talabining eng yangi talqinini Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2024-yili ishlab chiqqan va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasdiqlagan [8]. Ushbu hujjatda malaka talablari o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalashi belgilangan. Afsuski, malaka talablarida talaba adabiy tahrir ko‘nikmasiga ega bo‘lishi ko‘rsatilmagan. Bu esa o‘z-o‘zidan o‘quv dasturlari va rejalarida ham tahrir bilan bog‘liq mashg‘ulotlar yo‘qligiga olib kelgan. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 2024/2025-o‘quv yili o‘quv rejasida adabiy tahrir bilan bog‘liq fan aks etmagan [9].


Ilmiy tadqiqot talabalarda adabiy tahrir ko‘nikmasini shakllantirish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan va bunda o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi obyekt sifatida tanlangan. Biror ko‘nikmani shakllantirishdan oldin talaba bunga qay darajada tayyor yoki unda muayyan ko‘nikmalar qay darajada shakllanganini aniqlash maqsadga muvofiq. Shu sababli o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabalari o‘rtasida tajriba-sinov o‘tkazildi. Unda 108 nafar talaba qatnashdi va jami 324 ta matnni tahrir qildi. Tahrir uchun matn tanlashda “Ona tili” darsliklaridagi matn turlari asos qilib olindi va talabalarga hikoya matn, tasviriy matn va muhokama matn berildi. Ushbu matnlardan imloviy va punktuatsion; qo‘shimcha; yordamchi so‘z; so‘z va iboralar; gap darajasidagi xatolarni topish hamda to‘g‘rilash topshirig‘ini bajargan talabalar jami **5929** ta tuzatish kiritdi (shundan **5 168** tasi to‘g‘ri, **761** tasi yanglish).

Har bir to‘g‘rilash xatoning turiga ko‘ra alohida-alohida hisob-kitob qilindi. Uch xil turdagi matnda jami 17 ta punktuatsion, 39 ta imloviy, qo‘shimchalar bilan bog‘liq 41 ta, yordamchi so‘zlar bilan bog‘liq 4 ta, so‘z va iboralar bilan bog‘liq 46 ta va jumla darajasidagi 1 ta xato bor edi:



1-diagramma. Matndagi jami xatolar: 148 ta.

Talabalar eng ko‘p imloviy xatoni topa olgan – **60,66** foiz. Keyingi o‘rinda qo‘shimchalar bilan bog‘liq xatolar – **35,89** foiz tuzatilgan. Punktuatsion tuzatishlar **32,84** foiz, yordamchi so‘zlar bilan bog‘liq tuzatishlar **28,24** foiz, so‘z va iboralar bilan bog‘liq tuzatishlar esa **6** foizni tashkil etadi. Eng past ko‘rsatkich jumla darajasidagi xatoni aniqlashda – uni bir nafar talaba aniqlay olgan, xolos.




2-diagramma. Talabalarning to‘g‘ri tuzatishlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichi (dona hisobida).

Yuqoridagilardan talabalar adabiy tahrirda qo‘shimchalar bilan bog‘liq xatolarni nisbatan yaxshiroq ilg‘ay oladi, yordamchi so‘zlar bilan bog‘liq ko‘nikmalari nisbatan pastroq, so‘z va iboralar bilan bog‘liq xatolarni topa olishi boshlang‘ich darajada degan xulosaga kelish mumkin.

Tuzatishlar 10 ballik tizimda baholandi. Osonqiyinligi, mazmunga ta’siriga ko‘ra punktuatsion tuzatishlarga 0,7, imloviy tuzatishlarga 1, qo‘shimchalar bilan bog‘liq tuzatishlarga 1,3, yordamchi so‘zlar bilan bog‘liq tuzatishlarga 1,5, so‘z va iboralar bilan bog‘liq tuzatishlarga 2,5, jumla darajasidagi tuzatishga 3 ball berildi. Matndagi jami xatolar tuzatilsa, maksimal ball – **228,20** hosil bo‘ladi. Talabalar o‘rtacha **55,31** ball to‘play oldi, xolos. Bu maksimal ko‘rsatkichning **24,2** foizidir.

Matnlarga kiritilgan yanglish tuzatishlar ham bor. Bunda talabaning tahriri matn sifatini ko‘tarishga emas, tushirishga xizmat qilgan. Jami **761** ta xato tuzatish kiritilgan va ularning **55,8** foizi – 425 tasi punktuatsion, keyingi o‘rinni imloviy yanglish tuzatishlar egallagan – 148 ta.



3-diagramma. Talabalar kiritgan jami yanglish tuzatishlarning xato turlariga ko‘ra miqdori.

To‘g‘ri tuzatishlar ichida punktuatsion tuzatishlar soni bo‘yicha 3-o‘rinda edi, xato tuzatishlarda 1-o‘rinda. Demak, talabalarning punktuatsiya bo‘yicha ko‘nikmalarida sezilarli oqsashlar bor.

Talabalarning yanglish tuzatishlari bo‘yicha o‘rtacha balli (**7,50**) to‘g‘ri tuzatishlar ballidan (**55,31**) ayirib tashlanadigan bo‘lsa, ularning sof ko‘rsatkichi **47,81** ballni tashkil etadi. Bu maksimal **228,20** ballning **20,95** foizi deganidir. Ya’ni talaba adabiy tahrirda 100 foizlik imkoniyatdan qariyb 21 foizlik ko‘rsatkichga erisha olyapti, xolos.

Talabalar to‘plagan eng yuqori ball – **119,9**. Bu maksimal ballning **52,5** foizidir. Demak, eng yaxshi ko‘rsatkich 50 foizlik chiziqdan birozgina baland. Yana bir e’tiborli jihati, tajribada-sinovda qatnashganlarning 4 nafarigina 100 balldan yuqori natija qayd eta olgan.

Natijalarni umumlashtiradigan bo‘lsak, talabalar bilan tajriba-sinov materiallarida aks etgan barcha turdagi xatolarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borilishi kerak. Ko‘rsatkichlar hech bir yo‘nalishda qoniqarli emas.

Umumta’lim maktablari va ijod maktablari uchun darsliklarga tahrir bilan bog‘liq darslar kiritilgani ijobiy hodisa. Chunki bu o‘quvchining tildan amaliy foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, matn bilan ishlash, so‘z qo‘llash, fikrni aniq va ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq buning uchun birinchi galda ona tili va adabiyot o‘qituvchilarida bu ko‘nikma shakllangan bo‘lishi kerak. Yuqoridagi natijalar bo‘lajak o‘qituvchilar – o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalarida adabiy tahrir ko‘nikmalari yetarlicha emasligini ko‘rsatdi. Ta’limning quyi bosqichidagi o‘zgarishlarga hozirjavob bo‘lish, umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim o‘quv dasturlari muvofiqligini ta’minlash uchun o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi o‘quv dasturlariga adabiy tahrir bilan bog‘liq fan kiritilishi maqsadga muvofiq. Bu yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari qatoriga boshlang‘ich adabiy tahrir ko‘nikmalariga egalik ham qo‘shilishi zarur. Bu oliy ta’limda tegishli fanni joriy etish uchun mustahkam asos bo‘ladi.

> O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA’LIM YO‘NALISHI 3-KURS TALABALARI O‘RTASIDA TAJRIBA-SINOV O‘TKAZILDI. UNDA 108 NAFAR TALABA QATNASHDI VA JAMI 324 TA MATNNI TAHRIR QILDI. TAHRIR UCHUN MATN TANLASHDA “ONA TILI” DARSLIKLARIDAGI MATN TURLARI ASOS QILIB OLINDI VA TALABALARGA HIKOYA MATN, TASVIRIY MATN VA MUHOKAMA MATN BERILDI. USHBU MATNLARDAN IMLOVIY VA PUNKTUATSION; QO‘SHIMCHA; YORDAMCHI SO‘Z; SO‘Z VA IBORALAR; GAP DARAJASIDAGI XATOLARNI TOPISH HAMDA TO‘G‘RILASH TOPSHIRIG‘INI BAJARGAN TALABALAR JAMI 5929 TA TUZATISH KIRITDI (SHUNDAN 5 168 TASI TO‘G‘RI, 761 TASI YANGLISH).

Talabalarda adabiy tahrir ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv qo‘llanmalar ham ishlab chiqilishi zarur. Ularni yaratishda tahrir malakasini tadrijiylik asosida, amaliy mashq va topshiriqlar bilan hosil qilish, talabaning mustaqil o‘rganishi va tahrir bo‘yicha bilimlarini kengaytirishiga yo‘naltirish maqsad qilinishi kerak.

Ko‘nikmalar ustida til birliklari iyerarxiyasi [10: 175–176] yo‘nalishida ishlagan maqsadga muvofiq: qo‘shimchalar, yordamchi so‘zlar, so‘zlar, so‘z birikmalari, iboralar va gaplar. Bu talaba bilimlarni oddiydan murakkabga tartibida o‘zlashtirishi, adabiy tahrir jarayoniga chuqurroq kirib borishini ta’minlaydi. Bizningcha, adabiy tahrir mashg‘ulotlarida imlo va punktuatsiya bilan maxsus shug‘ullanish shart emas. Chunki bu yo‘nalishlardagi bilimlar boshqa fanlarda, masalan, yozma savodxonlik fanida rivojlantirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / E.Begmatov va boshqalar tahriri ostida: 5 jildli. 3-jild – Toshkent: O‘zME, 2020. – 688 b.
2. O‘zbekiston Respublikasida tadqiqotlar va innovatsiyalarni tahlil qilish va rejalashtirish. S. Elchi. GO SPIN Ilm-fan, texnologiya va innovatsion siyosat bo‘yicha mamlakat profillari. 10-jild. – Parij: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti, 2020. – 88 b.
3. Vikipediya: Imlo va grammatika [Elektron manba]: Vikipediya. Ochiq ensiklopediya. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Vikipediya: Imlo_va_grammatika (murojaat vaqti: 01.08.2024)
4. Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
5. Ona tili [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. –224 b.
6. Ona tili [Matn]: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev va boshq. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
7. Ona tili (2-qism) [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K.Mavlonova [va boshq.] – Toshlkent: Yosh avlod matbaa, 2023. – 160 b.
8. 60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talabi. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va amalga kiritilgan / [Elektron manba]. – URL: https://www.tsuull.uz/sites/default/files/malaka_talabi_compressed_1.pdf (murojaat vaqti: 11.09.2024).
9. 60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi. Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yil 24-avgustda tasdiqlangan / [Elektron manba]. – URL: https://www.tsuull.uz/sites/default/files/oquv_reja_compressed_3.pdf (murojaat vaqti: 11.09.2024).
10. Бархударов Л. С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода) – Москва: Международные отношения, 1975. – 240 с.

Suyun KARIMOV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi professori;
Umida RASHIDOVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

O'ZBEK LUG'ATSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI TENDENSIYALARI

XXI asrda o'zbek tilshunosligi o'z rivojlanishining yangi davriga qadam qo'ydi. Bunga til siyosatining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va integratsiya jarayonlarini hisobga olgan holda yuritilayotgani, milliylik bilan birga baynalmilallik va ilmiylik prinsiplariga amal qilinayotgani sabab bo'ldi. Ana shu sa'y-harakatlar samarasi o'laroq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son farmoniga asosan Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti hamda Vazirlar Mahkamasi huzurida Atamashunoslik qo'mitasi tashkil etilgani mamlakatimiz va xalqimiz hayotida juda katta ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etdi farmonda xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin, bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy hamda qadimiy tillardan biri ekani ta'kidlanib, uning bugungi kundagi nufuzini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olindi. Jumladan, o'zbek tili lug'at fondidagi leksik birliklarning imlo va talaffuz qoidalari, chetdan kirib kelayotgan yangi atamalarni qabul qilish tamoyillari ishlab chiqildi.

Shuningdek, 2020-yil 20-oktabrda davlatimiz rahbarining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilinib, ushbu hujjat asosida "2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Konsepsiyaga ko'ra lug'atshunoslik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilib, ko'p jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning to'ldirilgan yangi nashri (kirill va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida), "O'zbek tilining imlo lug'ati", "O'zbek tili sinonimlari lug'ati", "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati", "O'zbek tili frazeologizmlarining katta izohli lug'ati", "O'zbek tili omonimlari lug'ati"ni yaratish vazifasi qo'yildi. Mazkur vazifalar ijrosi doirasida O'zFAning O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tilshunos olimlari bugun o'zbek tilini keng targ'ib qilish, ta'lim tizimi va ish yuritishda o'zbek tili imkoniyatlaridan to'la foydalanishga xizmat qiladigan lug'atlar, o'quv-amaliy tadqiqotlarni yaratish ustida ish olib borishmoqda. 2020-yilda "O'zbek tilining izohli lug'ati" 2-nashri, "Davlat tilida ish yuritish" amaliy qo'llanmasi (kirill va lotin yozuvlarida), 2021-yilda "O'zbek tili me'yorlari. Punktuatsiya", "Ijtimoiy-siyosiy terminlarning izohli-illustrativ lug'ati", "Yuridik terminlarning ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati" tuzilib, Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti tashabbusi hamda moliyaviy ko'magida chop etildi.

Ta'lim tizimida ham savodxonlik muammolarini hal etishda imlo lug'atlarining o'rni nihoyatda beqiyos. Chunki til birliklarini imlo va grammatik qoidalarga muvofiq bexato yozishda imlo lug'atlari asosiy hujjat hisoblanadi. Shu bilan birga, so'zlarning ma'nolarini ham aynan lug'atlar – qomusiy, izohli, sohaviy lug'atlar orqali bilib olish mumkin bo'ladi. Ana shu hayotiy zarurat va ta'lim ehtiyojidan kelib chiqib, institutda maktab o'quvchilari hamda talabalar uchun yangi "O'zbek tilining o'quv imlo lug'ati" nashr qilindi. Lug'atda kundalik hayotda, ta'lim jarayonida faol qo'llanadigan 25 000 dan ortiq so'z qamrab olindi, ularning yozilish tartibi belgilab berildi.

Imloviy savodxonlik borasidagi ishlarni umummilliy miqyosda yaxshilash maqsadida institut xodimlari tomonidan "O'zbek tilining katta imlo lug'ati" qayta nashrga tayyorlandi va unda o'zbek tilidagi 90 000 ga yaqin so'zning imlo qoidalariga muvofiq shakllari berildi. Ushbu imlo lug'ati 2013-yilda kirill va lotin yozuvida chop qilingan lug'atning to'ldirilgan, takomillashtirilgan varianti bo'lib, unda o'zbek tilining o'z so'zlari ham, tilimizga yangi kirib kelgan va o'rnashgan so'zlar ham qamrab olingan, o'tgan muddat davomida to'plangan tajribalardan foydalanilgan.

Darhaqiqat, davr ruhi fonetika va grammatikaga nisbatan leksikada ko'proq aks etgani, leksikografik tadqiqotlar til va tilshunoslikning rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatgani bois barcha davrlarda leksikografik manbalarga ehtiyoj katta bo'lgan. Bugungi kunda ham lug'atshunoslik bevosita lug'at, uni yaratish va bir tizimga keltirish bilan bog'liq nazariy va amaliy jihatlarni o'rganuvchi soha sifatida taraqqiy etib bormoqda. Shu ma'noda o'zbek tilining xazinasidagi so'zlar ta'rifi uning izohli lug'atlarida o'z ifodasini topgan. 1981-yili Moskvadagi "Русский язык" nashriyotida Z.Ma'rufov tahriri ostida 60 000 so'zni o'z ichiga olgan ikki jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" nashr etilgandi. Ammo davrlar o'tishi bilan bu lug'at talabga javob bermay qoldi. Chunki unda sovet davri mafkurasi aks ettiruvchi so'zlar mavjud edi. Buning ustiga, ona tilimizning mustaqillikdan keyingi davri taraqqiyotida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi inqilobiy o'zgarishlar ta'siri ham g'oyatda sezilarli bo'ldi.



Tilimiz rivoji bilan barobar iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohadagi o'zgarishlar tufayli yangi-yangi atamalarning o'zlashish jarayoni tezlashgani, ichki imkoniyatlar hisobiga yangi so'z va iboralar, atamalar bilan tobora boyib borayotgani natijasida o'z mafkuramiz va qadriyatlarimizga mos keladigan, milliylik ruhi bilan sug'orilgan yangi izohli lug'atlar yaratish zarurati paydo bo'ldi. O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan 2006–2008-yillarda 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" kirill alifbosida, 2020-yilda esa kirill va lotin yozuvida nashr etildi.

Turkiy tillar ichida o'zbek tili shevaga boyligi bilan ajralib turadi. Har bir sheva leksikasining o'zi bir xazina sifatida tilimizning tilla sandig'idan o'rin olgan. Tilimizda shevaga oid so'zlarning izohiga bag'ishlangan bir qator lug'atlar mavjud edi. 2023-yilda F.Musayeva tomonidan "O'zbek xalq so'zlari" nomli lug'at nashr etildi. Ushbu kitobda o'zbek shevalarida qo'llanib kelgan va hozirda qo'llanayotgan – xalqimiz turmushi, fikrlash tarzini yorqin ifodalaydigan, uning lisoniy idrokini aks ettiradigan so'z va iboralar jamlangan hamda izohlangan. Izohlarga badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan illustrativ misollar keltirilgan. Kirish maqolasida jamlangan birliklarning zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosidagi tadqiqi amalga oshirilgan va shevaga xos birliklar asosida nomlash tamoyillari tahlil qilingan. Mazkur leksikografik manba "O'zbek tili izohli lug'ati"da qayd etilmagan tilimiz boyliklarini to'plab izohlangani bilan qimmatli. Masalan, "O'zbek tili izohli lug'ati"da ***tirnoq*** so'zi polisemantik so'z sifatida oltita ma'noga egaligi izohlangan. "O'zbek xalq so'zlari"da esa Xorazm shevasida mazkur so'zning yana bir yangi ma'nosi borligi aniqlangan:

TIRNOQ (Xorazm). *Qadimda uylar imoratlarining poydevori. Ish qizidi. Taxminan yarim paxsa keladigan loy* ***tirnoq*** *tortildi.* (M.Qo'shjonov, "Dagish"). *"Ne gap, ne gap?!" Kelin suvdan olingan baliqday og'zini kappa-kappa ochib yumar emish, lekin bir og'iz ham gaplamas emish. Qo'li bilan devorning* ***tirnog'ini*** *ko'rsatib, "Yilon, yilon", debdi zo'rg'a.* (Sh.Matkarim, "Yilon").

Mutaxassislarning fikricha, har xil turdagi lug'atlar, ensiklopediyalar va boshqa ma'lumotnoma nashrlarini tayyorlash an'anasi bugun tezlik bilan o'sib, mustaqillikdan oldin yaratilgan lug'atlarning yangi, qayta ishlangan ko'rinishlari yuzaga kelmoqda. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ko'pgina lug'atlarda atamalar tavsifiga xos bo'lgan masalalarga jiddiy e'tibor qaratilmagan. Masalan, 1984-yilda yaratilgan "O'zbek tili omonimlarining lug'ati" (Sh.Rahmatullayev) tilimizdagi omonimlar tavsifiga bag'ishlangan yagona manba edi. Mazkur lug'at asosida "O'zbek tili shakldosh so'zlarining o'quv lug'ati" (X.Suvonova, G.Turdiyeva, 2007), "O'zbek tili omonimlarining o'quv lug'ati" (N.Abdurahmonova, 2022) kabi o'quv lug'atlari nashr qilindi. Bugun bizga yagona prinsip asosida tuzilgan va tilimizdagi shakldosh so'zlarning barchasini qamrab oluvchi omonimlar lug'ati kerak.

O'zbek tilshunosligida sinonimlar lug'atini tuzish borasidagi dastlabki qadam A.Hojiyevning 1963-yilda chop etilgan va 1974-yilda qayta nashr etilgan "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"dir. Ushbu asar sinonimlar lug'ati talablariga to'la javob bera oladigan hamda o'zbek lug'atshunosligida bu sohada ilk bor yaratilgan fundamental tadqiqot edi. Bu lug'at yaratilganiga 50 yil bo'ldi, tildagi o'zgarishlar ushbu sinonimik qatorlarni boyitish zaruratini keltirib chiqardi. Mazkur lug'atga, muallif ta'kidlaganidek, faqat leksik sinonimlar kiritilgandi. O'zbek tili sinonimlarining yangi izohli lug'atini tuzish uchun harakat 2023-yilda yakunlandi hamda N.Mahmudov boshchiligidagi bir guruh tilshunoslar tomonidan ikki jildli "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati" nashr qilindi. Mazkur lug'atda ilk marta ona tilimizning boyligi hisoblangan leksik sinonimlarning keng qamrovli leksikografik talqini amalga oshirildi. Shuningdek, lug'atga leksik sinonimlar, ularning leksikografik izohlari, sinonimik qatordagi so'zlarning ma'no nozikliklari, bu ma'noviy farqlanishlarni dalillovchi, ijobiy-salbiy bahosi hamda uslubiy o'ziga xosliklarini ko'rsatuvchi illustrativ misollar kiritilgan. Lug'atdan faqat mustaqil so'zlardan iborat sinonimik qatorlargina emas, balki yordamchi so'z turkumlari doirasidagi sinonimik qatorlar ham o'rin olgan.

2023-yilda H.Dadaboyev, M.Abjalova, U.Rashidovalar tomonidan yaratilgan "O'zbek tili sinonimlari-

ning o‘quv lug‘ati” nashrdan chiqdi. Lug‘atda hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud 2 500 ga yaqin leksik, frazeologik va grammatik sinonimlar aks ettirilgan. Bundan tashqari, o‘zbek tilidagi 2 500 ga yaqin sinonimik qatorlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, unda ma’nodosh so‘zlarning izohi, turkumi, to‘liq yoki qisman o‘xshashligi, sinonimik qatorning tarixiy shakllari, uslubiy xoslanishi kabi ma’lumotlar berilgan. Ushbu lug‘at foydalanuvchilarning so‘z boyligini oshirish, nutqiy kompetensiyani shakllantirish, lingvistik bilim va ko‘nikmalarini boyitishga yordam beradi.

Dialektal xususiyatli so‘z bilan adabiy tilga xos so‘z ham o‘zaro sinonimlik hosil qiladi. Sinonimlikni belgilashda dialektal so‘zning qay darajada adabiy tilga yaqinligi hamda adabiy tilda so‘zlashuvchilarga qay darajada ma’lumligi hisobga olinishi kerak. Shuningdek, lug‘atda dialekt yoki shevalarda mavjud so‘zlar ham adabiy tilda yangi sinonimik qatorning paydo bo‘lishi yoki mavjud sinonimik qatorning boyishiga olib kelishi inobatga olingan. Misol uchun, *ovoz, tovush, un, sado, sas, nido, sazo* sinonimik qatoridagi *sas* dialektal so‘z bo‘lsa-da, uning ma’nosi adabiy tilda so‘zlashadigan ko‘pchilikka tushunarli va u shu sababli yozma nutqda ham qo‘llanadi. Demak, dialektal lug‘aviy birliklar adabiy til sinonimiyasining boyish manbalaridan biridir. Mazkur o‘quv lug‘ati raqamli texnologiyalar rivojlangan ayni damda tarjimon dasturlarini yaratish, tabiiy tilni qayta ishlash, antiplagiat dasturi va sentiment analizni yaratish, asosiysi, o‘zbek tili ontologiyasining sinsetlarini shakllantirishda qimmatli leksikografik manba sifatida xizmat qiladi.

Bugungi axborot texnologiyalari asrida lug‘at tuzish va uni tizimlashtirish nihoyatda dolzarb masala bo‘lib bormoqda. Lug‘at tasnifi va tipologiyasini yaratish tilshunoslikda yillar davomida to‘plangan tajribalar va milliy leksikografiya doirasida tasniflanish tizimlari ishlab chiqilishi zarurligini hisobga olish kerak. Shundan kelib chiqib ta’kidlash lozimki, mustaqillik davri o‘zbek terminologiyasi o‘z qaror topish yo‘lining boshlanish nuqtasida turibdi. U o‘zbek tilshunosligining muhim sohasi sifatida yillar davomida yig‘ilgan tajribalar zaminida taraqqiy etmoqda va kengaymoqda. Istiqlol yillarida o‘zbek lug‘atshunosligida yuqorida qayd etilgan lug‘atlardan tashqari ikki tilli, chappa (ters), chastotali, tezaurs va hokazo lug‘atlar tuzish borasida ham sezilari ishlar bajarildi. Ayniqsa, ilm-fan, texika sohasiga doir terminologik lug‘atlar tuzishdagi ishlar tahsinga sazovor. Tibbiyotda qo‘llanuvchi terminlarning tarjima, izohli lug‘atlarining keng nusxada nashr yuzini ko‘rgani quvonarli hol. Tarixda qo‘llangan ijtimoiy, siyosiy, harbiy terminlar izohiga bag‘ishlangan lug‘atlar chop qilindi. Natijada bugungi kitobxon o‘tmish bilan yaqindan oshno bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Lug‘atshunoslikda tarjima lug‘atlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek leksikograflarining respublikadagi tajribali tarjimonlar bilan hamkorlikda yaratgan 5 jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”ning bosilib chiqishi (78 ming so‘z, Toshkent, 1950–1955), 50 ming so‘zli 1 jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” (Moskva, 1954) va 40 ming so‘zli 1 jildli “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” (Moskva, 1959) kabilarning nashr qilinishi o‘zbek lug‘atchiligi tarixida muhim voqea bo‘lgan. Mazkur lug‘atlar, ayniqsa, 1959-yilda nashr etilgan “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” o‘zbek tilining dastlabki, birinchi izohli lug‘atini tuzish uchun asos bo‘ldi va uning ilmiy bazasini yuzaga keltirdi.

Ushbu lug‘atlarda o‘zbek leksikografiyasining tajribalari umumlashtirilgan, hozirgi zamon o‘zbek tilining leksik-semantik tizimi va XX asrda shakllangan me’yorlari birinchi marta keng tavsif etilgan edi. Bugungi kunda ikki, uch va ko‘p tilli tarjima lug‘atlariga, jumladan, yangi avlod frazeologizmlarining ikki tilli zamonaviy lug‘atlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu ma’noda o‘quvchilar, abituriyentlar, yozuvchilar, tarjimonlar va o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun zarur bo‘lgan o‘zbek tili frazeologizmlarining ikki tilli zamonaviy lug‘ati mobil ilovasi, umum foydalanishga qulay frazemayzer dasturi va lug‘atning elektron platformasini yaratish; mamlakatimizda ta’lim sohasini yanada yuksaltirish hamda o‘zbek tili imkoniyatlarini chet tiliga tarjima qilish orqali dunyoga ko‘proq tanitish ustuvor masaladir.

Mabodo shunday lug‘at tuzilsa, bu nafaqat yurtimizda tahsil oladigan, balki xorijlik talabalarga ham o‘zbek tili naqadar boyligini keng targ‘ib qilishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, o‘zbek lug‘atshunosligini rivojlantirish, jamiyatda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, barcha yoshdagi insonlarning ta’limiy ehtiyojini qondirish, so‘z boyligimizni yanada samarali namoyish etishga qaratilgan zamonaviy lug‘at yuzaga keladi. Bunday lug‘atlarni yaratishda esa amaliy leksikografiya zamirida rivojlangan kompyuter leksikografiyasi sohasidan foydalanish ijobiy natija beradi.

So‘nggi yillarda soha taraqqiyoti natijasida elektron lug‘atlar va ularning bazalari yaratilmoqda, milliy va ta’limiy korpuslarni yaratishda mavjud bosma yoki to‘liq matnli elektron lug‘atlarning elektron ta’minoti shakllantirilmoqda, so‘zligi bo‘yicha qidiruv imkoniyati mavjud tizim va dasturiy ilovalar ham ishlab chiqilmoqdaki, bu lug‘atdan foydalanish imkonini qulay qilmoqda. Tildagi barcha lug‘atlarning elektron ko‘rinishdagi shakllarini yaratish nafaqat foydalanuvchining vaqtini tejaydi, balki til o‘rganish samaradorligini oshiradi, so‘z tarjimalarini yodlashga ko‘maklashadi.

O‘zbek tilshunoslik terminlarini to‘plab, ularning mukammal izohini yaratgan olim Azim Hojiyevdir. Olimning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” so‘nggi nashriga ham 20 yildan oshdi. Bugungi kunda tilshunoslik terminlarini tartibga solish, milliy tilshunosligimiz o‘ziga xos tabiatini aniqlash borasida olib borilayotgan tadqiqotlar yetarli emas. Shu tufayli o‘rta maktab, litsey va kollejlar uchun yaratilgan darsliklarda bir lingvistik tushuncha turli terminlar bilan nomlanmoqda.

Andijon davlat universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan IL–402104213 raqamli "O'zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at ishlab chiqish" mavzusidagi innovatsion loyiha natijasida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at yaratildi. Mazkur ensiklopedik lug'atda o'zbek tilshunosligida munozara bo'lib kelayotgan lingvistik atamalar tavsifi zamonaviy qarashlar asosida ko'rib chiqildi: o'zbek tili tabiatini hisobga olgan holda tavsiflandi, uyadosh atamalar assotsiativ tizimi tiklandi. Jahon kompyuter lug'atshunosligida mavjud elektron lug'atlar asosan Yevropa tilshunosligi natijalariga asoslangan bo'lsa, ushbu lug'at til birliklari tavsifida o'zbek tili tabiatini aks ettiradi. "O'zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at"ning yaratilishi o'zbek tilshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlarning o'zaro bog'lanishiga yordam berib, atamalar borasidagi xilma-xillikka barham beradi. Endilikdagi vazifamiz esa o'zbek-ingliz-rus tili lingvistik terminlarining elektron lug'ati va uning platformasini yaratishdir.

Hozirgi kunga qadar o'zbek leksikografiyasida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida Y.Hamrayeva tomonidan yaratilgan "O'zbek tilining o'zlashma so'zlari o'quv izohli lug'ati" mavjud. Ushbu lug'at, asosan, maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, 3000 dan ortiq so'zni o'z ichiga oladi. Unda faqat oxirgi bo'g'inga tushmaydigan hollardagina urg'uning o'rni ko'rsatilgan va so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llanadigan ma'nolari qayd etilgan. Faqat shakldosh so'zlar yoki ko'p ma'noli so'zning alohida ma'nolari turli turkumlarga mansub bo'lgan hollardagina izohlanayotgan so'zning kelib chiqishiga oid ma'lumotlardan keyin uning qaysi turkumga mansubligi ko'rsatilgan.

2021-yil M.Qurbonova, M.Abjalova, N.Ahmedova, R.To'laboyevalarning 11 000 ta o'zlashma so'zdan iborat "O'zbek tili o'zlashma so'zlarining urg'uli lug'ati" nashr etildi. Lug'atdan kundalik turmushda leksik qatlamning asosiy qismiga aylangan so'zlar va turli sohalarga oid tushunchalarni ifodalovchi terminlar hamda eskirgan (*vaxmistr, shtabs-kapitan, komsomol, rayon*), hatto ayrim adabiyotlardagina qo'llangan o'zlashmalar o'rin olgan. Shuningdek, lug'at boshqa tillardan ilm-fan, ta'lim, badiiy adabiyot, texnologiya orqali va iqtisodiy taraqqiyot natijasida kirib kelgan hamda yaqin yillarda raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy tarmoq va kompyuter texnologiyalari sohasida ommalashgan (masalan, *brifing, broker, vaucher, vebinar, sammit, supermarket, xolding, xesh-teg, pitsa, gamburger, frilanser, chip, chellenj*) leksik birliklarni ham o'z ichiga oladi. Ular orasida: umumiste'moldagi ilmiy terminologiya, ijtimoiy va siyosiy leksika, iqtisodiyot sohasidagi terminlar, nisbatan keng tarqalgan texnik atamalar, san'at sohasidagi so'zlar, diniy atamalar, tarixiy va mifologik terminlar, turli xalqlarning hayoti va urf-odatlari bilan bog'liq so'zlar, turli mamlakatlarning pul birliklari nomlari, Mendeleyev davriy jadvalidagi metall va elementlar nomi, harbiy atamalar, sport atamalari va boshqa sohalarga oid so'zlar mavjud. Shuningdek, lug'atga urg'uning o'rnini ko'rsatish maqsadida o'zbek tilida horijiy tillar elementlaridan hosil bo'lgan so'zlar ham kiritildi (masalan, *fonetik, leksik, astronomik, morfologik*).

"O'zbek tili o'zlashma so'zlarining urg'uli lug'ati" xorijliklarga o'zbek tilini o'qitish; ta'lim tizimida o'zlashma so'zlar tavsifini o'rganish; badiiy asarlarni yozish jarayonida tarixiy, adabiy va hatto istorizm hamda arxaizmlarga aylangan o'zlashmalardan o'rinli foydalanish; ilmiy tadqiqotlarda o'zlashmalar etimologiyasini aniqlashda ularning manba tilini topish; suxandon, notiq va jurnalistlar nutqida o'zlashma so'zlarning to'g'ri talaffuzi ko'nikmasini shakllantirish; ta'lim jarayonida o'quvchilar nutqida o'zlashma so'zlarning to'g'ri talaffuz qilinishiga erishishda muhim qo'llanma vazifasini bajaradi. Bu esa turli milliy leksikografik an'analar doirasida yaratilgan koordinatalar tizimlarini batafsil ishlab chiqish va bu lug'atlar mazmunini izchil tahlil qilish, tizimlashtirishning mavjud muammolarini hal qila oladigan prinsipial yangi universal leksikografik tizimni barpo etish uchun asos bo'ladi. Shuningdek, o'zbek-lotin alifbosini takomillashtirish bo'yicha ishlar nihoyasiga yetkazilishi kerak. Shunda yangidan yangi ta'limiy ehtiyojni qondiradigan, sifatli lug'atlarning yaratilish jarayoni yanada tezlashadi.

Mavjud "O'zbek tilining morfem lug'ati", "O'zbek tilining chappa lug'ati", "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati", "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati", "O'zbek tilining orfoepik lug'ati", "O'zbek tili paronimlari lug'ati" kabi lug'atlarga ehtiyoj katta. Shu sababli bunday lug'atlarning yangi, mukammal versiyalarini yaratish zarur. Shuningdek, o'zbek tilidagi so'zlarning darajalanish lug'ati, o'zbek tilida butun-qism munosabati (partonimik) so'zlar lug'ati, tasviriy ifodalar lug'ati, ideografik lug'at kabi o'quv lug'atlarining yangi turlariga talab ortib bormoqda.

"Alpomish dostoni tilining izohli lug'ati" mavjud. Ammo o'zbek xalq dostonlarining har birida qo'llangan so'zlarning izohli lug'atlari yaratilsa, xalq og'zaki ijodiga xos bu noyob durdonalarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish jarayonini yengillatib, milliy o'zligimizga xos so'zlarning ular xotirasidan mustahkam o'rin olishiga yordam beradi.

"O'zbek tilidagi tasviriy ifodalar lug'ati" va "O'zbek tilidagi frazeologizmlarning o'quv lug'ati" yaratilishi esa nutqimiz ko'rki sanalmish barqaror birikmalarni izohlash tamoyillarini aniqlashga kengroq imkoniyat beradi. Umuman olganda, tilshunosligimizning barcha sathlar va yo'nalishlarini aks ettiruvchi ensiklopedik lug'atlarga ham ehtiyoj bor.

Yuqorida mustaqillikdan keyin chop etilgan, tilimizning turli sohalariga oid yaratilgan lug'atlar haqida so'z yuritdik. Ularning yaratilishi til sohasidagi bo'shliqlarni to'ldiradi, an'anaviy amaliy lug'atshunoslikning lingvistik va lingvodidaktik korpuslar bilan yangi imkoniyatlarga ega raqobatbardosh soha sifatida taraqqiy etishiga zamin hozirlaydi.

BULDURUQMI YOKI BULDURIQ? – BIR SO‘Z IMLOSI IZIDAN

yoxud adabiy tilda ortogrammalarning mutlaqlashuvi







“Til va adabiyot ta’limi” jurnali o‘zbek lug‘atshunosligi muammolariga bag‘ishlangan maqolalarni berishda davom etadi. Nashrimizning o‘tgan sonlarida birmuncha umumiy masalalar tahlili bilan tanishgan bo‘lsangiz, endilikda mualliflarimiz so‘z darajasigacha tushib, imlo lug‘atlarini solishtiradi, har xilliklarni aniqlaydi va yechim berishga intiladi. Xuddi shunday maqolalarni maktablarda saboq berayotgan yuz minglab o‘qituvchilardan ham kutib qolamiz.

Munira NABIYEVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Har qanday milliy til ilmiy me’yorlarining ommalashuvi va ortologik tizimining barqarorlashuvida imlo lug‘atlarining o‘rni beqiyos. Adabiy til imlo qoidalarining izdan chiqishi, tilda imlosi muammoli so‘zlarning vujudga kelishi ko‘p hollarda o‘zlashma so‘zlar, qo‘shma so‘zlar, juft, takroriy so‘zlar imlosi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ziyoli qatlam tomonidan muntazam bahs va munozaralarga mavzu bo‘lgan. Albatta, adabiy tilning rivojlanishi, me’yorlarning qat’iylashuvida ushbu munozaralar muhim ahamiyat kasb etadi. So‘ngi yillarda bu sohada qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, hali-hanuz imlo lug‘atlarimizda talay muammolar ko‘zga tashlanadi. Bugun biz qaysi imlo lug‘atini asosiy manba sifatida qabul qilamiz?

B.Bahriddinova, Sh.Nabiyevaning “Til va adabiyot ta’limi” jurnalida chop etilgan “Lug‘at qonunchiligi tushunchasi va o‘zbek me’yoriy lug‘atchiligi muammolari” deb nomlangan maqolasida keltirilgan “Afsus bilan aytish kerakki, so‘nggi yillarda biz mutaxassislarga berilayotgan eng og‘riqli, eng ko‘ngilni g‘ash qiladigan savollardan biri – “Qaysi imlo lug‘ati to‘g‘ri?” Qiziq, bu qanday savol bo‘ldi? Nahotki imlo lug‘ati bo‘ladi-yu, uning to‘g‘ri-noto‘g‘risi bo‘lsa!” [1: 10] degan mulohazalari ushbu maqolani yozishga turtki bo‘ldi.

Bugun kitobxon qo‘lida imlo lug‘atlarining bir qancha nashrlari bor. Lug‘atlarning ko‘p bo‘lishi yaxshi, albatta, lekin ularda har xilliklar ko‘zga tashlansa, foydalanuvchilar uchun talay muammolarni keltirib chiqaradi. Hozirgi kunda keng iste’molda bo‘lgan imlo lug‘atlarimizning kirish qismida “Lug‘at O‘zR Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi qarori bilan qabul qilingan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ga asoslangan holda yaratildi” [2: 4] izohini uchratamiz. Ammo imlo qoidalarimiz va imlo lug‘atlarimizning o‘zidayoq ba’zi muammoli so‘zlarga duch kelamiz.

“O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ning “Asos va qo‘shimchalar imlosi” bandida quyidagi qo‘shimcha eslatma bor: “undosh bilan tugab, tarkibida *u* unlisi bor fe’lga *-uq* qo‘shiladi: *uz – uzuq, yut – yutuq* kabi. Lekin *uvushiq, burushiq, uchuriq* (shuningdek, *bulduriq)* kabi so‘zlarning uchinchi bo‘g‘inida ***i*** aytiladi va shunday yoziladi” [2: 12]. Xuddi shu imlo lug‘atining o‘zidayoq bu fikr inkor etilgan holda *bulduriq* so‘zi *bulduruq* tarzida beriladi. Ayni bir imlo kitobimiz o‘z-o‘zini inkor etishi kitobxon uchun achinarli hol emasmi?

2013-yilda professor N.Mahmudov tahriri ostida E.Begmatov va A.Madvaliyev muallifligida nashr etilgan imlo lug‘ati asosida nashrga tayyorlangan, 2023-yil

professor N.Mahmudov tahriri ostida A.Madvaliyev va Y.Odilov muallifligida nashr etilgan "O'zbek tilining katta imlo lug'ati"da esa *bulduriq* so'zi *buldur-buldur (taql.), bulduriq, bulduriqdoshlar, buldiriqlar (zool.), bulduriqgullilar, bulduriqo't* tarzida berilgan [3: 106]. Bu ikki imlo lug'ati nashrlari orasida o'n yil farq bor. Birinchi nashrda *bulduruq* shaklida keltirilgan so'z ikkinchi nashrda xatoliklar bartaraf etilib, imlo qoidalariga rioya etgan holda *bulduriq* shaklida berilganmi?

2023-yil professor N.Mahmudov tahriri ostida "Kafolat print company" nashriyoti chiqargan, 27 000 dan ortiq so'zni jamlagan "O'zbek tilining o'quv imlo lug'ati"da ham bu so'z *bulduriq* shaklida berilgan [4: 80]. Ammo A.Eshonqulova, L.Qo'ziboyeva muallifligida 2020-yil "Ilm-ziyo-zakovat" nashriyoti tomonidan chop ettirilgan, 19 000 dan ortiq so'zni jamlagan "O'zbek tilining imlo lug'ati"da esa *bulduruq* shaklida berilgan [5: 53].

Til me'yori o'zgaruvchan va rivojlanuvchi hodisa. Tilning ijtimoiyligi natijasida yangidan yangi muammolar vujudga kelishi mumkin. Bu esa tilshunoslar oldiga doim muhim vazifalarni yuklaydi. Adabiy til me'yorlarini belgilashda biz tayanadigan narsa nima? Til me'yorlarini belgilashda umumxalq tomonidan qabul qilingan va mustahkamlangan qonun-qoidalar hamda turli lug'atlar, shu til egalari tomonidan munosib ko'rilgan asarlarga ham tayaniladi. Demak, til me'yorlari ma'lum davrda til sohiblari amalda qo'llagan shu til imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Imlo lug'atlarimizda so'zlarning berilishi ham shu asoslarga tayangan holda keltiriladi.

Xo'sh, endi imlo qoidalarimizda *bulduriq* shaklida berilgan so'z aslida *bulduruq*mi yoki *bulduriq*?

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyotida 2006-yilda chop etilgan 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da [6: 370] ham bu so'z omonim so'z sifatida *bulduruq* shaklida berilgan. Ba'zi shevalarda *buvulduruq* shaklida ham ishlatiladi.

2023-yil nashrdan chiqqan, 80 mingdan ortiq so'z va so'z birikmasini jamlagan 6-jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning [7: 625]. A.Madvaliyev, D.Xudayberganova tahriri ostida nashr etilgan 1-jildida bu so'z quyidagicha berilgan:

BULDURUQ I **1** Ayozli, sovuq kunlari yoki tuman paytlarida nam havo zarralarining muzlashi natijasida hosil bo'ladigan mayda qattiq qor; qirov. *Bir bulduruq uch qorga tatiydi.* Maqol. *Tushdan keyin osmon yuzini sarg'ish tuman qoplab, mayda bulduruq yog'a boshladi.* (Mirmuhsin, "Chiniqish"). *Ko'prik ustidagi qayrag'och novdalarini bulduruq o'rab, tanasigacha oppoq qilib qo'ygan.* (Said Ahmad, "Ufq"). *Ertalabki tuman tarqalib, daraxt shoxlariga yopishgan bulduruq zarralari gavharday yaltiray boshladi.* (Asqad Muxtor, "Chinor").

Bulduruq bog'lamoq Bulduruq zarralari bilan qoplanmoq. *Yo'lakda bulduruq bog'lagan oppoq akatsiya tagida kelishgangina bir qiz bilan Akbarali turardi.* (Asqad Muxtor, "Chinor"). *...qamishlar bulduruq bog'lab, oppoq bo'lib qolgan ekan.* (Shukur Xolmirzayev, "So'nmas o't").

2 *ko'chma* Sochning oqi; oqargan soch. *Bir vaqt yuragimni sevgiga maskan etgan qora sochga qo'nmish bulduruq.* (Saida Zunnunova).

BULDURUQ II *zool.* Kaptarsimonlar oilasining bulduruqlar turkumiga mansub bo'lgan cho'l qushi; qorabovur. *Azimxon... yovshan tog'laridan uchgan bulduruqlarni ko'zi bilan uzoqlarga qadar kuzatib qolar edi.* (Asqad Muxtor, "Chinor"). *Yurtga kuz kelganin asta bildirib, Daraxtlar shoxidan uchar bulduruq. (*X.Saloh, "Izlar va hislar").

BULDURUQ III Baliq tuxumi, urug'i; uvuldiriq, ikra. *Dasturxon ko'ngil tusagan narsalarga to'la. ...qora, qizil bulduruqlar, qovurilgan bedana-yu rang-barang uzum, olma... karjlangan qovun-tarvuzlar ko'zni o'ynatadi. (*"Yoshlik*"). ...bu qaldirg'ochlar o'zining nasibasini dengiz qirg'oqqa uloqtirgan baliqlarning lahm go'shti va buldurug'idan ko'radi.* (K.Mahmudov, "Qiziqarli pazandalik").

BULDURUQO'T *bot.* Alismadoshlar oilasiga yoki bulduruqdoshlarga mansub, botqoqlik hamda suvda o'suvchi ko'p yillik o't.

Lug'atda berilgan bu so'zning amalda qo'llanishi o'zbek adabiyoti va matbuotidan olingan misollar bilan dalillangan. Bu asarlar o'zbek adabiy tili shakllanishi uchun xizmat qilgan manbalar qatorida turadi. Izohli lug'at esa biz eng ko'p murojaat etadigan lug'atlar sirasiga kiradi.

Izohli lug'atning kirish qismida lug'atdagi so'zlarning berilishi haqida quyidagi jumla bor: "Lug'atning me'yoriyligi shundan iboratki, unda adabiy tilning imlo, talaffuz, so'z yasash va uni ishlatish me'yorlari tavsiya etiladi. Buning uchun so'zlar lug'atga, o'zlarining umummilliy adabiy tilga munosabati, unda tutgan o'rni va qo'llanish doirasiga ko'ra tanlab kiritilgan. Lug'atda har bir so'zning maqbul yozilish shakli, (o'zlashma so'zlarning) kelib chiqishi – etimologiyasi, zarur hollarda talaffuzi ko'rsatilgan, ma'nosi (yoki ma'nolari) aniqlangan va izohlangan, so'zlarning aniqlangan ma'nolari va shu ma'nolarda to'g'ri qo'llanishi o'zbek badiiy va ilmiy adabiyotidan, matbuotdan olingan misollar – iqtiboslar bilan dalillangan" [7: 9]. Bundan ko'rinadiki, izohli lug'atda so'zning *bulduruq* shaklida berilishida so'zning imlo, talaffuz, etimologiyasi va ilmiy, badiiy adabiyotdagi shakllari hisobga olingan.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ham bu omonim so'zlar *bulduruq* shaklida berilgani e'tiborni tortadi.

BULDURUQ – atmosfera yog'inlarining bir xili. Ayozli sovuq kunlarda yoki tuman paytlarida nam havo zarralarining muzlashi natijasida hosil bo'ladi. B. yumshoq muz kristali yoki donachalari shaklida yog'adi. Izg'irin paytlarida daraxt shoxlari va simlarda ham paydo bo'ladi.

BULDURUQLAR (Bteroclitidae) – kaptarsimonlar turkumi oilasi. B. asl B. va suv bulduruqlari urug'lariga bo'linadi. Asl B.ning 14 turi, suv bulduruqlarining esa oq bovur (*Pterocles alchata*) va qora bovur (*Pterocles orientalis*) degan 2 turi bor.

BULDURUQO'T (Alisma plantago-aquatica L.) – alismadoshlar yoki bulduruqdoshlarga mansub ko'p yillik begona o't. Poyasi 40–150 cm, bargsiz, tik o'sadi [8: 243].

Tabiiyki, O'zbekiston milliy ensiklopediyasining tuzilishida ham keng miqyosdagi olimlar guruhi ishtirok etgan. Lug'atda beriladigan so'zliklar ma'lum bir adabiy manbalarga tayangan.

Zoologik termin sifatida berilgan *bulduruqlar* yo'qolib borayotgan parrandalar safidan joy olgan. O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan qushlar ro'yxatida Bulduruqlar oilasi – Семейство Рябковые – Family Pterocledidae 172-raqamda berilgan [9: 388].

Til egalari tez-tez murojaat etadigan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadigan maqolalarda, xalq jonli tili talaffuzida ham bu so'zni quyidagicha uchratamiz:

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining bildirishicha, bu hodisada tuni bilan hamma yoqda qor yog'ib chiqqanday ko'rinadi. Aslida, tabiatning bu hodisasi bulduruq deyiladi [10].

Bulduruq nima? Uning qishloq xo'jaligida qanday ahamiyati bor? Bulduruq yangi atama emas. Xalqimizda oldindan "Bir bulduruq uch qorga tatiydi", degan naql yuradi [11].

Bulduruq – ayozli, sovuq kunlarda yoki tuman paytlarida nam havo zarralarining muzlashi natijasida hosil bo'ladigan mayda qattiq qor; qirov [12].

Tilda ma'lum bir ortologik me'yorlarning yuzaga kelishi, uning vazifasi ham nutq uchun xizmat qiladi. Til me'yorlarining o'zi ham nutqiy unsurlar, shu tilga so'zlashuvchi til sohiblari ishlatadigan uzuslardan kelib chiqadi. Adabiy til me'yorlari milliy til xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanishini hisobga olsak, imlo qoidalarimizda *bulduriq* yozilishi norma deb topilgan so'z. Shu tilda nashr etilgan barcha lug'atlarda, jumladan, elektron lug'atlar, darslik kitoblar, ommaviy axborot vositalari, hatto me'yor uchun asos qilib olingan imlo lug'atlarimizning bir nechtasida ham *bulduruq* shaklida berilganini qanday baholaymiz?

Me'yorning amaliyotga asoslanishini inobatga olsak, *bulduruq* so'zi uzus vazifasini bajargan. Bizningcha, bu so'zni *bulduruq* shaklida yozishimiz to'g'ri.

Jamiyat rivojlanar ekan, uning tili, adabiy til me'yorlari, qonun-qoidalari, leksikografiyasi shu amaliyot bilan bog'liq holda rivojlanishda davom etadi. Shu o'rinda tilshunos olim E.Begmatov va A.Mamatovning asosli bir fikrini eslatib o'tmoqchimiz: "Til tizimidagi, nutqiy amaliyotdagi har qanday o'zgarish, ba'zi vosita va qoidalarning eskirishi, iste'moldan chiqishi, tildagi birdan ortiq imkoniyatlardan birining tanlanishi va shunga o'xshash ko'pgina hodisalar ma'lum obyektiv zarurat, nutqiy talab tufayli yuz beradi. Shu sababli adabiy til normalari hayotiga ongli aralashganda, uni normalashga kirishganda, normativlarni baholaganda mana shu zaruriylik qoidasi, tamoyiliga amal qilish nihoyatda muhimdir" [13: 73]. **Bugun biz foydalanadigan joriy imlo qoidalarimiz, imlo lug'atlarimizda bir talay muammoli so'zlarning mavjudligiga ayni shu nutqiy amaliyotdan uzilib qolganimiz sabab emasmi?** Adabiy me'yor, ortologik me'yorlarning shakllanishida uzusdan uzilib qolish, amaliyotdan chetlashish imlo qoidalari va imlo lug'atlari o'rtasida nomuvofiqlikni yuzaga keltirmoqda.

2013-yilda professor N.Mahmudov tahriri ostida E.A.Begmatov va A.P.Madvaliyev muallifligida nashr etilgan imlo lug'atining so'zboshisida lug'atning boshqa imlo lug'atlaridan farqli xususiyatlari qatorida quyidagi bandlar sanalgan: "d) nashr etilgan va etilayotgan boshqa tip lug'atlar (izohli, ensiklopedik, terminologik va b.)ning ijobiy imloviy tajribalarini hisobga olganligi; e) keyingi o'ttiz yil davomida o'zbek tili imlosi amaliyotida yuz bergan, ko'pchilik tomonidan ma'qul deb topilayotgan ijobiy imloviy o'zgarishlarga e'tibor berganligi" [2: 3].

Oradan 10 yil muddat o'tib, 2023-yilda yuqoridagi nashr asosida ishlab chiqilgan "O'zbek tilining katta imlo lug'ati", "O'zbek tilining o'quv imlo lug'ati"da ham aynan shu jumlalar takrorlangan. Ammo buni amaliyotda biror isboti ko'zga tashlanmaydi. Chunki imlo qoidalarimizda *bulduriq* sifatida berilgan so'z izohli, ensiklopedik, terminologik lug'atlarda *bulduruq* shaklida kelgani, amaliyotda ham ko'pchilik tomonidan shu holida qabul qilingani qoidalarning faqat qog'ozda qolayotganini ko'rsatadi. Buni yuqorida bir so'z misolida ko'rib chiqdik. O'zbek tilida imlo amaliyotidan uzoqlashgan so'zlar talaygina. Keyingi ishlarimizda ularga yechim topishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahriddinova B., Nabiyeva Sh. Lug'at qonunchiligi tushunchasi va o'zbek me'yoriy lug'atchiligi muammolari // Til va adabiyot talimi, 2024-yil, 8-son. – B. 10–13.
2. Begmatov E., Madvaliyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati (85 000 so'z) / Professor N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 528 b.
3. Madvaliyev A., Odilov Y. O'zbek tilining katta imlo lug'ati – Toshkent: Kafolat print company, 2023. – 648 b.
4. Madvaliyev A., Odilov Y., Saidno'monov A. O'zbek tilining o'quv imlo lug'ati. – Toshkent: Kafolat print company, 2023. – 412 b.
5. Eshonqulova A., Qo'ziboyeva L. O'zbek tilining imlo lug'ati. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2020.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 370 b.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 628 b.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 686 b.

9. Красная книга Республики Узбекистан. Том 2. – Ташкент, 2009. – 396 b.
10. https://daryo.uz/2021/01/05/foto-bulduruqistonga-aylangan-o'zbekiston
11. https://zarnews.uz/uz/post/bulduruq-nima-uning-qishloq-xo'jaligida-qanday-ahamiyati-bor
12. https://t.me/s/oriftolib/2592
13. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 3-qism. – Toshkent, 1999. – 139 b.

Ne'matillo MAXAMMADJONOV,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

BADIIY MATNDA "DIN" KONSEPTINING LISONIY VOQELANISHI
(Ulug'bek Hamdam asarlari misolida)

Annotatsiya. *Bugungi kunda tilshunoslikdagi ilmiy tadqiqotlar antroposentrik metod asosida olib borilyapti. Buning natijasida ko'plab zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari vujudga kelmoqda. Kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchasi sanalgan konsept muammosi zamonaviy tadqiqotlarning asosiy obyekti bo'lib qolmoqda. Turli madaniy muhitlarga oid konseptlar tahlili esa tadqiqotchilarga ishonchli natijalar taqdim etadi. Ushbu maqolada "din" konseptining badiiy matnda lisoniy voqelanishi tadqiq qilingan.*

Kalit so'zlar: *konsept, germenevtika, fenomenologiya, reprezentant birlik, obyektivlashtirish.*

Annotation. *Today, scientific research in linguistics is conducted on the basis of the anthropocentric method. As a result, many directions of modern linguistics are emerging. The concept problem, which is the central concept of cognitive linguistics, remains the main object of modern research. And the analysis of concepts related to different cultural environments provides researchers with reliable results. This article investigates the linguistic realization of the concept of "religion" in the literary text.*

Keywords: *concept, hermeneutics, phenomenology, representative unity, objectification.*

Аннотация. *Сегодня научные исследования по лингвистике проводятся на основе антропоцентрического метода. В результате возникают многие направления современного языкознания. Проблема концепта, являющаяся центральным понятием когнитивной лингвистики, остается основным объектом современных исследований. А анализ концептов, относящихся к разным культурным средам, дает исследователям достоверные результаты. В данной статье исследуется языковая реализация понятия "религия" в художественном тексте.*

Ключевые слова: *концепт, герменевтика, феноменология, репрезентативное единство, объективация.*

Hozirgi davr tilshunosligining rivojini antropologik tadqiqotlar ko'lami bilan izohlash mumkin. So'zning ma'no strukturasida leksik ma'nodan tashqari boshqa ma'nolar talqini so'zning *inson – olam – til* qurilmasidagi o'ziga xos tadqiqini ochib beradi. Natijada so'zning pragmatik, lingvomadaniy, lingvoma'naviy, lingvosemiotik qirralari oydinlashadi. Chunki so'zning belgilik xususiyati nafaqat tilshunoslik fanida, balki boshqa fanlar doirasida ham yuzaga chiqadi va lingvistik semiotika, fizik semiotika, biologik semiotika kabi yo'nalishlarning maydonga kelishiga turtki bo'ladi.

Tilshunoslikning rivojlanish bosqichlariga nazar tashlansa, turli xil "inqilob"larni kuzatishimiz mumkin. Bu tilshunoslikda yetakchilik qilgan nazariyalarning ta'siri hisoblanadi. XX asrning 70-yillarida "semantikaga hujum" boshlandi. Natijada semasiologik tahlil bilan bog'liq nazariy qarashlar yuzaga keldi. Sistem tadqiqotlar kuchaydi. Tilshunoslik fani nazariy bilish bosqichiga ko'tarildi. Boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi haqidagi yangicha qarashlar paydo bo'ldi.

Ma'lumki, hech qaysi fan o'z qobig'iga o'ralgan holda rivojlana olmaydi. Tilshunoslik fani ham boshqa fanlar bilan munosabatdorlikda taraqqiy etadi. O'zaro aloqadorlikda yangi-yangi yo'nalishlar vujudga keladi. Bu yo'nalishlarning paydo bo'lishiga turli omillar ta'sir ko'rsatdi. Tildagi yangi yo'nalishlar yondashuv va metod ta'sirida yuzaga chiqdi. Xilma-xil yondashuv va xilma-xil metodlar paydo bo'ldi, lekin bu metodlar, yondashuvlar tilning tub mohiyatini ochib bera olgani yo'q. Tilning u yoki bu sohasini aniqlashtirishga xizmat qildi xolos. Hech bir nazariya, yondashuv yoki metodlar tilning umumiy qirralarini qamrab olmadi. Shunday bo'lsa-da, hozirgi kunda tilshunoslik metanazariy bosqichga ko'tarildi. Natijada til yangi bosqichda antroposentrik nazariya asosida talqin qilina va unda markaziy figura sifatida inson tushunila boshlandi.

Bugungi zamonaviy tilshunoslikning lingvopragmatika, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo'nalishlarida matn yaratilishi va idrokida shaxs omili masalasi tadqiqot obyektining markazini tashkil etadi.

Kognitiv tilshunoslik – lingvistikaning nisbatan yangi yo'nalishlaridan biri. Ushbu yo'nalishga amerikalik mashhur tilshunoslar Jorj Lakoff va Ronald Lengekker asos solgan. 1980-yillarda

> TILSHUNOSLIK SOHASIDA OLIB BORILGAN ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLAR SHUNI KO'RSATDIKI, BUGUNGI KUNDA INSONLAR TILDAN FOYDALANAR EKAN, ULARNING ATROFIDAGI MADANIY MUHIT, SHAXSNING AVVALGI EGALLAGAN BILIMLARI BEVOSITA KONSEPTNING MAZMUNIY MUNDARIJASIDAN O'RIN EGALLAYDI.

J.Lakoff hamda R.Lengekkerning ishlari jahonning ko'plab tilshunoslari uchun qo'llanma vazifasini bajardi. Margaret Vinters o'zining "Kognitiv tilshunoslik tarixi" nomli kitobida ushbu nazariyaning kelib chiqishida amerikalik tilshunoslarning xizmati katta ekanligini qayd etib o'tadi [1]. J.Lakoff, R.Lengekker, Ch.Fillmor, V.Cheyf, L.Talmi kognitiv tilshunoslikning darg'alari hisoblanadi [2]. J.Lakoff 1987-yilda kognitiv tilshunoslik atamasini o'zining eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Women, fire and dangerous things" kitobida yozdi [3]. Kognitiv tilshunoslik sohasi paydo bo'lganidan so'ng ko'plab taniqli lingvistlar tomonidan tanqid qilindi. Biroq 1980-yillarning oxiriga kelib bu yo'nalish tadqiqotchilarning e'tiborini tortdi va o'sdi. 1990-yildan "Kognitiv tilshunoslik" jurnali nashr qilina boshladi. De Gryuter Mouton uning birinchi muharriri bo'ldi. Jurnal quyidagi mavzular bo'yicha yuqori sifatli tadqiqotlarga bag'ishlangan:

1. Tabiiy tillarni tasniflashning tizimli xususiyatlari (prototipiklik, kognitiv modellar, metafora va tasvirlar kabi).

2. Sintaksis va semantika o'rtasidagi konseptual interfeys.

3. Til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlar.

1989-yilda kognitiv tilshunoslik bo'yicha birinchi konferensiya Germaniyaning Duisburg shahrida Rene Dirvan tomonidan tashkil etildi. Ushbu anjumanda kognitiv tilshunoslik sohasi bo'yicha izlanish olib boradigan tadqiqotchilarni bir joyga to'plash va ikki yillik konferensiyalarni o'tkazish uchun yangi xalqaro tashkilot – Xalqaro Kognitiv Tilshunoslar Assotsiatsiyasini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi [5].

Ushbu tadqiqot ishida kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchasi bo'lgan konsept (din konsepti) ning badiiy asar doirasi (Ulug'bek Hamdam asarlari misolida)da voqelanishi tahlil qilindi. Buning uchun umumfalsafiy va lingvistik metodlar: germenevtik, fenomenologik, semantik usullardan foydalanildi.

Tilshunoslik sohasida olib borilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda insonlar tildan foydalanar ekan, ularning atrofidagi madaniy muhit, shaxsning avvalgi egallagan bilimlari bevosita konseptning mazmuniy mundarijasidan o'rin egallaydi. Rus tadqiqotchilari A.P.Babushkin va I.A.Sternin "Kognitiv tilshunoslik va semasiologiya" asarida kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi tahlil qilinayotgan konseptning ifodalovchilarini maksimal darajada to'liq aniqlashdan iborat ekanligini ta'kidlaydi [6]. Biz ushbu tadqiqot ishimizda din konseptining turli madaniy muhitlarda lisoniy voqelanishini tahlil qilamiz. Konseptning reprezentant (ifodalovchi) birliklarini ajratamiz.

Ma'lumki, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining aksariyati, jumladan, bizning hududda ham insonlar Islom diniga e'tiqod qiladi. Shuning uchun ushbu konseptning asosiy reprezentantlari arab tilidan o'zlashgan so'z va tushunchalar hisoblanadi. "Muvozanat" romanida din konseptini ifodalash uchun 70 dan ortiq reprezentant ishtirok etganini ko'rishimiz mumkin: ***fotiha tilamoq, Xudo, qiyomat, namoz, halol, harom, hidoyat, oxirat, sinov, dunyo, shukr qilish, nafs, payg'ambar, Islom, istig'for, taqvo, miskin, zohid, musulmonchilik, devona, qalandar, hadis, yo'l, botil, Jahannam, Jannat, haj, ro'za, zakot, Olloh, farz, Qur'on, hisob-kitob, musulmon, savob, gunoh, ajr, do'zax, ibodat, da'vat, e'tiqod, oyat, Bismillah, joynamoz, duo, qiroat, tahorat, iymon, suralar, qudsiyat, ummat, "dinda o'rta yo'lni tanlamoq", "Tarixi Muhammadiya", avliyo, Muhammad (s.a.v), anbiyo, mujtahid, chilla, shayton, tasavvuf, vahdat, rahnamo, egam, Rumiy, ilohiyot, iblis***.

"– O'g'lim, ***Xudo*** *mendan so'rab ish qilmaydi. U o'ziga xon, o'ziga bek. U o'z ishini yaxshi biladi. Dunyoni ham bir maromda yurgizib qo'ygan. Maromni esa buzib bo'lmaydi.*

– Buzsa, nima bo'ladi? – Otasiga qayrilib qaradi bola.

Ota chuqur xo'rsinib oldi va asta dedi:

– U buzilsa yer yuzida ***qiyomat*** *qo'padi, bolam …"* [8: 10].

Yuqoridagi qisqa dialog orqali din konseptining dastlabki reprezentantlari qo'llanilganini ko'rish mumkin. Badiiy matnning konseptual tahlilida muayyan konseptning reprezentantlari tartib bilan tahlilga tortiladi. Parchada ***Xudo*** va ***qiyomat*** so'zlarining keltirilishi o'quvchi tasavvurida din konseptini shakllantirishga xizmat qiladi. Ongimizda din nomli konseptosfera borki, unga barcha reprezentantlar "paket" holida joylashadi.

"Traktor odam to'la aravasini sudrab qo'zg'alganida, kattalar esonlik tilab, yuzlariga ***fotiha tortisharkan,*** *Yusufning eti jimirlab ketdi…"* [8: 47]. Ma'lumki, duo (fotiha) qilish islom dinining amallaridan biri. Parchada qo'llangan ***fotiha tortmoq*** so'z birikmasi ham din konseptining navbatdagi reprezentanti ekanini ko'rishimiz mumkin.

"Kelib otangni ham ***namoz*** *o'qimayapsiz, deb tergab ketadi. Otang" "Odam to'g'ri yursa,* ***harom*** *yemasa,* ***halol*** *bilan oilasini boqsa, bas-da", desayam bo'lmaydi. "Sizlar* ***hidoyat****siz o'tib ketsanglar ham maylimi?* ***Oxirat****ni o'ylamaysizlarmi?" – degani degan…"* [8: 57].

Keltirilgan parchada ***namoz, harom, halol, hidoyat, oxirat*** so'zlari din konseptining mazmuniy mundarijasini tashkil qilgan.

"– Qiyinchilik – bu Xudoning ***banda****siga yuborgan bir* ***sinov****i, uka. Dunyo esa* ***sinov maydoni****. Shunday ekan,* ***noshukrlik*** *yomon. Namoz o'qib, yaratganga yolborish kerak. Hadeb u yo'q, bu yo'q, ertaga ocharchilik bo'larmish, deb vahima qilish o'rniga boriga* ***shukr qilib yashashni o'rganish lozim. Nafs****ni qo'yvorsa, nimalarni qo'msamaydi, deysan?* ***Payg'ambarimiz*** *butun* ***islom*** *dunyosining rahbariga aylangan vaqtlarida ham juda faqir hayot kechirganlar"* [8: 61]. Yuqoridagi parchada *banda, sinov, sinov maydoni, noshukrlik, shukr qilish, nafs, payg'ambar, islom* kabi so'z va so'z birikmalari din konseptining navbatdagi mazmuniy mundarijasini tashkil qiladi. Bu reprezentantlarni yadroviy va perifirik ma'nolarga ajratish uchun assotsiativ-statistik tahlil metodidan foydalanish mumkin.

Sanab o'tilgan obyektivlashtiruvchi birliklar badiiy matnda din konseptining lisoniy voqelanishida ishtirok etadi. O'quvchi ongida bevosita ushbu konseptning yaxlit modelini yaratadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, turli lisoniy-madaniy muhitlarda konseptlarning reprezentant birliklari ham o'zaro farqlanadi. Yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romanidagi din konseptini tahlil qilish jarayonida bunga guvoh bo'lamiz.

"Ularning o'limi haqidagi xabarlar xolaning yuragiga qattiq tegdi, o'tirib olib achchiq-achchiq yig'ladi, pichirlab haqlariga ***duo*** *o'qidi. O'qidi-yu, shundayam tinchlanmadi.* ***Cherkovga*** *bormoqqa tutindi. Shunga ehtiyoj sezdi. Do'kondan* ***sham*** *olsammikan, deya o'ylandi. Yana Matluba bilan Hanifa* ***musulmon*** *edilar, haqlariga* ***duo*** *o'qib bo'larmikan?", deb ham boshi qotdi"* [9: 74]. Keltirilgan jumlalar tarkibida qo'llanilgan *duo, cherkov, sham, musulmon* kabi so'zlar din konseptining navbatdagi reprezentant birliklari vazifasida qo'llanilgan.

"Axir uning o'zi haligacha ul ***qutlug' dargohga*** *bormagan. Borgan bo'lsa ham bunga ko'p bo'lgan: O'sha Volga bo'yida, qishloqdagi* ***cherkovga*** *onasi bir-ikki yetaklagan, unga* ***kolisoda*** *o'zini qanday tutish kerakligini,* ***marhumlar*** *haqiga* ***duo qilish*** *yo'l-yo'riqlarini o'rgatmoqchi bo'lgan"* [9: 74]. Ushbu jumlalar tarkibida qo'llanilgan *qutlug' dargoh, cherkov, koliso, marhumlar, duo qilish* kabi ifodalar ham din konseptini yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

"Tanyaning bilagini tutgancha ***ibodat*** *yo'l-yo'rig'ini takror so'radi, ro'molini tuzatgan bo'ldi, usti boshiga qarab-qarab oldi. Lablariga* ***iltijolar*** *toshib chiqdi: "****Xudoyim****, o'zing madadkor bo'l!..."* [9: 77]. Ushbu gaplar tarkibidagi *ibodat, iltijo, Xudoyim* kabi ifodalar ham din konseptining navbatdagi reprezentant birliklari sifatida ishtirok etgan.

"Axir u ***musulmon*** *bo'lsa, men esa* ***nasroniy****. Haqiga duo qilsam bo'larmikan?..." – deya o'yladi. Alanglab Tanyani qidirdi. Hamrohi nariroqda, odamlar davrasida boshqa* ***ikona*** *qarshisida sig'inib turardi"* [9: 78]. Keltirilgan jumlalar tarkibida qo'llanilgan *musulmon, nasroniy, ikona* kabi reprezentant birliklar bu kontekstda ham din konseptini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Asardagi Larisa ismli obraz nasroniy diniga mansub. Ushbu obrazning ongida din konseptini ifodalovchi reprezentant birliklar o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy muhitga tegishli bo'lishi tabiiy. Yuqoridagi parchalarda qo'llanilgan *duo, cherkov, sham, qutlug' dargoh, koliso, marhum, ibodat, iltijo, nasroniy, ikona* kabi birliklar din konseptining boshqa lisoniy-madaniy muhitga mansub obyektivlashtiruvchi birliklaridir.


Xullas, tahlillar shuni ko'rsatdiki, badiiy matn tarkibida qo'llanilgan eng ko'p reprezentantlarga ega konsept bu – din konseptidir. Uning reprezentant birliklarini ham ma'lum bir hududdan kelib chiqqan holda xalqning milliy va madaniy xususiyatlarini hisobga olib tahlil qilish samarali natijalar beradi. Chunki individ o'zi mansub bo'lgan lisoniy-madaniy muhitdan chetga chiqib fikrlay olmaydi. Konseptlarni tahlil qilishda ularning reprezentant birliklarining to'liq ro'yxatini tuzish va antologiyaga birlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Johnson M. The Body in the Mind. – University of Chicago Press, 1987.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – University of Chicago Press, 1980.
3. Lakoff G. Women, Fire and Dangerous Things. – University of Chicago Press, 1987.
4. Ray J. Semantics and cognition. – Massachusstes, 1999.
5. Winters M. Historical cognitive linguistics. – Berlin, 2010.
6. Бабушкин А.П., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика и семасиология. – Воронеж: ООО «Ритм», 2018. – 229 с.
7. Стернин И.А. Методика исследования структуры концепта // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж, 2001. – С. 58–65.
8. Hamdam U. Muvozanat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
9. Hamdam U. Isyon va itoat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.

Mahliyo TURG'UNOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

USMON AZIMNING BADIIY OBRAZ YARATISH MAHORATI



SHOIRNING RAMZIY MA'NODAGI *DUNYO, SHARPA, TUN, QORONG'ULIK, TURNA, TONG, FALAK, DARD, YO'L, OSMON* KABI PEYZAJ DETALLARI, *"YOLVORDIM UXLAMAY – TONGNI SO'RADIM"*, *"SUST QADAM TUN"* KABI O'ZIGA XOS POETIK TOPILMALAR BUGUNGI DAVR ODAMINING IZTIROBLARINI, KECHINMALARINI YAQQOL AKS ETTIRGAN. U O'Z SHE'RLARIDA UMUMBASHARIY MUAMMO – INSON VA DUNYO OBRAZLARINI ISTEHZOLI QO'LLASH ORQALI O'ZINING ESTETIK IDEALINI LIRIK KECHINMA QATIGA SINGDIRISHGA HARAKAT QILADI.

Badiiy obraz – obrazlilik tushunchasining o'zagi. Obrazlilik – adabiy ijod mohiyatini va umumiy xususiyatlarini: adabiy qahramon, badiiy til, tabiat, buyumlar, jismlar, hayvonot dunyosi tasviri va hokazolarni o'z ichiga qamrab oladi. L.I.Timofeyevning ta'rificha, "Obraz – badiiy to'qima vositasida yaratilgan va estetik qimmat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni paytda konkret manzarasidir" [1: 62].

Ma'lumki, adabiyotshunoslikda qo'llaniladigan obraz, personaj, xarakter va tip atamalari anglatadigan tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'liq, lekin ularni aynan bir ma'noda, deb tushunmaslik zarur. Chunki ularni ajratib turadigan jihatlar bor. "Obraz" deganda asar qahramonlari hayoti tasviri tushuniladi. Asarda ifoda yo'nalishi va individual ruhiy xususiyatlari bilan ajralib turuvchi, asar sujetida "katta yuk" tashuvchi personajlar xarakter bo'lsa, ijtimoiy guruh yoki sinfning muhim xususiyatlarini ifodalovchi xarakter adabiy tip, deb yuritiladi. Og'zaki va yozma nutqda "personaj" va "obraz" atamalari bir-birining sinonimi sifatida ham qo'llaniladi. Xarakter, L.I.Timofeyev ta'kidlaganidek, obrazning yadrosi. Umuman aytganda, qahramonning muhim xususiyatlarini aniqlaydigan asosiy belgilar xarakter deb yuritiladi. Tip – aniq ifoda yo'nalishi, individual ruhiy jihatlari bilan ma'lum bir sinf yoxud guruhning tomonlarini o'zida aks ettirgan qahramonlar obrazi. Oddiy axborot berish yoki aytib qo'ya qolish bilan obrazlilikka erishib bo'lmaydi. Tasvirning obrazliligini ta'minlash uchun so'zning yashirin imkoniyatlaridan foydalana bilish lozim:

Senga hamma narsa oson tuyular:
O'lim – yashamoqning davomi kabi…

Qalb mo'jaz. Qalbdan cheksizlik sari duch keluvchi va tobora aql bovar qilmas darajada ulkan olamlar: sayyoralar, yulduzlar, galaktikalar ustidan – balanddan qaraganda insonning mo'jaz qalbi ko'zga ilinmaydi. Ammo shu mo'jazlik ichra Allohning qudrati ila yaralgan olam barcha cheksizliklardan-da cheksiz! Insonning mukarramligi ham shunda, aslida.

Ilhom – insonning ijodiy ish holatidir. Pushkin ilhomni shunday aniq va sodda ta'riflagan: "Ilhom – qalbning jonli taassurotlarni qabul qilishga, tushunchalarni tez tushunishga tayyor holatidir, ilhom – bamisoli birinchi muhabbatdir. Bunda yurak bo'lajak uchrashuvlar, yorning beqiyos go'zal ko'zlari, tabassumi va imolari ishtiyoqida urib turadi" [2:63].

I.S.Turgenev ilhomni: "Xudoning yaqinlashishi, inson qalbining fikr va tuyg'ular bilan uyg'unlashishi", deya ta'riflagan. Ilhomga L.N.Tolstoy shunday sodda ta'rif bergan: "Ilhom shunday ibodatki, qilinishi lozim bo'lgan ish birdan o'zidan o'zi o'ng kelib qoladi" [3: 69].

Betakror ilhom egasi, taniqli shoir Usmon Azim ijodi bizni ilmiy mulohazaga undaydi.

Nima ham berardim men senga, dunyo,
Sening bozorlaring – boyvuchcha kelin.
Dunyo bozorlarin odamlari-ho
Oling, yuragimni sotgani keldim!

Ijodkor ushbu to'rt misrada "yurak" so'zi orqali o'zligini tarannum etgan butun ijodini nazarda tutadi, yurak insonning hayotda yashovchanligini ta'minlab

beruvchi tana a'zosidir. Shu bois, shoir butun vujudini she'rga solib armug'on etadi:

Dunyongda men qirq yil yashadim tikka,
Har sharpang tanimni tig'lab o'tdilar.
Xudoyim! Bu tun ham qorong'ulikda
Turnalar qaygadir yig'lab o'tdilar.

Yolvordim uxlamay – tongni so'radim,
"Tezroq ketgin", dedim sust qadam tunga.
Falakka tongdayoq shoshib qaradim
– Xudoyim! – Bitta ham turna yo'q unda.

Turnalar yo'lini ko'rsatgil, boray,
Dardimni ularga aytayin oshkor.
"Ana yo'l" – osmonga etding ishora ...
Xudoyim! Bu yo'ling nega buncha tor? [4: 282].

Ushbu o'n ikki misradan iborat she'r kishining hayot haqidagi qarashlarini boyitib, olam-olam mazmun baxsh etadi. Undagi men – shoir obrazi orqali qirq yoshga kirguncha ham tik oyoqda Allohdan marhamat kutgan inson orzusi mubolag'ali tarzda bayon qilingan. She'rga turna obrazi bejiz kiritilmagan. Chunki turna – adolat, uzoq umr ko'rish, mehr-shafqat ramzi. Xitoy rivoyatlaridan birida turna – o'lmas ruhlar timsoli. Masalan, afsonaga ko'ra, Vanszi Seo ismli kishi abadiy yashashga erishgach, osmonga turnada uchgan.

Turna ming yil yashaydi va egilgan bo'yni bilan nafas oladi. Shu bois, nafasini yangilaydi. Bu holatdan daoslar foydalangan. Turnalar marhumlarni osmonga kuzatadi va farishtalarni tashiydi. Yaponiyada Kuru (Turna) tumanida yetishtiriladigan guruchdan pishirilgan bo'tqani tanovul qilish udumi bor. Bunday bo'tqa chaqaloqqa uzoq umr va salomatlik bag'ishlaydi. Chaqaloqdan yovuz ruhlarni quvadi, deb hisoblashadi. Ba'zi an'analarda turnani yomg'ir va hosildorlik bilan bog'lashgan. Masalan, turna yunon dehqonchilik ma'budi Kronosga bag'ishlangan qush. Nasroniylarda turna taqvodor hayot va zohidlik ramzi. O'zbek xalq og'zaki ijodida turna xabarchi, elchi ramzi. Yuqoridagi she'rda shoir adolatni kutib qirq yoshigacha ham tik oyoqda, ya'ni ziyraklik bilan, uyqusiz tunlarda adolat yo'lini so'rab tunni tongga ulagani, o'z dardini turnalarga aytmoq istagi mujassam. Shoir obrazi Haqqa, adolatga talpinayotgan oshiq timsoliga muqoyasa etilgan.

She'rda Usmon Azim tabiatiga xos ziyraklik, adolatparvarlik tuyg'ulari insonni kamolotga yetkazishi, yuksaltirishi *"Ana yo'l" – osmonga etding ishora"* misrasi orqali va u yo'ldan yurish har kimning ham qo'lidan kelmasligi *"Xudoyim! Bu yo'ling nega buncha tor?"* misrasida ifodalangan. Shoirning ramziy ma'nodagi *dunyo, sharpa, tun, qorong'ulik, turna, tong, falak, dard, yo'l, osmon* kabi peyzaj detallari, *"Yolvordim uxlamay – tongni so'radim", "sust qadam tun"* kabi o'ziga xos poetik topilmalar bugungi davr odamining iztiroblarini, kechinmalarini yaqqol aks ettirgan.

Usmon Azim o'z she'rlarida umumbashariy muammo – inson va dunyo obrazlarini istehzoli qo'llash orqali o'zining estetik idealini lirik kechinma qatiga singdirishga harakat qiladi. "Usmon – ijtimoiy muammolar shoiri. U o'zini hech qachon jamiyat tashvishlaridan panaga tortmagan. Hatto uning she'riyatini to'lig'icha ijtimoiy masalalarga qaratilgan deyish mumkin. Uning ichki intim she'rlarida ham hamisha ijtimoiy tutantriq achchiq bo'ladiki, u xuddi lakmus kabi odamning shaxsiyati qandayligini belgilab beradi". Usmon Azim she'riyatidagi jo'shqin, isyonkor, qat'iyatli va millatparvar xarakter ruhiyati tasviri badiiy vositalar orqali ochib berilgan. "Adabiy asarning mazmuni uning mohiyati, shaklini esa mohiyatning namoyon bo'lish tarzi sifatida ham tushuntirish mumkin. Boshqacha aytganda, mazmun – ijodkorning ochun haqidagi o'ylari, voqelikdagi biror hodisaga fikriy va hissiy munosabati. Shakl esa, ana shu munosabatning ifodalanish tizimi va yo'sinidir. Bundan ham jo'nroq ifodalansa: mazmun bu – yozuvchining nima degani bo'lsa, shakl uning qanday deganidir" [2: 42].

Shoirimizning individual ijodiy tafakkuri kuchini baholash uchun ham avvalo uning jahon adabiyotida an'anaviylik kasb etgan mavzu yoki obrazlarga yondashuvidagi talqin hamda yechimlarning saviyasini aniqlash lozim. Buning uchun shoir ijodi to'la imkon beradi. Usmon Azim milliy ruh tushunchasini singdirishda mumtoz she'riyatimizning yetakchi vazni bo'lgan aruzdan mohirona foydalandi va g'azal janrida barakali ijod qildi. U to'rtlik, g'azal, sakkizlik, ertak, latifa kabi poetik janr va shakllarda badiiy barkamol namunalar yaratdi. Bu hol shoir she'riyatining mavzu doirasi kengayib, usluban boyib borayotganini ko'rsatadi hamda ma'naviy-axloqiy, intellektual qadriyatlarni tarannum etishda ijtimoiy-falsafiy hamda psixologik tahlil madaniyati teranlashayotganidan dalolat beradi.

Usmon Azim she'riyatida nafaqat mazmun, balki band shakllari bilan bog'liq shakliy izlanishlarning samarasini ham ko'rish mumkin. Shoir barmoq vaznida 3 bo'g'indan tortib 16 bo'g'ingacha bo'lgan she'riy misralar yaratgan. Masalan, shoir she'riyatida uchliklar, yangi shakliy ko'rinishdagi to'rtliklar (satrdan satrga ko'chib o'tgan fikrlar aslida jami 4 qatorga joylanishi kerak bo'lsa-da, ijodkor tomonidan bu holat 14 qatorga keltiriladi), bandlarni turlicha shakllantirish ko'zga tashlansa, so'zlarning satrlarda yakka holda kelishi yoki bandlarni astrofiklashuvi kuzatiladi. "Astrofik she'r tuzilishida bir band to'rtlik, ikkinchisi ikkilik, uchinchi band yana boshqa (masalan: sakkizlik) tarzida bandlashtirili-

shi mumkin" [5: 123]. Aruz vaznida qalam tebratgan Usmon Azimning Alisher Navoiy g'azaliga bog'lagan muxammasi mavzu va g'oya, shuningdek, janr hamda, vaznda ham mukammallik kasb etgan:

Oy yuzingga yetmadim – uchdim fidoyi qush kabi,
Chirqirab buzdim falakni indin judoyi qush kabi,
To'zg'idi to'fon-tanim – men bir xudoyi qush kabi,
Ishq bo'stoniga kirganda havoyi qush kabi,
Sunbuli zulfi bo'lurni domi rohim bilmadim.

Ushbu muxammas yetti banddan iborat. Aruzning ramal bahrida, ya'ni ramali musammani mahzuf vaznida yaratilgan. Shoir vasl umididagi oshiq obrazining ma'shuqa ishqidagi oh-vohi *(Chirqirab buzdim falakni)*, tani, vujudi to'fon kabi to'lg'onishi *(To'zg'idi to'fon – tanim)* mubolag'ali tasvir usuli, ma'shuqa yuzini oyga *(Oy yuzing)*, oshiq o'zini qushga *(uchdim judoyi qush kabi)* o'xshatish orqali tashbeh san'atidan mohirona foydalanilgani kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
2. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
4. Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995.
5. Quronov D., Shofiyev O., Yo'ldoshev N. Uslubiy qo'llanma – Termiz, 2015.

Jamoliddin TEMIROV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi

MAXMUR SHE'RIYATIGA ADABIY MUHIT TA'SIRI

Annotatsiya. *Maqolada Maxmur va Qo'qon adabiy muhitining ijodkor she'riyatiga ko'rsatgan ta'siri, shoirning adabiy jarayonga munosabati, bu munosabatning shakllanishiga sabab bo'lgan omillar mustaqil yondashuv asosida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Amir Umarxon, adabiy muhit, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, Fazliy Namangoniy, tazkira, fosh qilish.*

Annotation. *This article, based on an independent approach, describes the influence of the literary environment of Makhmur and Kokand on the work of the poet, the attitude of the poet to the literary process, and the factors causing the formation of such an attitude.*

Keywords: *Amir Umarkhan, literary environment, socio-political processes, Fazli Namangani, tazkirah, exposure.*

Аннотация. *В статье на основе самостоятельного подхода описываются влияние литературной среды Махмура и Кокана на творческую поэзию, факторы, обусловившие формирование "реакций" поэта на ситуации литературного процесса .*

Ключевые слова: *Амир Умар Хан, литературная среда, общественно-политические процессы, Фазли Наманган, тазкира, разоблачение.*

Maxmur yashagan davr va u ijod qilgan adabiy muhit haqida so'z yuritganda, XVII–XIX asrlar birinchi yarmida Qo'qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buxoro xonligida XVII asrning birinchi yarmida kuchaygan parokandalik oqibatida ming urug'i yetakchilari Qo'qon xonligiga asos solinishida muhim o'rin tutgan. 1709-yili Shohruhbiy boshchiligida Qo'qon xonligi vujudga keldi. Bu xonlik o'z tarkibiga hozirgi Farg'ona, Namangan, Andijon, Toshkent, Xo'jandni, Qirg'iziston va Janubiy Qozog'iston hududlarini qo'shib oldi. Xonlikda Shohruhbiy va uning avlodlari davlatning siyosiy, iqtisodiy hayotini yuksaltirish bilan birga, madaniy hayotda ham xonlik nufuzini oshirish maqsadida ijodkorlarga, shu jumladan, adabiyot va san'at vakillariga keng imkoniyat yaratishga intildilar.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Qo'qonda adabiy muhit bir qadar jonlana boshladi. Jumladan, bu haqda Mirzo Olim "Ansob us-salotin" asarida 1732–1733-yillarda Abdulkarimxon davri haqida shunday yozgan: "Abdulkarimxon... xizmatiga eshon, domullo, Olim Konibodomiy va domullo Vali Xojandiy va Mashrabi devonayi Namangoniy kelib suhbat tutar erdilar. Alarning suhbatidin ifoda va istifoda topib, necha umumiy diniy va kashf yaqinig'a olim va koshif bo'lib kamolot hosil qildi" [1: 41].

Qo'qonda adabiy muhitning eng gullagan davri Amiriy taxallusi bilan she'rlar bitgan shoh va shoir Amir Umarxon (1787–1822) nomi bilan bevosita bog'liq. Amir Umarxon siyosiy hayot bilan bir qatorda ilm-fan rivoji, adabiyot va san'atga ham katta e'tibor bergan. Xonlik hududidagi barcha iqtidorli ijodkorlarni saroyga jamlab, faol ijodiy jarayonni tashkil etgan. Ushbu adabiy jamoadagi ijodkorlar o'zlarini turli yo'nalishlarda namoyon eta olgan.

Amir Umarxon boshchiligidagi adabiy muhitda nafaqat Qo'qon, balki boshqa viloyatlardan kelgan ijodkorlar ham jam bo'lgan edi. Bular qatorida Ado, Ziynat, Manzur, Xijlat, Xotif kabi shoirlarni qayd etishimiz mumkin. Shu muhitda ijod qilgan

shoir, ijodkorlarning asarlarini "Majmuat ush-shuaro" tazkirasiga jamlagan Fazliy to'plam so'zboshisida saroyda to'plangan shoirlar uning buyrug'ini kutuvchi, unga maqtovlar aytuvchi shoirlar ekanini qayd etgan. Tazkirada dastlab Amiriyning she'ri berilgan, keyin unga nazira bog'langan she'rlar keltirilgan. Nazira bog'lagan shoirlar ma'no va mazmun jihatdan Amiriy she'riga mos she'rlar yozishi lozim bo'lgan. Bu esa, ularning tor doirada ijod qilishlariga sabab bo'lgan. Ulardan farq qiluvchi ijodkorlar sifatida Fitrat alohida e'tibor qaratgan Gulxaniy, Maxmur kabilarni qayd etishimiz mumkin. Fazliy ham tazkirasida uning tojik va o'zbek tillarida "latif she'rlar" bitganini e'tirof etadi [2].

Bu davrda Ma'dan, Mujrim Obid, Junaydullo Hoziq singari shoirlar ham saroy adabiyotidan farqli ravishda xalq dardini kuylashgan. Albatta, buning uchun ular quvg'inga uchrashgan.

Amir Umarxon boshchiligidagi Qo'qon adabiy muhitida Maxmurning ham tutgan o'rni alohida. XX asrning birinchi yarmigacha Maxmurning ijodi namunalaridan beshtagina g'azali hamda Qori Qunduziyning "Tavorixi manzuma" asaridagi ba'zi tarix she'rlarigina ma'lum edi, xolos. Shu bois adabiyotshunoslar Maxmur ijodi, hayoti haqida fikr yuritganda uning ana shu sanoqli asarlariga murojaat qilishgan. O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab, tazkirachi olim Po'latjon Qayumov va shoir Charxiyning tashabbusi bilan Maxmurning qo'lyozmasi topilgan. Uning tarkibida masnaviy, g'azal, muxammas janrlarida yozilgan hajviy asarlardan iborat oltmishdan ziyod she'r borligi adabiyot ahliga ma'lum qilingan.

Maxmur ijodini o'rganishda Po'latjon Qayumovning o'g'li Aziz Qayumov olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari e'tiborga molikdir. 1956-yili uning tadqiqot va matnlardan iborat "Maxmur" nomli kitobi nashr etildi. Bu kitob ikki qismdan iborat. Birinchi qism Maxmur hayoti va ijodiga oid ma'lumot hamda shoirning she'rlariga Aziz Qayumov sharhlaridan tashkil topgan bo'lsa, ikkinchi qismida Maxmur she'rlaridan namunalar keltirilgan. "Maxmur otasi Akmal kabi zullisonayn shoir bo'lgan. Uning hajviy asarlari ichida fors-tojik tilida yozilgan, ba'zan o'zbek va tojik tillarida shiru shakar, mulamma' usullarida bitilgan she'rlari bor" [3: 185].

Maxmur o'zidan oldin o'tgan ijodkorlarning izidan borib, deyarli barcha she'rlariga forscha-tojikcha sarlavha qo'ygan. Aziz Qayumov shoir ijodiga bag'ishlangan "Maxmur" kitobida dastlab forscha-tojikcha she'rlarning asl mohiyati haqida so'z yuritib, keyin o'zbek tilidagi ma'nolarini bergan. Bu o'quvchiga Maxmur she'riyatining tub mohiyatini, nozikliklarini, badiiyatini ilg'ashda qulaylik tug'diradi. Maxmur hayoti va ijodiga bag'ishlangan ushbu kitob – "Majmuat ush-shuaro"da Fazliy Namangoniy tomonidan Maxmur nomiga aytilgan noxolis fikrlar asossiz ekanligi ta'kidlangan: "Shoir Fazliyning Maxmurga nisbatan g'arazli munosabati hukmron feodal guruhlarning Maxmurga bo'lgan munosabatini bildiradi. Fazliy Maxmurni "yaxshilardan" past turuvchi (Fazliy tushunchasidagi yaxshilar saroy shoirlari – A. Q.) shoir deb xarakterlaydi. Maxmurga nisbatan bo'lgan bu haqoratli munosabat Fazliyning boshqa izohlarida ham aniq sezilib turadi" [4: 10].

"Majmuat ush-shuaro"da Fazliy Maxmurning "Tarog'" radifli she'rini keltirar ekan, bunday deb izoh beradi:

Xayoloti Maxmur be marhabost,
Qijogo'y g'aybat qalb oshnosot.
Nayoyad zi af'oli o' g'ayri bad,
Buvad harchi qavli nomo' tamad.
Shikoyag kunad az hamin bisyor
Zi Maxmuriy nash'ai ko'knor.
Buvad she'ri on ko'sa az log'ari
Zi oroyishi reshi sablat bari.
Ba zulfi suxan shona zad onchunin
Buvad she'ri xo'bi malihash hamin [2].

She'rda yozilishicha, Fazliy nazdida Maxmur xayoloti, o'ylari to'g'ri emas, uning hajv qobiliyati aslida qalloblik va g'iybatdan iborat, "ko'knor nash'a"siga xumorligidan qilgan amallari ortida faqat yomonlik yotadi, she'rlari mazmunsiz bo'lib, mo'lchilikdan-to'qchilikdan (Fazliy Namangoniy Amir Umarxonga yaqin ijodkorlardan biri bo'lganligi sababidan "mo'lchilik"da yashagan) shikoyat qiluvchi bir kimsa. Fazliy o'z tazkirasida mana shunday noxolis satrlaridan keyin Maxmurning "Tarog'" radifli she'rini keltirib o'tadi. Aziz Qayumovning yozishicha, bu hol "Feodal adabiyotning vakillari bilan progressiv yo'nalishdagi adabiyot vakillari o'rtasida qarama-qarshilik va kurash" [4: 9] kechganini aks ettiradi. Fazliy tomonidan badiiy jihati sustroq va Maxmur she'riyatining ijodiy ko'lamini ko'rsatib bermaydigan ushbu she'rni misol tariqasida keltirishdan maqsad Maxmur ijodini kamsitish bo'lgani ehtimoldan yiroq emas.

Tabiatan botirso'z bo'lgan Maxmur bunday haqoratlarga jim qarab turmagan, Fazliyning asl qiyofasini aks ettiradigan she'rlar yozgan. Chunonchi, bir she'rida u Fazliyni "isqotiy" deb ataydi.

Xullas, Maxmur o'z davri adabiy muhiti jarayonida ko'z o'ngimizda "yuqori tabaqa vakillari"ni keskin fosh qiluvchi, ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni ro'y-rost tanqid qilgan jasoratli ijodkor sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. – Toshkent, 1961.
2. Fazliy. Majmuat ush-shuaro. – Toshkent; O'zFA qo'lyozmasi.
3. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
4. Qayumov A. Maxmur. – Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1958.

Nilufar YULDASHEVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti kafedra mudiri,
pedagogika fanlari doktori, professor vazifasini bajaruvchi

CLIL METODIKASI ASOSIDA INTEGRALLASHGAN O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarni zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish, ularda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda CLIL texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *CLIL texnologiyasi, kommunikativ ko'nikmalar, kreativlik, kollaboratsiya, tanqidiy fikrlash, tabaqalashtirilgan o'qitish, raqamli vositalar, hamkorlikda o'qish, XXI asr talablari, sifatli ta'lim metodikasi.*

Annotation. *This article discusses the advantages of using the CLIL (Content and Language Integrated Learning) technology for teaching future educators based on modern approaches.*

Keywords: *CLIL technology, communicative skills, creativity, collaboration, critical thinking, differential teaching, digital tools, cooperative learning, 21st-century demands, quality education methodology.*

Аннотация. *В статье рассматриваются преимущества использования технологии CLIL при обучении будущих педагогов на основе современных подходов и формировании у них коммуникативных навыков.*

Ключевые слова: *Технология CLIL, коммуникативные навыки, креативность, коллаборация, критическое мышление, дифференцированное обучение, цифровые инструменты, совместное обучение, требования XXI века, методика качественного образования.*

Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifatli ta'lim berish, globallashuv davrida mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish, xalqaro yondashuvlar asosida mavjud metodikalarni yangilash zarurati ortmoqda. Pedagogik mahoratning, pedagogik ta'limning ikkita tayanchi bor. Biri yetuk bilim bo'lsa, ikkinchisi shu bilimni yetkazish. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida shunday degan edi: "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona va eng to'g'ri yo'lidir" [1].

Ta'limning rivojlanish tendensiyalarida darsning tanlangan mavzu bo'yicha muayyan maqsadga erishuvi uchun qator omillar borligi ko'zga tashlanadi. Bu, asosan, o'quvchi va o'qituvchi juftligi (tandemi) da namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat, o'z fanimiz bo'yicha keng qamrovli, yetuk bilimga ega, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan, hatto bir necha xorijiy tilni bilsak ham hali bu sifatli ta'lim degani emas. Olingan bilim, hosil qilingan ko'nikmani o'quvchi, talabaning ongiga singdirish mexanizmi – pedagogning kommunikativ-lingvistik kompetensiyasi, nutqiy mahorati zarur. O'qituvchi auditoriyaga ketmon, o'roq yoki bolg'a bilan emas, bilimi va nutqi bilan kiradi. Shunday ekan, notiqlik san'ati, lingvistik kompetensiya pedagogik mahoratning, aniqrog'i sifatli ta'limning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Aytish mumkinki, davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan [2] "2023–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" kitobida ham barcha islohotlar qatori xorijiy tillarni o'rganish tajribasiga alohida e'tibor qaratadi.

Zamonaviy ko'nikmalar sifatida e'tirof etilayotgan chet tillaridan foydalana olishga qaratilgan yondashuv va metodlarni yaratish ilmiy izlanuvchilarning, xususan pedagoglar oldiga qo'yilayotgan muhim talab va vazifalardan biridir. Zamonaviy ko'nikmalar jumladan chet tillarini o'rganish va chet tillaridan foydalanishda bilish, tushunish, idrok etish, eslab qolishning muqobil va variativ usullarini aniqlash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Bugungi kunda zamonaviy ko'nikma va bilimlarni egallashda jahonning ilg'or va tajribadan o'tgan usullarini milliy o'qitish tizimiga joriy etish ijobiy samara bermoqda. Ta'lim beruvchi zamonaviy ko'nikmalarni o'rgatishda qanday usul yoki uslubda olib bormasin, sifat va natijaga xizmat qilishi zarur.

Ana shunday sifatli mexanizmlardan biri – CLIL texnologiyasi. CLIL texnologiyasi – ikki tillilikni amalga oshirish mexanizmi bo'lib, ta'lim oluvchi obyektlarda, ya'ni o'quvchida o'z ona tili bilan birgalikda, o'zga tilni o'rganish imkonini beradi. CLIL so'zining ma'nosi *content* – "fan", "soha", "mavzu" bo'lsa, *language* – "til", *integrated* – "integratsiya, aloqadorlik", *learning* – "o'rganish" kabi inglizcha so'zlarning bosh harflari qisqartmasidan hosil bo'lgan tushunchani ifodalaydi. CLIL texnologiyasi o'rganiladigan yangi mavzu, soha va fanni xorijiy, ya'ni o'zga tilda o'rganishni tavsiya etadi.

CLIL nima? CLIL (Content and Language Integrated Learning yoki fanni tillar bilan integrat-

siyalashgan holda o‘rganish) xorijiy (ingliz) tilni o‘qitishning eng qiziqarli va keng tarqalgan yondashuvlaridan biridir [3].

CLIL atamasi 1994-yilda Finlandiyaning Jivaskila universiteti olimi Devid Marsh tomonidan kiritilgan bo‘lib, mazmunga asoslangan o‘qitish uslubiga xos uslub sifatida yaratilgan. Uning metodologiyasi ko‘plab mamlakatlarda biznes sharoitida qo‘llanilgan va samarali yondashuv sifatida qaraladi.

Aslida bu usul azaldan mavjud, faqat XX asrning oxiriga kelib rasmiy nomiga ega bo‘ldi. Ayni paytda o‘qituvchilar undan keng foydalanmoqda va aytish kerakki, yil sayin CLIL tobora ommalashmoqda. Dunyodagi maktablar bu usulning boshqa usullarga nisbatan ustunligi va zamonaviy o‘qitish sharoitida bunday yondashuvni afzal ko‘rishmoqda.

Integral ta’limga yondashishning asosiy tamoyillari ikkita asosiy tushunchaga – “til” va “integratsiya”ga asoslanadi. CLIL shartli ravishda *hard* CLIL va *soft* CLILga bo‘lingan. Hard CLIL har qanday dars mavzusi ingliz tilida bo‘lishi mumkinligini anglatadi (agar ta’lim oluvchilar uchun L2 bo‘lsa). Bunda ta’lim oluvchilar chet tili orqali kimyo, adabiyot, biologiya, fizika yoki sportni o‘rganishadi. Ingliz tili o‘qituvchilari esa soft CLIL dasturidan foydalanishadi. Ularning vazifasi aksincha: boshqa fanlardan mavzular va materiallardan foydalangan holda chet tilini o‘rganish.

CLIL tamoyillari. CLIL ko‘p tilli emas, u umumiy bilimlarni o‘rgatadi, ikkinchidan, faqat qo‘shimcha vazifani bajaradi. Mashg‘ulotlar asosiy “4 K”ga asoslangan holda amalga oshiriladi [4].

Content (tarkib), *communication* (muloqot), *cognition* (bilim), *culture* (madaniyat). Ushbu tarkibiy qismlarning barchasi bir-biri bilan doimiy bog‘liq bo‘lib:

– sinfda xavfsiz psixologik muhitni yaratishni talab qiladi;

– faqat bitta chet tili va bitta o‘qituvchidan foydalanishni nazarda tutadi;

– materialni yaxshiroq tushunish uchun o‘qituvchi yuz ifodalari, imo-ishoralar, rasmlar, taqdimot tovushi va boshqalarni bog‘lay oladi.

CLILning afzalliklari:

• ta’lim oluvchilarga chet tilidan foydalangan holda bir-biri bilan yanada samarali muloqot qilish imkonini beradi;

• ta’lim oluvchilarning madaniyatlararo bilimlarini kengaytiradi;

• jonli ravishda xorijiy tilda aloqa ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

• fikrlashni rivojlantiradi va o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ochadi;

• ta’lim oluvchilarning g‘ayrati va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi;

• barcha til ko‘nikmalarini o‘rgatadi, til bilimi va tabiiy nutq qobiliyatini rivojlantiradi;

• turli tillarga qiziqish, ularni hayotning turli sohalarida qo‘llashga qiziqishlarini rivojlantiradi;

• qo‘shimcha mashg‘ulotlarga qatnashni talab qilmaydi.

O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari bugun nafaqat bir til orqali ifodalashni, balki ko‘p tillilik asosida targ‘b qilishni ham taqozo qilmoqda [4]. Mavzuni o‘qitishda o‘quv faoliyatini tashkil etishning quyidagi shakllarini ajratish kerak: bunda, **frontal**, **guruhli**, **juft va individual ish faoliyati orqali jarayonni amalga oshirish uchun topshiriqlar beriladi.**

Frontal ish shakli suhbatlar, o‘quv munozaralari, mavzular didaktik kartochkalar bilan ishlash (tematik so‘zlarni tarjima qilish), turli xil mashqlarni bajarish, muayyan mavzudagi turli muammolarni hal qilishda, didaktik o‘yinlarni ikki tilda: ona tili va ingliz tilida olib borish orqali amalga oshiriladi.

Fanlarni til bilan integratsiyalashgan holda o‘rganish jarayonida ta’lim oluvchilarning til tayyorgarligi asosida guruhlar tashkil etilishi mumkin. Bunday holda, topshiriqlar turli darajalarda berilishi kerak: ingliz tilini a’lo darajada biladigan ta’lim oluvchilar uchun “A”, ingliz tilini yaxshi biladigan ta’lim oluvchilar uchun “B” va ingliz tilini yaxshi bilmagan ta’lim oluvchilar uchun “C” tarzida belgilanishi tavsiya etiladi.

Shu bilan birga, bitta guruhga fizika, kimyo, biologiya va informatika bo‘yicha turli darajadagi bilimlarga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilar kirishi mumkin. Shuning uchun barcha guruhlarga beriladigan topshiriqlarning mavzusi bir xil bo‘ladi. Manbalarda guruhlarning shakllanishi ta’lim oluvchilarning ushbu fan bo‘yicha darajaviy tayyorgarligiga asoslanishi mumkin [5]. Bunday holda, bitta guruhga turli xil til bilimlariga ega bo‘lgan, ammo mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari bir xil bo‘lgan ta’lim oluvchilar jalb qilinishi mumkin.

O‘quv faoliyatining juftlikda ishlash shakli ikkita ta’lim oluvchilarning juftlikdagi hamkorlik ishini o‘z ichiga oladi, shu bilan birga ingliz tilini bilish darajasi bir xil yoki har xil bo‘lishi oldindan ta’lim beruvchi maqsadiga xos belgilanishi mumkin.

Juftlashtirilgan ish shakli laboratoriya va amaliy ish, mashqlar bajarish, didaktik kartochkalar bilan ishlash va hokazolarda amalga oshiriladi.

Ishning individual shaklida esa o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha tematik va til tayyorgarligi hisobga olinadi. Shu bilan birga, vazifalarni ikkita mezonga ko‘ra farqlash mumkin: mavzuni bilish darajasi va ingliz tilini bilish darajasi nazarga olinadi. Individual ishlar fanlarda muayyan vazifalarni bajarishda amalga oshiriladi: asosan muammolarni yechish, mashqlarni bajarish, testlar bilan ishlash, turli adabiyotlar va internet manbalari bilan ishlash, mavzularda

mavzuga oid lug'atlarni to'ldirish hamda o'quvchini baholash va boshqalar.

Bugun yangi O'zbekiston ta'limi o'z maqsadlarining ana shunday mas'uliyatli chorrahasida turibdi. Milliy ta'lim taraqqiyot strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi yo'nalishga aylandi. Shu ma'noda, xalqlar va milliy o'qitish metodikasining ijtimoiy jarayonlarini o'rganish amaliyotini takomillashtirish, sifatli ta'lim kafolatini asoslash kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. Mirziyoyev Sh M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Essina I.J., Abramova N.V. Ingliz tilini o'rganishning innovatsion strategiyasi. // Yevropa tabiiy tarix jurnali, 2013-yil 5-son, – B. 38–40.
4. Tajibayev G.Sh. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili. O'quv qo'llanma – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
5. Mavlonova R.A., Vohidova N.H. Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Noshir, 2009.

Feruza MAMATQULOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi
akademik litseyning oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

BADIIY ASAR TAHLILIDA FIKRLAR TO'QNASHUVI

Ta'lim va tarbiyaning samaradorligi o'qituvchining bilimi, tajribasi, mahorati va dars jarayonini qanday tashkil etishiga bog'liq. Albatta, bunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'quvchi shaxsi va tafakkurining rivojlangani darsning asosidir. Badiiy asarlarni tahlil qilib o'rganish esa adabiyot darslarining mazmuni va samaradorligini yanada oshiradi. Zero, adabiyot darslari ijodkorning hayoti va faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni yodlashga emas, yozuvchining ijod mahsulini ilmiy va badiiy jihatdan tahlil qilish, undan hayotiy saboq, adabiy-estetik zavq olish orqali badiiy tafakkurni kengaytirishga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Shunday ekan, adabiyot darslarida tahlilga alohida e'tibor qaratish o'quvchilarning hayot haqidagi qarashlarini takomillashtiradi, yengiltaklik bilan ko'r-ko'rona qaror qabul qilish, harakatlanish oqibatlarini ko'rsatadi.

Badiiy tahlilni amalga oshirishda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan bir qancha jihatlar mavjud. Avvalo, tahlil imkon qadar hayotiy bo'lmog'i lozim. O'qituvchi esa tahlilga kirishishdan oldin o'quvchiga taqdim etish uchun muayyan ilmiy-badiiy mantiqqa ega bo'lgan talqin zaxirasiga ega bo'lishi kerak. Jumladan, asar matni bilan yangidan sinchiklab tanishib chiqish asnosida tahlil jarayonida e'tibor beriladigan hissiy-estetik ifodalar, yozuvchining badiiy ishorasi, personajlar xatti-harakati, o'ylovlarining yozuvchi adabiy maqsadini ochishdagi o'rni kabilarga alohida diqqat qaratilishi juda muhim.


Shu bilan birga, o'quvchi o'z mustaqil fikrlarini erkin bayon eta olishi uchun ijodiy muhit yaratish, o'quvchi shaxsini hurmat qilgan holda fikrlarini diqqat bilan tinglash katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari o'quvchi og'zaki nutqining ravonligi, fikrlarini to'g'ri ifodalay olishi, so'z tanlash mahoratiga e'tibor qaratiladi hamda o'zgalar fikrini tinglay olish, qabul qilish va munozaraga kirishish ko'nikmasi hosil qilinadi. Qachonki o'quvchi asar "ichi"ga kira olar ekan, yozuvchining adabiy maqsadi yo'lidan yuradi, personajlarga yaqinlashadi, ularning kechinmalarini o'zida his etib ko'radi hamda voqelik va hodisalarni o'zi va atrofdagilarning hayoti bilan taqqoslay oladi, zarur xulosalarga ega bo'ladi.

Navbatdagi bosqichda esa o'quvchi nafaqat badiiy asar sujeti, yuzaga kelgan vaziyat va holatlarni tahlil qiladi, balki ushbu vaziyatni yuzaga keltirgan sabablar, ularga asos bo'lgan omillarning ildizigacha yetib boradi. Adabiyotni o'qitishdan ko'zlangan maqsad shu emasmi aslida?! Ha, hayot ne'mati, yashash imkoniyati insonga bir marta beriladi. Uni qayta yashash, o'tgan kunlarni ortga qaytarish imkonsiz. Shunday ekan, adabiyotni o'qitish, badiiy asarni tahlil qilib o'rgatish orqali o'zgalar hayotini oynadek ko'rsatish, o'tmish va zamondosh kishilar hayotidan xulosalar olish va tatbiq qila bilish immunitetini hosil qilish juda muhim.

Fikrimizni A.P.Chexov va uning "Garov" hikoyasi tahlili bilan davom ettiramiz. Darsning kirish qismida A.P.Chexovning hayoti va ijodi, rus va jahon adabiyotiga qo'shgan hissasi, hikoyachilikning yangi uslub va shakllarini yaratgani, o'zbek adabiyoti, jumladan, Abdulla Qahhor ijodiga ta'siri haqida suhbat tashkil etiladi. So'ngra A.P.Chexov hikoyalarida qalamga olingan mavzular, jumladan, insoniyat va jamiyat muammolari, yolg'izlik, umidsizlik, erksizlik kabi tushunchalarni asar qahramonlarining hayot

tarzi negizida ochib berishi haqida to‘xtab o‘tiladi va “Garov” hikoyasi tahliliga kirishiladi (o‘quvchilarga “Garov” hikoyasini o‘qish topshirig‘i avvaldan berilgan, ular asar sujeti bilan tanish). Asarni qayta hikoyalash usuli qo‘llaniladi va qisqacha mazmuni yodga olinadi. Shuningdek, hikoyada ilgari surilgan g‘oya (insonning boylikka o‘chligi, erki va qadri, haq-huquqlari) haqida fikr yuritiladi.

Voqea kuz oqshomlarining birida (!) sodir bo‘ladi. Hikoya qahramonlari – bankir va advokat – bahslashib qolishadi va bu tortishuv garov o‘ynash bilan yakunlanadi. Bankirni garov boylashga undagan narsa manmanlik va kibr bo‘lsa, advokat boylikka o‘chligi, axmoqona g‘ururi sabab bu garovga ko‘nadi va o‘z erki, haq-huquqlari va imkoniyatlaridan mahrum bo‘ladi. Achinarli jihatlardan yana biri shuki, bankir pul va boylikni insonning hayotdagi o‘rnini belgilab beradigan asosiy vosita deb biladi. Lekin hayot har ikkala qahramonga ularning qarashlari xato, fikrlari puchligini isbotlab beradi. Bu jarayon qay tartibda yuz berganini hikoya matnidan bilib oldingiz.



Shu o‘rinda o‘qituvchi “Munozara” usulini qo‘llash orqali quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qiladi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi:

– Bankir va huquqshunosning bahs boylashi haqida nima deya olasiz?

– Aslida ularning garov o‘ynashi asosida nima yotibdi?

– Nega voqealar aynan kuz faslida boshlandi? Yozuvchi bundan biror adabiy maqsadni ko‘zlagan deb o‘ylaysizmi?

– Hech o‘ylab ko‘rdingizmi, nima uchun asar qahramonlarining nomi berilmagan? Nega ular shaxs otlari bilan yuritilyapti? Adib bu o‘rinda ham biror adabiy maqsadni ko‘zda tutganmi yoki shunchaki qahramonlariga nom qo‘ymaganmi?

– Hikoya boshida pullarining hisobiga yeta olmaydigan, boylikka ko‘milgan bankir nima uchun asar so‘nggida “Pullarim ko‘pmi, qarzlarim?” deya boshi qotib qoldi?

– Hikoya so‘ngida bankir nima uchun millionlardan voz kechdi?

– Bankir uchun qamoq muddati o‘ziga xos imkoniyat edi, deya olamizmi?

– Insonga, mudhish bo‘lsa-da, shunday imkon kerak deb o‘ylaysizmi?

– Bankir mahkumlik yillarida nimani yo‘qotdi-yu nimani topdi? Qay biri qadrliroq?

– Garov huquqshunosga nima “berdi”?

– Sizningcha, garovda kim yutdi?

Javoblar umumlashtirilib, dastlabki xulosa chiqariladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, voqea kuz oqshomlarining birida sodir bo‘lgan edi. Oradan 15 yil o‘tdi. Yana kuz. Go‘yoki 15 yil bankir uchun juda qisqa muddatlarda o‘tib ketdi. Kuz edi va yana kuz...

Garovdan kimga qanday manfaat yetdi? Huquqshunosning 15 yil umrini yo‘qotishi, bankirning ikki millionini ko‘kka sovurishi odamlarga o‘lim jazosining beshafqatligini yoki umrbod qamoq jazosining ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanini anglatdimi?

Tahlilning keyingi bosqichida hikoya qahramonlarining tortishuviga sabab bo‘lgan mavzu diqqat markaziga olinadi.

O‘qituvchi: Qadrli o‘quvchilar! E’tibor bergan bo‘lsangiz, hikoya atigi bir necha sahifa, lekin asarda juda katta, keng ko‘lamli, hamma makon va zamonda ahamiyatli bo‘lgan mavzu qalamga olingan. Bu masala uzoq yillar davomida jamiyat a’zolari va huquq faollarining munozaralariga sabab bo‘lib kelmoqda. Ya’ni jinoyatchiga o‘lim jazosini berish adolatlimi yoki umrbod qamoq jazosimi? Bu mavzu bizning jamiyatimizda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ya’ni jamiyat faollari ikki guruhga bo‘lingan:

1-guruh – o‘lim jazosini qayta tiklashni taklif qilayotganlar.

2-guruh – umrbod qamoq jazosini yoqlayotganlar. Sizningcha, qay biri to‘g‘ri?

Shu o‘rinda yana “Munozara”, “Kichik guruhlarda ishlash”, Venn diagrammasi metodlarini qo‘llash maqsadga muvofiq. Tavsiya etiladigan metodlar mazmuni va erishiladigan natijalar quyidagicha:

I. “Munozara” metodi. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi.

1-guruh – o‘lim jazosini ma’qullaydiganlar;

2-guruh – umrbod qamoq jazosini yoqlaydiganlar.

Bunda o‘quvchilar muammoni turli tarafdan yondashgan holda ko‘rib chiqadi. O‘z mantiqiy fikrlarini dalillar asosida bayon qiladi.

Ushbu metodning afzalliklari: har ikkala guruh a’zolari o‘z fikrini asoslash uchun dalillar keltiradi, raqib guruhning dalillariga qarshi savollar berish uchun muammoning ildiziga chuqur kirib boriladi.

> QACHONKI O‘QUVCHI ASAR “ICHI”GA KIRA OLAR EKAN, YOZUVCHINING ADABIY MAQSADI YO‘LIDAN YURADI, PERSONAJLARGA YAQINLASHADI, ULARNING KECHINMALARINI O‘ZIDA HIS ETIB KO‘RADI HAMDA VOQELIK VA HODISALARNI O‘ZI VA ATROFDAGILARNING HAYOTI BILAN TAQQOSLAY OLADI, ZARUR XULOSALARGA EGA BO‘LADI.

II. Kichik guruhlarda ishlash. O‘quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh har ikki jazo usulining turli jihatlarini tadqiq qilishga chuqur kirishadi.

Bu usulning afzalliklari shundaki, o‘quvchilar masalaga tarafma-taraf bo‘lib emas, jamoaviy yondashadi, birgalikda ishlashni o‘rganadi, guruhning har bir a’zosi har ikkala masala bo‘yicha ham fikr bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

III. Venn diagrammasi. Bu metod o‘quvchilarni ushbu bahsli masalani vizual tarzda baholashga o‘rgatadi, ya’ni o‘quvchilar har ikkala jazo turining alohida va umumiy jihatlarini aniqlash, ularni taqqoslash orqali qaysi biri jamiyat a’zolari va mahkumning hayoti uchun foydali yoki zararli ekanini adolat bilan tadqiq qiladi.

Metod tanlab olingandan so‘ng dars taxminan quyidagicha davom etadi:

O‘lim jazosi

1. Afzalliklari:

– jamiyat kishilari o‘rtasida qo‘rquv uyg‘otish orqali jinoyatchilikni kamaytirish;

– o‘ta o‘g‘ir jinoyat, masalan, qotillik sodir etilganda jabrlanuvchining yaqinlari nazdida adolat;

– moliyaviy yengillik (umrbod qamoq jazosiga nisbatan).

2. Kamchiliklari:

– diniy-axloqiy nuqtayi nazardan kimningdir hayotiga daxl qilish mumkin emas;

– turli sabablarga ko‘ra o‘lim jazosi noto‘g‘ri qo‘llangan bo‘lsa, ya’ni hukmdan so‘ng mahkum aybsizligi aniqlansa, ortga yo‘l yo‘q;

– o‘lim jazosi qo‘rqituvchi vosita sifatida samara bermasa, ya’ni jinoyatchi o‘limni bo‘yniga olib shu yo‘lga kirgan bo‘lsa, bu usul bilan jinoyatchilikni kamaytirish imkonsiz.

Umrbod qamoq jazosi.

1. Afzalliklari:

– yashash huquqi saqlanib qoladi;

– xatolari to‘g‘risida o‘ylash, tavba qilish va to‘g‘rilash imkoniyati paydo bo‘ladi;

– umriga, hayotiga zomin bo‘lish orqali qasos olish emas, adolatli jazolash bilan jamiyatdan ajratish.

2. Kamchiliklari:

– moliyaviy xarajatlar jihatidan davlat budjetiga zarar;

– ruhiy va ma’naviy azob;

– alamzadalik sabab jamiyat va jamiyat a’zolariga nisbatan adovat, nafratning kuchayishi.

Tahlil so‘nggida o‘qituvchi taxminan quyidagi mazmunda darsni xulosalaydi:

– Biz ko‘rdikki, hikoyadagi kabi holatlarda muammo yoki chigalliklarning o‘ziga qarata hujum uyushtirish nomaqbul yechim. Chunki aslida muammolarga qarshi emas, ularni keltirib chiqarayotgan sabab va omillarga qarshi kurashish – oqilona qaror. Shunday ekan, mudhish qotillikni amalga oshirgan yoki korrupsiyaga yo‘l qo‘ygan shaxslarni o‘ldirib yuborish to‘g‘ri yechimmi yoki umrbod qamoq jazosiga hukm qilish odilona qarormi, deb tortishishning o‘zi ulkan xato.

Hikoyadagi vaqt tushunchasi haqida. Voqea kuz oqshomlarining birida sodir bo‘lgan edi. Oradan 15 yil o‘tdi. Yana kuz. Balki shu 15 yil bankir uchun juda qisqa muddatlarda o‘tib ketdi. Kuz edi va yana kuz... Lekin boshqa bir inson uchun, o‘z huquqi, o‘z erkini qadrlamagan, umrining lahzalari, soniyalari va hatto yillarini kuz yellari xazonday uchirgan huquqshunos uchun qanday qiymatga ega bo‘ldi ekan?...

Garovdan kimga qanday naf? Huquqshunos 15 yil umrini yo‘qotdi. Balki yo‘qotilgan yillar, sovurilgan yoshlik asnosida o‘zini, o‘zligini topgandir. Bankir ikki millionini ko‘kka sovurdi. Balki shu bilan boylikning qadrsizligini, puldan qimmatliroq narsalar borligini kech bo‘lsa-da, anglab yetgandir. Lekin bu narsa odamlarga o‘lim jazosining beshafqatligini yoki umrbod qamoq jazosining ahamiyatli yoki ahamiyatsizligini anglatdimi?

Shu o‘rinda *aqli salim, orif, nasoro, quyushqon, kazemat, mumtoz, yobon, g‘izol, musaxxar, hulvo, botil* so‘zlariga izoh beriladi.

O‘qituvchi: Qadrli o‘quvchilar! Bizning maroqli suhbatlar tashkillanadigan adabiyot darslarimiz nihoyasiga yetadi, lekin shuni bilingki, hayot saboqlari tugamaydi, ular har kuni har birimizning taqdirimizda davom etadi. Faqat siz uni anglay olsangiz, to‘g‘ri tahlil qila olsangiz, kifoya.


Shundan keyin A.P.Chexovning mahorati haqida fikrlar aytib o‘tiladi. Yozuvchi asarlariga qiziqish uyg‘onganligi aniqlanib, “G‘ilof bandasi”, “Uyqu istagi” hikoyalari mustaqil o‘qish uchun tavsiya qilinadi.

XXI asr – axborot asri. Bugungi kunda ma’lumot, axborot ko‘paydi. Internet tarmoqlari orqali ilm olishning chek-chegarasi yo‘q. Ha, ilm-fan jadal taraqqiy etmoqda. Buni inkor etmagan holda mana shunday davrda insoniylikni qalban va ruhan his etish, o‘zlikni saqlab qolish, yaratilishning mazmun-mohiyatini unutib qo‘ymaslik, yoshlarning tuyg‘ularini quruqshab qolishdan asrash adabiyot va adabiyotchilar oldida turgan o‘ta dolzarb vazifadir. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda”.


Nargiza KHODJAKULOVA,
"Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers"
National Research University, a PhD student, researcher

DEVELOPING LISTENING SKILLS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING: THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS

According to R. Millrood [1], **listening** is an act of interpreting speech that one receives through the ears. **Hearing** is an act of receiving the language through the ears without interpretation. It means that in real life we can hear somebody speak without actually listening to what is being said. As is known, listening is a communicative skill to get the meaning from what we hear. There are some functions of listening that people listen in order to **remember** what they hear verbally or for the sake of **meaning retention**. They listen in order to **evaluate** critically what they hear or to **give supportive empathy**. They can derive **aesthetic pleasure** from what they hear or **produce listener's feedback.** They can **fulfil the instructions** in the heard text. Listening to the spoken language involves hearing the sounds, recognizing words, understanding different accents, understanding intonation, coping with "noise" (external interference and indistinct pronunciation), recognizing sentences, predicting the meaning, understanding whole discourse.



J.J.Wilson [2] proposes that spoken language comprehension is a complex cognitive process that involves both bottom-up and top-down processing. Bottom-up processing relies on the acoustic features of the incoming speech signal to extract meaning, while top-down processing utilizes the listener's prior knowledge and expectations to guide interpretation. Experimental evidence suggests that top-down processing can compensate for missing or distorted auditory information, demonstrating the active and constructive nature of listening comprehension.



R.Millrood asserts that listening constitutes a receptive communicative process that entails the cognitive extraction of information from auditory stimuli. According to Millrood, the principal aim of listening is to decode the "ideational structures" of the message, thereby forming a cohesive representation of meaning. He contends that this process necessitates the listener's active engagement with the incoming information, rather than a mere passive reception.

The listener is required to analyze the auditory signals, discern critical components, and systematically organize them into a coherent framework that accurately reflects the underlying meaning of the message.


The process of "decoding" encompasses the recognition of patterns, the identification of relationships, and the formulation of inferences based on the received information. It necessitates leveraging existing knowledge and experiential understanding to interpret the message within a broader contextual framework. The objective transcends the mere recollection of individual facts or details, aiming instead to construct a holistic comprehension of the message as an integrated entity.

The **"ideational structures"** referenced by R. Millrood signify the fundamental meaning of the message, encapsulating its principal ideas, themes, and interrelations. By identifying and systematically organizing these structures, the listener is capable of generating a unified representation of meaning that surpasses the literal interpretation of the spoken words. This **cohesive representation** serves as a

foundation for further cognitive processing, enabling the listener to draw conclusions, establish connections, and apply the information to novel contexts.

R. Millrood proposes **a three-stage** model of the **listening process.** The **initial stage** involves the **temporary storage** of auditory stimuli in the **sensory memory**, termed "***echoic memory".*** During this brief period, the listener organizes the incoming information into meaningful units, with limited opportunity for extensive analysis. **The second stage** entails the processing of these units within ***the "short-term memory"***. This stage, lasting only a few seconds, integrates the meaningful units into a unified representation of the message, **facilitating *comprehension*.** Upon successful comprehension, the verbatim wording of the message loses its salience and is typically discarded from memory (although some individuals may retain specific wording for extended periods). **The final stage** involves the transfer of the comprehended information to "***long-term memory"***, where it can be accessed for subsequent responses or later retrieval at an appropriate juncture.

The passage examines the inferential nature of auditory language comprehension, as described by R. Millrood. It posits that listening is not a linear process of mapping acoustic signals to predetermined meanings but rather an active cognitive function wherein listeners generate inferences and hypotheses based on auditory input. While auditory processing of speech signals is necessary for initial linguistic recognition, the core cognitive task is the construction of meaning. This meaning-making process is probabilistic and expectation-driven, as listeners interpret language through predictive models informed by context and prior knowledge. Due to the inherent ambiguity in spoken discourse, there is often no direct correspondence between the speaker's intended message and the listener's interpretation. Comprehension is further signaled by "back-channeling" mechanisms (e.g., "aha", "oh"), which serve as communicative feedback. Thus, the listener's role is not merely passive reception but an active reconstruction of meaning, frequently necessitating cognitive effort to infer the speaker's intended message encoded within the speech signals. This process can be shown by the flow chart:



Millrood explains that while the traditional "encoding-decoding" model has long dominated information processing research, a growing body of evidence in cognitive science suggests a more active role for the listener in aural comprehension. Instead of passively receiving information as encoded by the speaker, listeners engage in a dynamic process of "construction and reconstruction" during verbal communication. It means that the active construction of meaning is primarily mediated by the listener's inferential processes. These processes encompass a range of cognitive operations, including:

Semantic disambiguation: Determining the specific meaning of words within their context, considering potential ambiguities and multiple senses.

Propositional construction: Formulating assumptions about the text's underlying propositions, based on lexical cues, syntactic structure, and prior knowledge.

Global meaning assignment: Deriving an overarching interpretation of the heard text, integrating propositional information with contextual cues and background knowledge.

Logical inference: Establishing connections between propositions and ideas, drawing inferences based on logical relationships and deductive reasoning.

Speaker intention attribution: Inferring the speaker's intended meaning and purpose by considering factors such as their tone, nonverbal cues, and the communicative context.

He says that if the process of listening is understood as a collaborative discourse, then the participants in this process perform certain listening roles. Listening roles differ in the way the hearers get involved in the information that they hear. Some of them can be involved very actively in what they listen to, while others can be passive and inattentive listeners. Listeners' roles are shown in the table:

Role	Features
Addressee	A person who is spoken to directly and is to take the information in fully
Auditor	A person who is spoken to directly but not expected to have a full grasp of the information
Eavesdropper	A person not addressed directly and expected to possibly mishear something

He explains that while traditional information processing models view listening as passive, cognitive science demonstrates a more active role for listeners. Whether **addressees** intended to receive the message, **auditors** attending to a presentation, or **eavesdroppers**

listening in, the process of comprehension involves active construction of meaning through inference. This process, encompassing estimation of word meaning, propositional construction, meaning assignment, logical connection, and speaker intention attribution, highlights the collaborative nature of aural comprehension.

According to Millrood the process of teaching to listen is guided by principles:

Principle 1. Teaching to listen as a communicative skill. This principle means that listening activities develop in the language learners the ability to listen to the language in real world settings and to use this skill for receiving information from the heard discourse.

Principle 2. Teaching to listen to authentic materials. The principle emphasizes the importance of using either "authentic" discourse, characterized by naturally occurring language produced by native speakers, or "authentic-like" discourse, intentionally designed to mimic the characteristics of authentic discourse for instructional purposes. This distinction highlights the need for instructional materials that align with the principles of natural language acquisition and provide learners with realistic exposure to language patterns.

Principle 3. Teaching to listen as an integrated skill. Contemporary theories of communication posit that listening is not a solitary act but rather a multifaceted process that is interwoven with other communicative acts, such as speaking, writing, and reading. This intricate relationship highlights the importance of considering listening within a broader communicative framework.

In summary, Millrood's framework underscores the active and cognitive dimensions of listening, accentuating the significance of interpreting and organizing information to develop a meaningful understanding.

These inferential processes contribute to a collaborative model of aural comprehension, where the listener actively constructs meaning through a dynamic interplay with the speaker's encoded message. This model emphasizes the listener's cognitive contribution to the successful exchange of information, shifting away from a purely passive information reception model.

References

1. Millrood R. English teaching methodology. – Moscow: Drofa, 2005.
2. Wilson J.J. How to teach listening. – Edinburgh Gate. Harlow: Pearson Education Limited, 2008.
3. Anderson A., Lynch T. Listening. – Oxford: Oxford University Press, 1988.
4. Brown G. Listening to spoken English. – Harlow: Longman, 1990.
5. Field J. Listening in the language classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
6. Lynch T. Teaching second language listening. – Oxford: Oxford University Press, 2009.
7. Underwood M. Teaching listening. – Harlow: Longman, 1989.

Sevara IBRAGIMOVA,
Tashkent State University of Economics,
Doctor of Philosophy (PhD)

TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING

Today, the emphasis on teaching and learning foreign languages in our country is stronger than ever. Teaching foreign languages in our republic should not be based on outdated pedagogic programs, as was the case before, but on the experience of the world's leading countries. The quality of foreign language teaching should be improved using advanced, innovative and effective methods, and new programs in the educational process. The main content of the educational program is the training of qualified personnel and mature specialists of their profession, who can contribute to the development of our country.

Interactive methods of teaching mean a set of innovative pedagogical methods and a system of technical tools aimed at making students the active participants in the learning process. In the interactive training, students should listen, read, see, write down the given information, ask questions on the topic, freely express their opinion, complete practical tasks and build theoretical knowledge and practical skills on the topic by connecting it with their life experience.

Teaching process requires developing various competences, for instance:

A linguistic competence. It is the ability to analyze grammatical events, correctly select and use them for word design having thematic phrases, following pronunciation rules and rhythmic-intonational design of speech;

A speech competence, which is being able to use speech units, expressions, ask questions, express own opinion on the topic of discussion, and participate in short conversations;

A sociocultural competence. It is having knowledge of the cultural traditions of the countries of the studied language, correct use of sociocultural reali-

ties in speech, and rules of speech etiquette in accordance with the norms of the studied language;

A strategic competence. It is the ability to simplify the phrase based on learned lexical units, grammatical events and speech patterns, as well as use phrases to clarify phrases and make corrections;

A discursive competence – the ability to prepare and reproduce a report, message, and project text on the studied topics;

A social competence – the ability to choose the most appropriate lexical and grammatical design of thought depending on the conditions of the communicative act and the goal set;

A metacognitive competence of students in learning a foreign language, which consists of the ability to independently perform and check exercises for the formation of lexical and grammatical skills, and determine their own speech skills;

A professional competence, which includes the following skills: teamwork, participation in debates and discussions on professional topics in a foreign language.

These competencies are directly related to the information block, which is a system of exercises, tasks, texts and audio recordings for each thematic module. In total, students study nine thematic modules.

It is known that in modern methodology, the process of teaching a foreign language is considered a continuous chain of consistently performed exercises. Exercises act as a form of communication between the language material and the implementation of specified educational tasks. Exercises are not only a means of mastering language material, but also various types of speech activity.

In local methodology, exercises are considered in different ways. Some scientists consider the exercise to be a structural unit of methodological organization of educational material. Other methodologists consider the exercise as a unit of teaching foreign language speech activity.

I.L.Bim defines the exercise as a minimum unit of organizing students' educational activities to master the elements of the foreign language system. Physical exercise (according to I.L.Bim) is a form of interaction between a teacher and a student, mediated by educational materials and having a standardized structure.

S.F.Shatilov sees in an exercise "the performance of a separate operation, a series of operations, a movement of a speech or language character specially organized in educational conditions."

The classification of exercises in the methodology of teaching foreign languages is carried out on the basis of various criteria taking into account: 1) the processes of remembering, recognizing, understanding and repeating the language (K.A.Ganshina); 2) the distinction between language and speech (I.V.Rakhmanov); 3) the stages of the process of mastering the speech of a foreign language (E.I. Passov).

I.V.Rakhmanov identified the following types of exercises: 1) language and speech exercises; 2) text-related and unrelated exercises; 3) translation and non-translation exercises.

B.A.Lapidus offers the following classification of exercises: 1) purely educational exercises; 2) elementary exercises; 3) combined exercises.

E.I.Passov developed his own classification of exercises. He identified the main criterion for determining the types of exercises – the stages of formation of speech skills. According to this criterion, all exercises are divided into: 1) skill-building exercises (conditional speech exercises); 2) skill-development exercises (speech exercises). Among these types, the types of exercises are distinguished by four parameters according to the: 1) speech task; 2) situational correlation of phrases; 3) conditionality of the content and structural aspects of the sentence; 4) assistants used in making the statement.

Interactive methods are based on the activity of each student participating in the educational process, free and independent thinking. Using such methods, learning becomes an interesting activity for the student. When interactive methods are used in the lesson, students acquire the skills and abilities to work independently with the help of the teacher and in cooperation.

Using multimedia, slide shows and audio-video materials in teaching a foreign language, working in small groups, as well as discussing audio-materials also increase students' interest in a foreign language.

In conclusion, it can be noted that using innovative technologies in the course of the lesson arouses interest in scientific research in students and develops creativity. To apply acquired knowledge and skills into practice, students should be skillful and creative. Teachers should properly plan the lesson according to the content of the subject, and make all students actively work during the lesson. Using innovative technologies effectively in the lesson speeds up the educational process, activates the practice of learning, increases students' interest in a foreign language, and thus increase the effectiveness of education.

References

1. Choi J. A. A self-study of the teaching of action research in a university context // Studying Teacher Education, 2011.
2. Coleman E., M. Leider. Personal and professional growth realized: a self-study of curriculum design and implementation in a secondary science classroom // Studying Teacher Education, 2014.
3. Botirbekova G.A. Working with exercises to develop oral speech of students // Молодой учёный, 2019, No.47 (285).
4. Kadyrova M. T. The theory of competence approach and views on its pedagogical content // Молодой учёный, 2020, No.43 (333).
5. Nazarova M. Kh. Application of innovative technologies in teaching foreign languages // Innovative Technologies in Teaching Foreign Languages and Learner Assessment in Online Education, 2021. – pp. 270–275.



Xamidullo HAKIMOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining roman-german filologiyasi fakulteti dekani,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

DUNYO TIL TASVIRINI QURISHDAGI ATAMALARNING KOGNITIV-PRAGMATIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dunyoning lingvistik qiyofasini yaratishda terminologiyaning kognitiv-pragmatik asoslari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *kognitiv jarayonlar, pragmatika, terminologiya, til obrazi, ma'no qurilishi, madaniy idrok, tilshunoslik, semiotika, kontekstual ma'no, muloqot nazariyasi, fanlararo dialog, kognitiv vositalar.*

Annotation. *This article examines the cognitive-pragmatic foundations of terminology in creating a linguistic image of the world.*

Keywords: *cognitive processes, pragmatics, terminology, linguistic image, meaning construction, cultural perception, linguistics, semiotics, contextual meaning, communication theory, interdisciplinary dialogue, cognitive tools.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются когнитивно-прагматические основы терминологии в создании языковой картины мира.*

Ключевые слова: *когнитивные процессы, прагматика, терминология, языковой образ, смысловое конструирование, культурное восприятие, лингвистика, семиотика, контекстуальное значение, теория коммуникации, междисциплинарный диалог, когнитивные инструменты.*

Kognitiv pragmatika bu – kognitiv fan va pragmatikani birlashtirgan fanlararo soha bo'lib, odamlarning tilni kontekstda qanday tushunishi va undan foydalanishiga e'tibor qaratadi. Unda tilni tushunish va ishlab chiqarish bilan bog'liq aqliy jarayonlar o'rganiladi, kognitiv tuzilmalar kommunikativ xatti-harakatlarga qanday ta'sir qilishi ta'kidlanadi. Pragmatik omillar til ishlab chiqarishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlarga ko'ra hodisalarni tasvirlash usuli tinglovchi uchun ma'lumotlarning dolzarbligi kabi pragmatik cheklovlarga ta'sir qilishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, ma'ruzachilar ko'pincha tinglovchi allaqachon bilishi yoki bilishi kerak bo'lgan narsaga asoslanib ma'lum sintaktik tuzilmalarni tanlaydi, bu esa nutqda berilgan ma'lumotni kodlash deb ataladi.

Til asosiy vosita bo'lib, u orqali odamlar dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantiradi. Biz foydalanadigan atamalar shunchaki ixtiyoriy belgilar emas: ular madaniy, ijtimoiy va individual tajribalar bilan shakllangan ma'nolarni o'z ichiga oladi. Bu nuqtayi nazar tilning nisbiyligi nazariyasiga mos keladi va tilning tuzilishi unda so'zlovchilar bilimi va dunyoqarashiga ta'sir qiladi. Misol uchun, turli tillar ranglar yoki fazoviy munosabatlarni turlicha tasniflashi mumkin, bu so'zlovchilarning ushbu tushunchalarni qanday qabul qilishiga bog'liq.

Tilshunoslikda atamalarning ko'p ma'noli bo'lishi ko'pincha tushunmovchiliklarga olib keladi. Atamalar o'z ma'nosini kontekstga qarab o'zgartirishi, ba'zan bir necha xil ma'nolarni anglatishi mumkin. Bu esa nutq jarayonida semantik to'sqinlikka sabab bo'ladi. Masalan, bir xil atama turli tillarda yoki hatto bir tilning o'zida turli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin, natijada dunyo til tasvirini yaratishda murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Kognitiv tilshunoslik yondashuvlari asosida atamalarning ma'nosini yanada aniqroq belgilash, ularni mantiqiy bog'liqliklar orqali tushuntirish va kontekstga muvofiq ma'nolarni aniqlashtirish lozim. Atamalarning pragmatik yondashuv orqali amaliy nutqdagi ishlatilishiga e'tibor qaratish semantik muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Dunyo til tasviri kognitiv (bilish jarayoni) va pragmatik (amaliy nutq) jihatlarni birlashtiradi. Biroq kognitiv va pragmatik yondashuvlar bir-biridan farqli bo'lib, har biri turli tadqiqot metodlariga asoslanadi. Kognitiv jarayonlar asosan insonning aqliy faoliyatiga e'tibor qaratadi, pragmatik yondashuv esa tilning ijtimoiy, madaniy va kontekstual tomonlariga urg'u beradi. Shu sababli ikki yondashuvni birlashtirishda metodologik ziddiyatlar yuzaga keladi.

Kognitiv va pragmatik tafakkurni integratsiya qilish uchun interdisipliner tadqiqotlar olib borilishi lozim. Bu jarayonda tilshunoslik, psixologiya va sotsiologiya singari fanlararo tadqiqotlar bir-birini to'ldirishi mumkin. Shuningdek, pragmatik atamalarni o'rganishda kognitiv tilshunoslikdan foydalanish orqali tilning amaliy jihatlarini yaxshiroq tushuntirish mumkin. Til atamalari faqat lingvistik farqlarni emas, balki madaniyatlararo tafovutlarni ham o'zida aks ettiradi. Masalan, bir madaniyatda biror hodisa yoki tushuncha uchun atama mavjud bo'lgani holda boshqa madaniyatda u umuman bo'lmasligi mumkin. Bu madaniy tafovutlar dunyo til tasviri jarayonida ko'pincha ko'zdan qochiriladi va bu til hamda atamalar o'rtasidagi aloqaning murakkablashishiga olib keladi.

Atamalarning lingvistik va madaniy jihatlari birgalikda o'rganilishi zarur. Har bir atamaning nafaqat semantik, balki madaniy konnotatsiyalarini ham hisobga olish orqali turli madaniyatlardagi atamalarni yanada to'g'ri talqin qilish va ulardan samarali foydalanish mumkin. Shuningdek, tarjimonlik va madaniyatlararo muloqotda atamalarni o'ziga xos mantiqiy va semantik xususiyatlari bilan o'rganish muhim.

Terminlarning kognitiv asoslari so'z va iboralarni tushunishimizga asos bo'lgan aqliy tasavvurlar va jarayonlarni anglatadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Konseptual asoslar. Shaxslar dunyo haqidagi bilimlarni tartibga solishga yordam beradigan aqliy modellar yoki ramkalarga ega. Ushbu ramkalar shaxsiy tajribalar, madaniy kelib chiqish va ijtimoiy o'zaro ta'sirlardan oziqlanadi.

Sxema va skriptlar. Sxemalar umumiy tushuncha yoki toifalarni ifodalovchi kognitiv tuzilmalardir, skriptlar esa voqealar ketma-ketligini ta'minlaydi.

Sxemalar ham, skriptlar ham kontekstga ko‘ra tilni qanday talqin qilishimizni boshqaradi.

Prototip nazariyasi. Bu nazariya toifaning ba’zi a’zolari boshqalardan ko‘ra muhimroq ekanligini ta’kidlaydi. Prototiplar odamlarga mavjud bilimlar asosida yangi ma’lumotlarni tezda tasniflashda yordam beradi.

Mujassamlangan idrok. Bu konsepsiya bizning til haqidagi tushunchamiz jismoniy tajribalarga asoslanganini ko‘rsatadi. Masalan, “yuqoriga” yoki “pastga” kabi fazoviy atamalar atrof-muhit bilan jismoniy o‘zaro ta’sirlar orqali tushunilishi mumkin.

Pragmatik qobiliyatlarning rivojlanishi, ayniqsa, bolalarda kognitiv rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq. Tilni o‘zlashtirish uchun ilg‘or ijtimoiy bilish zarur, chunki u bolalarga ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning murakkabligini tushunish va boshqarish imkonini beradi. Bolalar o‘sib ulg‘aygani sayin ularning pragmatik qobiliyatlari yaxshilanadi, bu ularga so‘zlar va tushunchalarni yanada samarali o‘rganish imkonini beradi.

Tilning ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlashini o‘rganish orqali tadqiqotchilar tilning vaqt o‘tishi bilan qanday rivojlanganini ko‘rsatadigan tabiiy tadqiqot obyektlarini aniqlashlari mumkin. Ushbu pragmatik nuqtayi nazar tilning asosiy jihatlari va uning evolutsiyasini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kognitiv va pragmatik omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shaxsning dunyo haqidagi til rasmini – lingvistik kirish va kontekstual tajribalar bilan shakllanadigan subyektiv tasvirni yaratishga quyidagilar sezilarli hissa qo‘shadi:

– madaniy ta’sirlar. Turli madaniyatlar o‘z tillari orqali voqelikning turli jihatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi, bu esa ma’ruzachilarning o‘z muhitlarini qanday konsepsiyalashiga ta’sir qiladi;

– ijtimoiy o‘zaro ta’sir. Ijtimoiy guruhlar ichidagi muloqot umumiy tajriba va qadriyatlarni aks ettiruvchi maxsus atamalar va ma’nolarni kuchaytiradi;

– o‘quv jarayonlari. Tilni o‘zlashtirish nafaqat lug‘atni o‘rganishni, balki ota-onalar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar orqali atamalarning haqiqiy dunyo tushunchalari bilan qanday bog‘liqligini tushunishni ham o‘z ichiga oladi;

– tilning dinamik tabiat. Jamiyatlar rivojlanishi bilan tillar ham rivojlanadi, yangi atamalar paydo bo‘ladi, boshqalari esa o‘zgaruvchan voqelik asosida yo‘qoladi, bu dinamik jarayon jamoaviy bilishda davom etayotgan o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Xullas, atamalarning kognitiv-pragmatik asoslari dunyoning izchil til tasvirini yaratishda muhim ahamiyat kasb etib, kognitiv jarayonlar, ijtimoiy bilish va pragmatik kontekstlarning o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi. Ularning barchasi turli kommunikativ vaziyatlarda tildan qanday foydalanish va tushunishni shakllantiradi. Atamalarning kognitiv-pragmatik asoslari til dunyo haqidagi tasavvurimizni qanday shakllantirishini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Kognitiv jarayonlar, ijtimoiy kontekst va madaniy ma’nolarning o‘zaro ta’sirini tahlil qilish orqali biz tilning voqelikni qurishdagi murakkab mexanizmlari haqida tushunchaga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitch W., Huber L., Bugnyar T. Social cognition and the evolution of language: constructing cognitive phylogenies. Neuron, 2010.
2. Carston R. Linguistic meaning, communicated meaning and cognitive pragmatics. Mind & Language, 2002. 17(1–2), p. 127–148.
3. Scott-Phillips T.C. Pragmatics and the aims of language evolution. Psychon Bull Rev. 2017. 24, p. 186–189.
4. Bruno G.B. Cognitive Pragmatics. The Mental Processes of Communication. Intercultural Pragmatics. 2011. 8.

Nilufar TURDIYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MUALLIF IDIOLEKTINING KOGNITIV TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada muallif idiouslubi hamda uning o‘ziga xosligi tahlilini olib borish bilan birga lisoniy shaxs va uning darajalari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs idiolekti, lisoniy shaxs, yozuvchi idiolekti, verbal-semantik daraja, kognitiv daraja, pragmatik daraja, mualliflik konsepti, ijodiy g‘oya, yozuvchining konseptosferasi.*

Annotation. *This article analyzes the author’s idiostyle and its uniqueness, while studying the linguistic personality and its levels.*

Keywords: *personality idiolect, linguistic personality, writer’s idiolect, verbal-semantic level, cognitive level, pragmatic level, author’s concept, creative idea, writer’s conceptosphere.*

Аннотация. *Данная статья исследует языковую личность и ее уровни, проводя анализ авторского идиостиля и его идентичности.*

Ключевые слова: *идиолект личности, языковая личность, идиолект писателя, вербально-семантический уровень, когнитивный уровень, прагматический уровень, авторская концепция, творческая идея, концептосфера писателя.*

Milliy til – tilshunoslik sohasida uzoq vaqtdan beri chuqur va har tomonlama o‘rganilayotgan bo‘lsa ham, shaxs idiolekti yoki tilning individual holati tadqiqotchilar e’tiborini hamon tortayotgan mavzulardan

biri hisoblanadi. Shu bois shaxs idiolektini amalga oshirishning lingvistik vositasi sifatida idiouslub tushunchasi ham tilshunoslar (V.V.Vinogradov, Y.N.Karaulov)ning qiziqish markazida qolmoqda. Bu tabiiy hol bo‘lib, so‘nggi o‘n yillikda individual lisoniy ijod masalalariga katta urg‘u berilmoqda [8: 39]. Albatta, tildagi shaxs idiolektiga qiziqish tabiiy, chunki shaxs idiolekti dunyo manzarisining asosida amalga oshiriladi va o‘ziga xos vaqtinchalik (ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma'naviy) nominatsiyalar, umumiy lisoniy darajani o‘z-o‘zidan va o‘zi orqali aks ettiradi.

M.Panovga ko‘ra “lisoniy shaxs bu – individuallashuv, ya'ni muayyan til sohibining nutqi orqali o‘zini namoyon qilish qobiliyatidir” [5: 587]. Ammo lisoniy shaxs bir vaqtning o‘zida polilekt shaxs hamdir. Har bir shaxs o‘z ijodini nafaqat idiolekti yordamida, balki idiouslubi asosida ham namoyon qilishi mumkin. Mazkur masala nuqtayi nazaridan, albatta, shaxs idiolektining ko‘lami, uning polilektual shaxs bilan o‘zaro bog‘liqligi haqida savol tug‘iladi. Idiouslub muammosi murakkab xarakterga ega bo‘lib, unga ko‘ra yozuvchining idiouslubi va idiolektini tahlil qilish ko‘p darajali yondashuvni talab etadi.

Y.N.Karaulov lisoniy shaxsning uch asosiy darajasini ajratib ko‘rsatadi:

1. Verbal-semantik.
2. Kognitiv.
3. Pragmatik [2: 64].

Verbal-semantik darajaning asosiy o‘rganish obyekti leksik birliklar, iboralar va jumlalar bo‘lib, bunda ularning turli tizimlardagi sintaktik, grammatik va shu kabi o‘zaro ta'siri aniqlanadi. **Kognitiv darajada** umumlashtirilgan bilim va g‘oyalar madaniy qadriyatlar, lingvistik xususiyatlarni o‘z ichiga olgan alohida lisoniy shaxs yoki butun til guruhining konseptual sohasi transformatsiyalari amalga oshadi. **Pragmatik daraja** ma'lum bir lisoniy shaxsga xos bo‘lgan asosiy maqsad va motivlarni aniqlashni nazarda tutadi [2].

Lisoniy shaxsni turli parametrlarga ko‘ra tasniflashda ko‘plab yondashuvlar mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari sotsiolingvistik, psixolingvistik yondashuvlar, lingvistik kompetensiyalar va boshqalardir. Shuningdek, lisoniy shaxsni o‘rganishda tadqiqotchilar og‘zaki va yozma matnlarni ko‘rib chiqadi.

V.V.Naumovga ko‘ra yozma matnlar yozuvni amalga oshirayotgan shaxsning nutq xatti-harakati bilan tavsiflanadi, bu esa o‘z navbatida muallifning lisoniy shaxsiga xos xususiyatlar, shuningdek, potensial kommunikativ qobiliyatlarni aks ettiradi [4]. Lisoniy shaxsni o‘rganish shaxs tilining individual xususiyatlari va umuman, muayyan davrga xos lisoniy xususiyatlarni ochib berishga ko‘maklashadi. Shaxsning nutq portretini tasvirlashda tilshunoslar va adabiyotshunoslar ko‘pincha idiouslub va idiolekt atamalaridan foydalanadi.

V.V.Ledeneva tomonidan berilgan idiouslubning ta'rifi yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtiradi: “Yozuvchining idiouslubi bu – lingvistik shaxs tomonidan idiolekt orqali o‘zini namoyon qilishning turli usullariga individual ravishda o‘rnatiladigan munosabatlar tizimidir” [3: 38–39]. Demak, idiouslub ko‘p o‘lchovli tushuncha bo‘lib, lingvistik, stilistik va adabiy nazariyalar hamda texnikalar prizmasi orqali batafsil o‘rganishni talab etadi.

Kognitiv yondashuvda markaziy o‘rinni individual mualliflik konsepti va yozuvchining konseptosferasi egallaydi. Bu fikrni Rey Bredberi tomonidan “Kitob yozish san'atida Dzyen” asarida taklif qilingan misollar yordamida batafsil ko‘rib chiqamiz.

Rey Bredberining insholar to‘plami intiluvchan yozuvchi uchun maslahatlar to‘plamidir. Muallif o‘zining shaxsiy tajribasi bilan o‘rtoqlashadi va shu bilan ijodiy yo‘lining boshida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni yengishga yordam beradi. Muallifning fikricha, bo‘lajak yozuvchi uchun bir xil janrda yozadigan o‘tmishdoshlar yoki zamondoshlarga taqlid qilmaslikning iloji yo‘q: “Har qanday janrdagi yozuvchining muammosi shundaki, u o‘zidan oldin qilingan hamda hozir kitob va jurnallarda chop etilayotgan chegaralangan mavzular doirasida harakat qiladi” [1]. Shu bois ijodning dastlabki yillarida individual mualliflik konseptini shakllantirishning deyarli iloji yo‘q. Yozuvchining asarlarida muallifning “ichki men”i o‘rnatilgach, mazkur konsept paydo bo‘ladi va rivojlanadi. “Siz nima qilsangiz, o‘z hayotingiz va tungi qo‘rquvlardan kelib chiqadi. Siz atrofga qaraysiz va to‘satdan deyarli misli ko‘rilmagan narsani yaratganingizni ko‘rasiz” [1].

Yozuvchining konseptosferasi nima ekanligini batafsil ko‘rib chiqaylik. Bu masala I.A.Tarasovaning “Kognitiv aspektdagi poetik idiouslub” asarida batafsil o‘rganilgan bo‘lib, u yerda olima idiouslubning kognitiv modelini taqdim etgan. Idiouslubning kognitiv modeli sxematik tarzda shunday ko‘rinishga ega:



[6].

Shunday qilib, biz yozuvchining konseptosferasini ikkita xayoliy dunyodan iborat ekanligini ko‘ramiz, bunda tayanch bo‘lib muallifning leksik birliklar va badiiy ifoda vositalarida (lisoniy dunyo) o‘z aksini topgan g‘oyalari dunyosi xizmat qiladi.

I.A.Tarasova konsept atamasini “yozuvchi ijodining yagona matnida og‘zaki bayon qilingan individual ong birligi (bu konsept mazmunini ijodning bir davridan ikkinchisiga o‘tish imkoniyatini istisno etmaydi)” deb tushunadi [6: 56].

Rey Bredberi o‘z tadqiqotida dunyo manzarasining individual mualliflik rasmini yaratishning bir necha bosqichlarini taklif etadi. Unga ko‘ra birinchi bosqich atrofimizdagi dunyoni kuzatish va g‘ayrioddiy narsalarni izlashdan iborat. Muallif ijodiy g‘oyalarni izlash jarayonini hayvonlar hayotidan olingan lahzalar bilan taqqoslaydi. Shu tariqa u kuzatish sohasida kaltakesaklar va qushlarning hayotini, ularning tez harakat qilishi va ma’lum bir vaqtda harakatsiz qolish qobiliyatini kuzatishni namuna sifatida taklif qiladi. “Harakatsizlik zamirida fikr yotadi. Bu haqiqatga erishguningizga qadar o‘z uslubingizni takomillashtirish vaqti – buning uchun esa harakatsiz qolish ham yoki o‘zini o‘lganga solib yotish ham arziydi” [1].

Natijada kuzatish jarayonida birinchi poetik dunyo shakllana boshlaydi, unda g‘oyalar tug‘iladi va harakatsizlik jarayonida ular fikrlarga, metakonseptlarga aylanadi. Metakonsept deganda biz umumlashtirilgan tushunchalarni o‘z ichiga olgan lingvomental birlikni nazarda tutamiz. Yozuvchining kognitiv faoliyati jarayonida metakonseptlar transformatsiyaning bir necha bosqichlaridan o‘tadi va oxir-oqibat muallifning dunyo manzarasi konseptlarini shakllantiradi.

Tadqiqotchilar ijodiy shaxslarga xos bo‘lgan va bolalikdan mohirlik bilan qo‘llash qobiliyatini shakllantira boshlagan, keyinchalik yozuvchining o‘ziga xos idiouslubini tashkil etadigan genetik “ijodiy” xotira haqida gapiradi. Rey Bredberi atrofdagi dunyoni kuzatishdan tashqari yozuvchining mafkuraviy qiyofasini shakllantirishga metakonseptlardan iborat bo‘lgan so‘z va iboralar ro‘yxatini tuzish va shu orqali umumiy muallif konseptosferasini tashkil qiluvchi konseptlarni aniqlashga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. “Men qonuniyatlarni qog‘ozga bitilayotgan so‘zlarda ko‘rdim. Bu so‘zlarga qarab avvalgi qo‘rquvlarim va intilishlarimni esladim...” [1]. Masalan, muallifning kampir haqidagi metakonseptlaridan biri ikkita konseptga aylandi va natijada ikki xil hikoya yozish uchun asos bo‘ldi: “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bir kampir bo‘lgan ekan...” kabi metakonseptda bosh qahramon kampir o‘limni bo‘yniga olmaydi, uni inkor etadi va “kufr mavsumi”da bolalar keksa ayol ham qachonlardir bola bo‘lganligiga ishonmaydi.

Yana bir hikoya kasalxonaga tashrif buyurganidan keyin yozilgan va ishning metakonsepti davolovchi shifokor tomonidan aytilgan tashxis – “halqumning ochilishi”da mujassam bo‘ldi. Bu Bredberining o‘tmishdoshlari tomonidan yaratilgan asarlardan farqli o‘laroq, dahshatli hikoyalarni butunlay yangicha uslubda yozish uchun zamin yaratdi.

Yozuvchi ijodiy faoliyatining o‘ziga xosligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan yana bir majburiy komponenti bu – “ilhom parisi”. Ilhom – muallifning ong ostida joylashgan ichki kuch. Shu bois ushbu ichki kuch yozuvchini ijod qilishga undaydigan “ilhom”ni uning kreativ g‘oyalari va konseptlari manbayi degan xulosaga kelish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bu yozuvchi konseptosferasining markaziy yadrosi hisoblanadi, unda metakonseptlar tug‘iladi va aniq konseptlarga aylanadi. Rey Bredberiga ko‘ra kitob yozish san’atidagi eng qiyin narsa – “ilhom”ni saqlash. Muallifning fikricha, “ilhom” manbasini saqlab qolish uchun doimiy ijodkorlik zarur. “Ilhom o‘z shakllariga ega bo‘lishi kerak. Unga shakl berish uchun o‘n yoki yigirma yillar davomida kuniga mingtadan so‘z yozib, grammatika va sujet tamoyillarini o‘rganish lozim. Shunda u ong ostiga kirib, ijodkor ilhomini cheklamasdan yoki buzmasdan ijod sari yetaklaydi” [1].

Muallif idiouslubini shakllantirishning navbatdagi bosqichi bu aqliy dunyo, g‘oyalar dunyosining lisoniy dunyoga o‘tishi. Ushbu jarayon uchun, Bredberining fikricha, to‘g‘ridan to‘g‘ri amaliyot zarur: “Ijodkor yozuv mashinkasida ko‘p o‘ylanmasdan o‘tiradi va bor ilhomini qog‘ozga to‘kib-sochadi” [1]. Shu tariqa konseptlar moddiy shaklga – so‘z shakliga ega bo‘ladi. Natijada ikkinchi poetik dunyo vujudga keladi. Konseptlarning verbalizatsiyasi, asosan, yozuvchining idiouslubini belgilaydi. Ushbu jarayon davomida stilistik va lisoniy vositalar tanlanadi, buning natijasida kelajakda u yoki bu muallifni aniqlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Брэдбери Р. Дзен в искусстве написания книг. – Москва: Эксмо, 2020. – 192 с.
2. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е. – Москва: Изд-во ЛКИ, 2010. – 264 с.
3. Леденёва В.В. Идиостиль (к уточнению понятия) // Филологические науки, 2001, №5. – С. 36–41.
4. Наумов В.В. Лингвистическая идентификация личности. – Москва: ЛИБРОКОМ, 2010. – 240 с.
5. Эффективная коммуникация: история, теория, практика: словарь-справочник / отв. ред. Панов М.И.; сост. Панов М.И., Тумина Л.Е. – Москва: ООО «Агентство КРПА Олимп», 2005. – 959 с.
6. Тарасова И.А. Поэтический идиостиль в когнитивном аспекте. (На материале поэзии Г.Иванова и И.Анненского). Дис. ... докт. филол. наук. – Саратов, 2004. – 483 с.
7. Turdiyeva N.Y., Qaxxorova M.Q. Muallif idiolektining ekstralingvistik xususiyatlari. // International scientific and practical conference, 2024. – B. 532–534.
8. Turdiyeva N.Y., Davirov N.Sh. Idiolekt va idiouslub muallif shaxsining lisoniy ko‘rinishi sifatida // Conference, 2023. – B. 38–41.

Oybek TOSHMATOV,
Tashkent State University of Law,
Head of Foreign Languages Department

THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT EDUCATION AND THE ROLE OF MOBILE EDUCATIONAL APPLICATIONS IN TEACHING LEGAL ENGLISH IN UZBEKISTAN

Annotatsiya. *Mazkur maqola mustaqil ta'limning ahamiyatini yoritgan holda O'zbekistonda yuridik ingliz tilini o'qitishda mobil dasturlarning roli va ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *mobil ta'lim, yuridik ingliz tili, mustaqil ta'lim, raqamli ta'lim texnologiyalari.*

Annotation. *This article explores the importance of independent education and emphasizes the role of mobile applications in teaching legal English in Uzbekistan.*

Keywords: *mobile education, legal English, independent education, digital education technology.*

Аннотация. *В статье рассматривается важность самостоятельного образования и подчеркивается роль мобильных приложений в преподавании юридического английского в Узбекистане.*

Ключевые слова: *мобильное обучение, юридический английский, самостоятельное обучение, цифровые образовательные инструменты.*

The shift towards independent education is becoming increasingly significant in modern educational practices, particularly in the context of legal education. In Uzbekistan, mobile educational applications offer a practical solution for language learning, especially in Legal English, which is a specialized field for law students aiming to engage with international legal standards and practices. Independent education empowers students by encouraging self-directed learning beyond the constraints of traditional classrooms.

Mobile applications, such as BBC Learning English and British Council's MyWordBook, provide students with tailored resources that facilitate grammar, pronunciation and vocabulary building. This flexibility is especially crucial in Uzbekistan, where infrastructure challenges and the digital divide affect access to high-quality education across regions. The government's recent focus on digitalization – through initiatives like the "Digital Uzbekistan 2030 Strategy" – further supports the integration of mobile learning technologies into higher education (EUA, 2021).

The research employs a mixed-method approach, combining qualitative and quantitative data. Surveys were distributed among students at Tashkent State University of Law and other law faculties to assess their usage of mobile applications for independent education. The survey explored key indicators such as app usability, student engagement, and improvements in Legal English proficiency. Quantitative data were analyzed using bar charts, comparing responses across different demographic groups. The qualitative analysis focused on challenges such as technical difficulties and varying levels of digital literacy among students.

Research on mobile learning and its role in independent education has seen substantial growth globally and in Uzbekistan. Uzbek scholars, in conjunction with international research efforts, have examined how mobile applications facilitate foreign language acquisition, with a focus on their use in Legal English education. Uzbekistan's educational reforms underscore the importance of integrating modern technologies into the teaching process, especially for foreign languages. The establishment of the Republican Scientific and Practical Centre at the Uzbek State University of World Languages reflects the government's commitment to innovative education techniques. This center plays a pivotal role in developing and implementing new methods for teaching English across various educational levels.

Globally, research demonstrates that mobile apps significantly enhance students' independent learning by allowing flexibility and customization in educational activities. Apps like BBC Learning English and Duolingo have proven to be effective in improving students' language skills through gamified and engaging content (Klimova & Poulova, 2016). This trend extends to Uzbekistan, where law students increasingly rely on mobile platforms for developing vocabulary, grammar and communication skills. Research by Abdullaev and Isanova highlights that mobile apps promote self-paced learning and allow students to practise language skills beyond the classroom. Their studies emphasize that legal English, in particular, benefits from mobile resources that provide specialized content tailored to legal terminology and practice (IDPublications, 2019).

The survey was conducted to analyze the effectiveness, usage frequency and challenges associated with mobile educational applications among students in law faculties, including those from Tashkent State University of Law. The goal of the study was to understand how students leverage mobile applications for independent learning in Legal English and identify key barriers they encounter. Below, in the table, there is an in-depth analysis of the results reflected

in the visualized survey data. The bar chart on the upper-left of the image highlights the frequency with which students use mobile applications for self-study.

• 30% of respondents indicated that they use mobile applications **weekly**.

• **Daily users** accounted for around 20%, showing a substantial group committed to regular engagement with these tools.


• Around 25% of students reported using apps on a **monthly** basis, while 15% use them only **rarely**.

• **10% of respondents** mentioned they never engage with educational apps for self-study.

• A large portion of respondents (40%) found the applications to be **effective**, and 35% rated them as **very effective**.

• **15% of students** were **neutral**, neither satisfied nor dissatisfied with the role of mobile apps.

The research highlights the growing importance of mobile educational applications in fostering independent education, particularly in teaching Legal English within Uzbekistan's evolving educational landscape. The study underscores that mobile apps, such as Quizlet, Duolingo and British Council resources, provide flexible, interactive and feedback-rich environments that law students find engaging. Survey results show that students benefit most from features like interactive exercises and real-time feedback, which foster deeper learning and autonomy. However, barriers such as distractions, lack of motivation, technological limitations and content deficiencies must be addressed to maximize the effectiveness of these tools.



The success of mobile learning hinges on careful integration into academic programs, ensuring alignment with institutional goals and frameworks like the CEFR. Faculty members and students must receive continuous support to adapt to these technologies effectively.

References

1. British Council. (2020). Development of Curriculum Delivery Strategy for English Education in Uzbekistan. Retrieved from https://www.britishcouncil.uz

2. EUA. (2021). Digital learning in Uzbekistan: Challenges and lessons learnt. European University Association. Retrieved from https://eua.eu

3. Klimova B., Poulova P. Mobile learning in higher education // Advanced Science Letters, 2016, 22(5/6), 1111-1114.

4. IDPublications. (2019). Mobile apps for learning English as a means of organizing independent work of students. Retrieved from https://www.idpublications.org

5. Abdullaev Z.K., Isanova V. Developing Uzbek student-teachers' proficiency in speaking English at the university level // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020, 8(10), 183-189.

6. Moluch.ru. (2020). The role of teaching English in the modernization of education in Uzbekistan. Retrieved from https://www.moluch.ru

Aziza MUMINOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti (DSc)

UMUMTILSHUNOSLIKDA PERFEKT ZAMON SHAKLINING TEMPORAL, ASPEKTUAL SEMANTIKASI

Annotatsiya. *Maqolada umumtilshunoslikning grammatika sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ayniqsa, hind-yevropa tillari oilasiga mansub tillarga xos o'tgan zamonni ifodalovchi shakl – perfektning kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari borasidagi jahon tilshunos olimlarining xilma-xil fikrlari va qarashlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *fe'l, o'tgan zamon, preterit, perfekt, pluskamperfekt, harakat, zamon shakli, konstruksiya, perfektiv, rezultativ, narrativ.*

Annotation. *This article analyses the diverse opinions and views of linguists worldwide on the historical origins and developmental stages of the past tense form particularly significant in general linguistic grammar, notably within Indo-European languages.*

Keywords: *verb, past tense, preterite, perfect, pluskamperfect, action, tense, construction, perfective, resultative, narrative.*

Аннотация. *В статье излагаются различные мнения и взгляды мировых лингвистов относительно истории возникновения, этапов развития прошедшего времени, что важно для области грамматики общего языкознания и считается особенно характерным для языков, принадлежащих к индоевропейской семье языков.*

Ключевые слова: *глагол, прошедшее время, претерит, перфект, плюскамперфект, действие, время, конструкция, перфектив, результатив, нарратив.*

Jahon tilshunosligida fe'l so'z turkumi o'z ahamiyati, dolzarbligini yo'qotmaydigan eng muhim va bahsli masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur so'z turkumiga oid muammolarning mohiyatini har tomonlama to'la bayon etish, ularning kelib chiqish asosi va o'ziga aloqador hodisalarga munosabatini o'rganish muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi. Fe'l – hozirgi kunga qadar tilshunoslik turli yo'nalishlarining o'rganish obyekti bo'lib xizmat qilgan bo'lsa-da, ammo hanuzgacha uning tadqiq etilmagan jihatlari saqlanib qolmoqda. Jumladan, fe'l so'z turkumiga oid o'tgan zamonni ifodalovchi shakllardan biri – perfekt bo'lib, u, asosan, hind-yevropa tillariga xos grammatik shakldir. Mazkur maqolada perfektning temporal va aspektual semantikasini tadqiq etishni maqsad qilganmiz. Zero, ushbu masala o'zbek tilshunosligida maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Perfekt – zamon shaklining grammatik ma'nosi 1980-yillardan boshlab tipologik tadqiqotlarning predmeti sifatida o'rganila boshlangan. U dastlab B.Anderson tomonidan semantik jihatdan tadqiq etilgan. Yevropa olimlaridan B.Drinkaga ko'ra "perfektning "ega bo'lmoq + sifatdosh" shakli, lotin tilidan kalkalangan oddiy o'tgan zamon shakli o'rniga analitik shakl – perfekt kirib kelib, umumyevropa tillariga keng tarqalishi fransuz tilining shimoliy lahjasiga borib taqaladi" [2: 1–38]. A.Arno va K.Lanslolar fikricha, fransuz tilidagi analitik qurilmalar german tillaridan kelib chiqqan [6: 190]. Fransuz tilida perfekt "Passe compose" deb atalib, L.Fulle uning ikki ma'noga egaligini ta'kidlaydi. Mazkur shakl bir vaqtning o'zida perfekt sifatida o'tgan zamonda sodir bo'lgan harakatning hozirgi zamonga tegishli bo'lgan natijasini, shuningdek, preterit sifatida o'tgan zamondagi, shu bilan birga hozirgi zamonga juda yaqin bo'lgan harakatni ifodalaydi [3: 203–252].

Qadimgi rus tilida perfekt – o'tgan zamonda sodir bo'lib tugallangan, ammo hozirgi zamon bilan bog'liq harakatni ifodalash uchun qo'llangan. XVI asrdan boshlab uning qo'llanish doirasi kengayib, yozuv uslubida faol ishlatilgan. Shuningdek, u aorist va imperfekt semantikasiga ham ega bo'lgan. Perfekt termini etimologiyasiga nazar tashlansa, tilshunoslikda uning eng ko'p tarqalgan shakli "perfekt" bo'lib, u ingliz tilida "Perfect" yoki "Present Perfect", zamonaviy ingliz tilidagi adabiyotlarda "anterior" terminlari bilan ataladi [1: 51–105]. Ingliz tilida perfekt dastlab narrativ hodisalarni ifodalashda preterit bilan variativ sifatida qo'llangan [7: 100]. Narrativ perfekt o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u Present Perfekt xususiyatini o'zida ifodalamaydi, shunchaki hozirgi zamon momentigacha sodir bo'lgan hodisani aks ettiradi. Narrativ perfekt uchun aniq nutq momenti xos emas, shuning uchun u o'tmishga tegishli. Narrativlik tushunchasi perfekt zamon shakli bilan chambarchas bog'liq. Ba'zi narrativ matnlarda voqea-hodisalar xronologik tartibda sodir bo'lishi ham mumkin.

Ayrim adabiyotlarda "perfekt" atamasi o'rniga "rezultativ" termini qo'llanadi. Ammo perfekt va rezultativ aynan bir semantikani ifodalamaydi. Shuning uchun A.A.Xolodovich, V.P.Nedyalkov, Y.S.Maslov tadqiqotlarida perfekt va rezultativ diaxron jihatdan o'zaro bog'liq, lekin turli xil semantik va grammatik hodisa ekani asoslangan. Qadimgi udin tili yozma yodgorliklariga oid matnlarda perfekt shaklining uchramasligi bu shaklning boshqalariga nisbatan ancha keyin paydo bo'lganini bildiradi. Shunga ko'ra perfektning grammatikalashuvini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: "REZULTATIV > PERFEKT > PERFEKTIV" [1: 3]. Rezultativ, perfekt, aorist kabi fe'liy ko'rsatkichlar jahon tilshunosligida kvazisinonimlar sifatida yuritiladi.

Biroq D.V.Sichinava rezultativ va perfekt sinonim emasligi, ular qo'llanilish jihatidan o'zaro kesishuvchan shakllar ekanini qayd etgan. V.A.Plungyanning fikricha, perfekt – harakatning natijasi bo'lgan va harakatning paytiga tegishli holatni bildiradi, shuningdek, perfekt – grammatikalashgan rezultativ bo'lib, u chegaralangan protessning aktional sinfi bilan moslashib, o'zining tugal nuqtasiga yetgan harakatni ifodalaydi. Olimning yozishicha, rezultativ – chegaralangan protessning tabiiy natijasidir [12: 387]. Y.S.Maslovga ko'ra rezultativ – perfektning muhim asosidir [9: 46]. Zamonaviy grammatik adabiyotlarda perfekt semantikasini aniqlashda rezultativ tushunchasiga tayaniladi hamda ularning ma'nosi bir-biriga bog'liq deb qaraladi. Shu jihatdan rezultativ perfektning ajralmas bo'lagidir. Bu qarash, ayniqsa, yevropa tillarida ko'proq kuzatiladi.

Rezultativ termini zamonaviy tilshunoslikka 1970-yillarda V.P.Nedyalkov, E.Koseriu (bir vaqtning o'zida, bir-biriga aloqasi bo'lmagan holda) tomonidan kiritilgan. Rezultativ va perfektning o'zaro tipologik farqi dastavval V.P.Nedyalkov ishida ko'rsatib berilgan. Olim rezultativga quyidagicha ta'rif bergan: "Rezultativ predmet holatini bildiruvchi shakl bo'lib, u sodir bo'lgan harakatga ko'rsatmadir [10: 5–41]. Rezultativ o'tgan zamonda bo'lib o'tgan harakat holatini ifodalaydi. Rezultativ har qanday fe'l bilan emas, balki holat o'zgarishini bildiruvchi (*садиться, вешать, ломать*) fe'llar bilan qo'llanadi va chegaralangan fe'llarning natijaviy ma'nosini anglatadi [11: 55–56]. Rezultativ harakatning holatini ifodalab kelishi Y.S.Maslovning quyidagi misolida o'z aksini topgan: *Магазин был открыт в восемь часов. (В восемь часов магазин находился в открытом состоянии)* [9: 49]. Misoldan ko'rinib turibdiki, rezultativ perfekt orqali shakllangan harakatning holatini ko'rsatmoqda.

Perfekt – o'tgan zamonni umumiy natijaga birlashuvchi hozirgi va kelasi zamon bilan bog'lovchi ko'prik bo'lib, o'tgan zamonda boshlangan harakatning hozirgi zamonda davom etayotgani va kelasi zamonga yo'naltirilganini bildiradi. Rus olimi V.A.Plungyan perfektni aspektual kategoriyalardan biri sifatida ta'riflab, o'z tadqiqotida uning uch turini farqlaydi:

1. Kengaytirilgan perfekt, asosan, yevropa tillariga xos bo'lib, german, roman, slavyan tillarida mavjud.

2. Ixtisoslashgan perfekt Kavkaz, Janubiy Osiyo, Janubiy Sibir, Boltiqbo'yi tillariga xos.

3. Kuchsiz perfekt yangi yunon tilida uchraydi [13: 21–23].

D.V.Sichinavaning fikricha, perfektga xos bo'lgan eng muhim jihat bu uning o'tgan zamondagi harakatning nutq momentigacha sodir bo'lganini ifodalashidir. Ba'zi tillarda bundan tashqari, perfekt fe'lning aspektga oid (tugallanganlik/tugallanmaganlik) oppozitsiyasini ham o'zida mujassam etadi. Ya'ni u nafaqat o'tgan zamondagi harakatni, shuningdek, "perfektiv" deb atalgan tugallangan ko'rinishni ham ifodalaydi. Perfektiv (tugallangan ko'rinish), avvalo, zamon emas, aspektual ma'no ko'rsatkichidir [15: 183]. Zamonaviy tilshunoslikda perfektivlik kategoriyasi masalasiga nisbatan turli qarashlar va yondashuvlar mavjud. Ba'zi tadqiqotlarda perfektivlik – aspektual semantik kategoriya sifatida qaralsa, boshqa mualliflar uni temporal xarakterga ega bo'lgan leksik-grammatik hodisa hisoblashadi. Yana bir guruh olimlar esa uni "taksis" xususiyatiga ega kategoriya sifatida baholashmoqda.

Perfektivlik kategoriyasining semantikasi bir qancha komponentlardan iborat. Jumladan, oldingi harakatning tugallangani, ya'ni fe'l leksemasi orqali ifodalangan harakatning o'z chegarasiga yetgani perfektivlikning asosiy belgisi hisoblanadi. Shu sababli ham "tugallanganlik" va "perfektivlik" ko'pgina ishlarda sinonim sifatida qo'llanadi. Perfektivlik semantikasining yana bir komponenti bu tugallangan harakatning rezultativligidir. Rezultativlik – muayyan bir jarayon yoki harakatning natijasi. Perfektivlik semantikasining keyingi komponenti holat bo'lib, u perfektivlik kategoriyasining alohida va mustaqil komponenti sanaladi. Chunki perfektivlik kategoriyasining semantikasini aniqlashda tugallangan harakatning rezultativligi bilan birga so'zlovchi yoki harakatning holati ham muhim. Holat tilshunoslikdagi universal lisoniy kategoriya hisoblanadi. Bizningcha, perfektivlik – aspektual semantik kategoriya, chunki perfektivlik deganda harakatning tugallangani yoki uning oxirgi nuqtaga borib yetgani ma'nolari tushuniladi.

Ingliz tilidagi perfektivlik semantikasini tadqiq etgan A.G.Rijkova perfektivlikni aspektual kategoriya hamda perfektning semantik mazmuni sifatida qayd etadi. Muallif Y.S.Maslov, A.V.Bondarko, D.A.Shteling va boshqa tilshunoslar fikriga qo'shilgani holda perfektivlik deganda aspektuallik doirasidagi bir predikativ birlikning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ikki temporal ma'no (предшествующий/последующий)ni o'zida mujassam etgan semantik kategoriyasini tushunadi. Olimaning fikricha, perfekt – zamon kategoriyasi va uning tilda o'z aksini topadigan uch asosiy xususiyatlari – aspektuallik, temporallik, taksis bilan bog'liq. Temporallik va taksis – harakat oqimining zamon o'qi bo'yicha joylashuvini ifodalasa, aspektuallik – harakatning zamon intervalidagi tarqalish xususiyatini aks ettiradi [14: 14–15]. O.A.Xadarsev perfektivlik deganda nafaqat harakatning tugallanganligi yoki o'z nihoyasiga yetganligini, balki bu tushuncha o'z ichiga kompletiv va limitativni ham qamrab olishini ta'kidlaydi. Kompletiv – harakat yoki vaziyatning o'z ichki yoki tabiiy chegarasiga borib yetganligi/yetmaganligi; limitativlik – vaziyatning vaqtiy chegarasi. Olim fors tilidagi perfektiv shakllarning quyidagi turlarini ajratgan:

1) простой перфектив – oddiy perfektiv;

2) длительный перфектив – davomli perfektiv;

3) преждепрошедший перфектив – avvalgi (o'tgan yoki tugallangan) perfektiv;

4) preogressiv.

Muallifning ta'kidlashicha, fors tilidagi perfektiv bir qancha ma'nolarga ega. Jumladan, rezultativ perfektivni fors tilidagi istalgan fe'ldan yasash mumkin. U o'tgan zamonga tegishli bo'lgan harakatning natijasi hozirgi zamonga tegishliligini ko'rsatadi. Shuningdek, statal va aktional perfektiv ham mavjud bo'lib, statal perfektiv deganda holat fe'llari yordamida yasalgan perfektiv tushuniladi*: nesastan – сидеть (садиться), xabidan – лежать (ложиться)* [16: 6–13].

Mayalar tilini tadqiq qilgan I.A.Vinogradov mazkur tildagi perfektivning asosiy ma'nosi – oniy, ya'ni davomiylik ma'nosiga ega bo'lmagan hodisa ekanini ta'kidlaydi. Olim o'z fikrini quyidagi misol orqali asoslaydi: *Тогда рыбы окружили человека* (букв. "собрались там, где был человек") *и утащили* (букв. "позвали") *его на дно реки; Когда они пришли, они надели купальные костюмы.* Muallifning qayd etishicha, bunda eng muhim nuqta – nutq momenti. Shuning uchun bu tildagi perfektiv bir vaqtning o'zida ham aspektual, ham taksis ma'nolarini birlashtiradi [8: 79–80].

Tilshunoslarning fikricha, ko'pgina tillarda perfektning o'ziga xos ko'rsatkichlaridan biri uning aniq paytni ko'rsatuvchi hol bilan qo'llanishidir: *It's just been announced* ***five minutes ago*** *– Bu haqida* ***besh daqiqa ilgari*** *e'lon qilingan edi* [4: 229]. Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, payt hollari perfektga xos. Umumtilshunoslikda ko'plab tillarda perfekt aynan payt holi hamda ravish bilan qo'llanishi qator tilshunoslar tomonidan qayd etilgan. Chunki bunday konkretizatorlar perfekt zamon shaklida ifodalangan harakatning temporal semantikasini yanada kuchaytiradi.

Yevropa tillarida perfekt (Present Perfect) britan adabiy tili varianti bo'lib, amerika-ingliz tilida perfektning o'rniga oddiy o'tgan zamon (Past Indefinite) ni qo'llash tendensiyasi paydo bo'lmoqda [4: 246]. Zamonaviy afroamerika tilshunosligida bu jarayon o'z yakuniga yetdi, ya'ni ular barcha perfektli kontekstda *-ed* preteritli shaklni qo'llashmoqda. Shuningdek, perfektga oid barcha nazariyalarga birday javob bo'ladigan yangi *done* + preterit (*done ate – yeb bo'ldi*) shakli o'rniga qabul qilindi [5: 354–364].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, perfekt – o'tgan zamonni ifodalovchi boshqa shakllar orasida navqiron sanalib, u nutq momentigacha sodir bo'lgan voqea-hodisa yoki harakatni aks etadi. Perfekt – rezultativ, perfektivlik, narrativlik terminlari bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, har bir termin o'z mazmun mohiyatiga ega. Jumladan, rezultativ – perfektning asosidan kelib chiqib, harakatning natijasini ko'rsatsa, narrativlik – o'tmishda sodir bo'lgan va muayyan ketma-ketlikka ega bo'lgan voqea-hodisani ifodalaydi. Perfektivlik esa aspektuallikka oid bo'lib, u harakat yoki hodisani tugallanganini bildiradi. Sanab o'tilgan ushbu tushunchalar perfekt zamon shakli bilan birgalikda qo'llanib, uning semantikasini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bybee J., Perkins R., Pagliuca W. The evolution of grammar: Tense, aspect and modality in the languages of the world. Chicago: The University of Chicago Press, 1994.
2. Drinka B. Areal factors in the development of the European periphrastic perfect. Word 54.1, 2003. P. 1–38.
3. Foulet, L. Le développement des formes surcomposées // Romania: 1925. 203–252.
4. Miller J (2004b). Perfect and resultative constructions in spoken and non-standard English. In Fischer O., Norde M., Perridon, H. (eds.) Up and Down the Cline The Nature of Grammaticalization, Amsterdam: Benjamins J, 229–246, 2004.
5. Terry J. M. 2001. The Simple Past and Present Perfect in African-American English // Perspectives on Aspect, Utrecht December 12–14, 2001.
6. Арно А., Лансло К. Грамматика общая и рациональная Пор-Рояля. – Москва, 1990.
7. Бондарь В.А. Семантика перфекта в ранненововерхненемецком: к вопросу о нарративном перфекте // Индоевропейское языкознание и классическая филология. – Санкт-Петербург, 2022, №26-1. – С. 94–111.
8. Виноградов И.А. Семантические грамматические категории глагола в языках майя: сравнительный и топологический анализ. Дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2013. – 403 с.
9. Маслов Ю.С. Результатив, перфект и глагольный вид // Типология результативных конструкций (результатив, статив, пассив, перфект) / Отв. ред. Недялков В.П. – Ленинград: Наука, 1983. – С. 41–54.
10. Недялков В.П., Яхонтов С.Е. Типология результативных конструкций // Типология результативных конструкций (результатив, статив, пассив, перфект) / Отв. ред. Недялков В.П. – Ленинград: Наука, 1983. – С. 5–41.
11. Петрухина Е.В. Аспектуальные категории глагола в русском языке в сопоставлении с чешским, словацким и болгарским языками. – Москва: Изд-во Мос. ун-та, 2000.
12. Плунгян В.А. Введение в грамматическую семантику: грамматические значения и грамматические системы языков мира. – Москва: Изд-во РГГУ, 2011.
13. Плунгян В.А. К типологии перфекта в языках мира (предисловие) // Труды института лингвистических исследований РАН, т. XII, ч. 2, выпуск 7. – Санкт-Петербург: Наука, 2016. – С. 7–36.
14. Рыжкова А.Г. Семантика английских глаголов изменения и перфектность. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2013. – 23 с.
15. Сичинава Д.В. Типология глагольных систем с синонимией базовых элементов парадигмы. Дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2005. – 444 с.
16. Хадарцев О.А. Перфект и претерит в современном персидском языке в типологическом освещении. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2002. – 23 с.

Dilobarxon AZIMOVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti doktoranti

TILDA TOVUSHLARNING HOSIL BO'LISHI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola tilda unli va undosh tovushlarning vujudga kelishi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *unli tovush, undosh tovush, nomema, bir bo'g'inli so'zlar, ko'p bo'g'inli so'zlar, urg'u, bo'g'in, sonorlik, jaranglilik, jarangsizlik.*

Annotation. *This article is devoted to the study of the formation of vowels and consonants in the language and their peculiarities.*

Keywords: *vowel, consonant, nomeme, monosyllabic words, polysyllabic words, stress, syllable, sonority, unsonority.*

Аннотация. *Данная статья посвящена образованию гласных и согласных звуков в языке и их характеристике.*

Ключевые слова: *гласный, согласный, номема, односложные, многосложные слова, ударение, слог, сонорность, звонкость, глухость.*

Ma'lumki, qadimda dastlabki odamlar borliqdagi biror predmet yoki hodisani ko'rsatish, ifodalash uchun muayyan tovush (shovqin) yoki tovushlar kompleksidan foydalangan. Deylik, tog'ni ko'rsatish, ifodalash uchun *"O'o'!"* tovushi qo'llangan. Bu tovush o'sha davrda dastlab so'z-gapga teng bo'lgan. Zero, u tog' haqidagi xabar (tasdiq, predikatsiya)ni ifodalagan. Shu tariqa *"O'o'!"* odam xotirasida tog' haqidagi tushunchaning shartli belgisi sifatida saqlanib qolgan. Boshqacha aytganda, "*O'o'*!" jumlasidan (gapidan) *"o'o'"* so'zi vujudga kelgan: "O'o'!" → "o'o'". Keyingi safar yana tog' haqidagi fikrni ifodalash ehtiyoji tug'ilganda xotiradagi abstrakt birlik *"o'o'"* so'zi *"O'o'!"* gapiga (jumlaga) aylantirila boshlagan [3: 24–28].

So'zning tovush tomoni (ifodalovchisi, nomemasi) haqida gap ketar ekan, albatta, uning oddiydan murakkabga tomon hosil qilingan fonetik-fonologik qurilma ekanini sezish qiyin emas. Oddiy mantiqiy asosga ko'ra so'zning ifoda tomoni dastlab bir tovushdan, so'ng ikki, undan keyin uch tovushdan hosil bo'lib borgan. Nomema bir yoki ikki tovushdan iborat bo'lganda uni talaffuz etish qiyin bo'lmagan. Ammo uch, to'rt tovushdan tashkil topganda uni aytishda qiyinchiliklar yuzaga kela boshlagan. Masalan, kommunikatsiya jarayonida *ona* so'zi tarkibidagi har bir tovushni alohida-alohida aytish nisbatan qiyin va ko'p vaqtni oladi. Bu esa uni ikkiga, ya'ni *o-na* tarzida aytishga olib kelgan. Shu asosda nomema yoki ifodalovchi strukturasini bo'g'inlarga ajratish yuzaga kelgan [3: 21–25].

Ko'p bo'g'inli so'zlarni aniqroq talaffuz etish ehtiyoji esa urg'u hodisasini shakllantirgan. Zero, bo'g'inlarni bir xil ohangda (tonda) aytish, birinchidan, tinglovchi hissiy qabulida bir xillik (monotonlik) ni paydo qilib, diqqatni sustlashtirib yuborsa, ikkinchi tarafdan, ayrim bo'g'inlarning noaniq aytilishiga sabab bo'ladi. Bo'g'inlardan birining ajratilishi boshqa bo'g'inlarning ham birin-ketin, bosqichli ajralishiga asos bo'lgan. Shu yo'l bilan so'zda birinchi, ikkinchi, uchinchi kabi darajali urg'ular tug'ilgan. Bular, o'z navbatida, har bir ajratilgan bo'g'inning aniq talaffuzi, eshitilishi uchun zamin yaratgan. Demak, bo'g'in va urg'u kabi fonetik hodisalar nutqda so'zni akustik belgi sifatida aniq aytish va eshitish ehtiyojlari asosida vujudga kelgan [1: 14–18].

So'z ifodalovchi (nomema)sining hosil qilinishida unli va undosh tovushlarning o'ziga xos o'rni, vazifasi bor [6: 22–26]. Unli (un, ovoz) tovushlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular talaffuzda cho'ziqlik, qisqalik, ingichkalik, yo'g'onlik, balandlik, pastlik, ohang jihatdan tovlanish kabi xususiyatlarga ega. Bular nomemalarga rang-barang akustik belgilar bo'lib qo'llanish, shu asosda asosiy va qo'shimcha ma'nolar (xabarlar) ifodalash imkoniyatlarini bergan. Shuningdek, unli tovushlarning ma'no (xabar)ni uzoqroqqa yetkazish (cho'zilish xususiyati asosida), estetik (yoqimli-yoqimsizlik) xususiyatini shakllantirish kabi jihatlari ham bor. Buni o'zbek adabiy tilidagi [E] tovushi misolida ko'rib chiqaylik. Bunda uning fonetik, semantik, semiotik jihatlariga diqqat qilamiz.

Avvalo shuni aytish kerakki, sof undov so'z tovush tomonining bir [E] unlidan iboratligi, uning qisqaruvchan-cho'ziluvchan (elastik)likka ega bo'lishi muayyan his-tuyg'uning turli darajalarini o'zining xilma-xil miqdoriy o'zgarishlarida ko'rsata olishi, situatsiyalarga xoslanib, har xil hislarni ifodalay olishiga asos bo'ladi. Quyida [E] shartli belgisi yoki tovushining his-tuyg'ularni ifodalashdagi ko'rinishlari yoki fonetik shakllarini keltirib o'tamiz:

1) qattiq, yuqori darajada cho'ziq talaffuz etiladi va jahl qilish hissini ifodalaydi: *E… musulmonmisiz o'zi?* (Ne'mat Aminov, "Qahqaha"). So'zlashuv nutqida buning eng yuqori darajasini uchratish mumkin: *Siz ham biz bilan ishlar ekansiz. – E!... Esini yeganmi u!* kabi;

2) qattiq, o'rta darajada cho'ziq talaffuz etiladi va jerkish hissini ifodalaydi: *E, bor! – Bashirjon uning shlapaga uzatilgan qo'lini itarib tashladi. –*

Shundan boshqa gaping yo‘qmi? (Ne’mat Aminov, “Qahqaha”);

3) qattiqligi kamroq, cho‘ziqroq talaffuz etiladi va xijolat hissini ifodalaydi: *E, ovora bo‘lishning hojati yo‘q edi-ku, dedi shoir xijolat bo‘lib.* (Abdulla Qahhor, “Kartina”);

4) qattiq, qisqa talaffuz etiladi va idiomada ifodalangan salbiy hisni yanada kuchaytiradi: *E, ol-a! O‘zing ham ja tajangsan-da! Yosh bo‘lgisi kelsa, nima qilsin bu sho‘rlik…* (O‘tkir Hoshimov, “Nega? Nega-a-a?!”);

5) yumshoqroq, cho‘ziq talaffuz etiladi va tasalli berish hissini ifodalaydi: *E, odamning tushiga nimalar kirmaydi?* (O‘tkir Hoshimov, “Nega? Nega-a-a?!”);

6) qisqa, yumshoqroq talaffuz etiladi va taklifga xos bo‘lgan hisni ifodalaydi: *E, e, keling, o‘rtoq Umarov! – dedi Shamsi To‘rayevich o‘rnidan arang qo‘zg‘alib, – Qani marhamat!* (Ne’mat Aminov, “Qahqaha”).

Yuqoridagilar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida *E* undov so‘zi tovush tomonining his (emotsiya) ifodalash imkoniyati nihoyatda rang-barang [4: 3–6].

Ma’lumki, turli tillarda unlilarning miqdori har xil [5: 32–34]. Albatta, unlilarning oz yoki ko‘p bo‘lishi har bir til nomemalar tizimining o‘ziga xosligini keltirib chiqaradi. Agar unlilar oz bo‘lsa, ularning vazifalarini unlilarga yaqin bo‘lgan ovozdor (sonor) tovushlar bajaradi. Unli tovushlarning har bir tildagi nomemalar yasalishidagi ishtiroki, vazifasini o‘rganish milliy tilshunoslikning dolzarb muammosidir. Bunda har bir unli tovush (fonema)ning nomemalar tarkibidagi funksional qiymatlarini aniqlash talab etiladi [1: 16–18]. So‘z ifodalovchisi yoki nomemasi yasalishining eng muhim qurilish materiali bu undosh tovushlardir.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, yangidan yangi tushuncha (ma’no)larning uzluksiz ravishda ko‘payib borishi kishilardan boshqa turdagi tovushlarni ham vujudga keltirish zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa odamlardan unli tovushlar hosil qilinadigan bo‘g‘iz, tomoq, og‘iz bo‘shlig‘idan boshqa artikulyatsiya o‘rinlarini ishga solish, shuningdek, nutq a’zolari yordamida turli-tuman to‘siqlar hosil qilish, har bir nutq a’zosi holatidan ko‘proq foydalanish kabi usullar topishni taqozo etar edi. Ana shunga javoban bo‘g‘iz, til, lab, burun kabi o‘rinlardan foydalanish, tilni qattiq, yumshoq tanglaylarga, tishga tekkizish (jipslash) kabi usullar yordamida katta miqdordagi undosh tovushlar hosil qilindi.

> UNLI (UN, OVOZ) TOVUSHLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI SHUNDAKI, ULAR TALAFFUZDA CHO‘ZIQLIK, QISQALIK, INGICHKALIK, YO‘G‘ONLIK, BALANDLIK, PASTLIK, OHANG JIHATDAN TOVLANISH KABI XUSUSIYATLARGA EGA. BULAR NOMEMALARGA RANG-BARANG AKUSTIK BELGILAR BO‘LIB QO‘LLANISH VA SHU ASOSDA ASOSIY VA QO‘SHIMCHA MA’NOLAR (XABARLAR) IFODALASH IMKONIYATLARINI BERGAN. SHUNINGDEK, UNLI TOVUSHLARNING MA’NO (XABAR)NI UZOQROQQA YETKAZISH (CHO‘ZILISH XUSUSIYATI ASOSIDA), ESTETIK (YOQIMLI-YOQIMSIZLIK) XUSUSIYATINI SHAKLLANTIRISH KABI JIHATLARI HAM BOR. BUNI O‘ZBEK ADABIY TILIDAGI [E] TOVUSHI MISOLIDA KO‘RIB CHIQAYLIK. BUNDA UNING FONETIK, SEMANTIK, SEMIOTIK JIHATLARIGA DIQQAT QILAMIZ.

Har bir milliy til, xususan, o‘zbek tili so‘zlari ifodalovchi (nomema)larining tuzilish xususiyatlarini o‘rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Zero, bundan avvalo fonetika va fonologiya katta foyda ko‘radi, sababi belgi maqomidagi nomemalar tizimini o‘rganish davomida o‘zbek tili, xususan, adabiy tilimizdagi so‘zlarning fonematik strukturasi to‘liq tadqiq etiladi. Bunda mavjud so‘zlarimizdan har birining necha fonemadan iboratligi, har bir fonemaning qaysi pozitsiyalarda necha marta qo‘llanilgani, fonologik kuchli-kuchsiz o‘rinlar, fonemaning shu asosdagi fonologik qiymatlari aniqlanadi. Ikkinchi tomondan, bir tovushli, ikki tovushli, uch tovushli kabi nomemalar aniqlanib, bu nomemalarning belgi sifatida nutqiy qo‘llanishidagi akustik xususiyatlari, o‘z ifodalanmishiga munosabatlari belgilanadi. Bu tarzdagi tadqiqotlarning nafaqat fonologiya-fonetika, belgishunoslik, balki so‘zlarni kompyuterlashtirish uchun ham ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуазизов А.А. Сопоставительный анализ гласных фонем английского и узбекского языков: На основе рентгеногр. и фотогр. данных. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1967.
2. Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. – Toshkent: Fan, 1995. – 132 b.
4. Bozorov O., Rahimova M.O. Tilni tadqiq etish: lingvosentrizm va antroposentrizm // Nutq madaniyati va o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Filologiya fanlari doktori, professor A.Nurmonov xotirasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2018.
5. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
6. Mahmudov A. O‘zbek adabiy tilida so‘zlarning fonetik strukturasi. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1984. 2-son.

Xoliyor SAFAROV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

JADID HIKOYACHILIGINING UCH DAVRI

XIX asr oxirida Turkistonda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat, turg'unlik, mazlum xalqning hurlikka bo'lgan intilishlari yangi bir davrni boshlab berdi. Milliy uyg'onish – jadidchilik harakati ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakat sifatida ana shu vaziyatga hamohang tarzda vujudga keldi.

Jadid ma'rifatparvarlari millatni uyg'otish maqsadida adabiyot, gazeta-jurnallar, teatr va yangi uslubdagi maktablardan keng foydalandi. G'aflatdan uyg'onish uchun qalbga tezroq yetib boradigan, ruhiyatni ko'taradigan jon so'zlar kerak edi. Abdulla Avloniy "Oyinayi har millat erur til-adabiyot" deb yozgan bo'lsa, Mahmudxo'ja Behbudiy teatrni "ibratxona" deb atadi. Mirmuhsin "Shoirlarimiz zamonaning bir lisonidur... Zamonag'a munosib milliy she'rlar maydonga chiqsun!" degan fikrni ilgari surdi. Natijada, sharqona vaznga aylangan aruzdan chekinib, barmoq vazniga murojaat qilina boshlandi, katta-kichik nasriy asarlar, dramalar, pyesalar yaratildi. Bir so'z bilan aytganda, adabiyot olamida tub burilish yuzaga keldi.

Jadid hikoyachiligi ham birdan chaqmoq kabi paydo bo'lib qolmadi. Asrlar davomida an'ana bo'lib kelgan nazmiy uslub, masnaviy shakldan nasrga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshdi. Mahmudxo'ja Behbudiy harakatda qanchalik yetakchilik qilgan bo'lsa, adabiy jarayonda ham karvonboshilikni o'z qo'liga olgan edi, deyish mumkin. Dastlab, u usmonli turkchasidan "Bir vafolik zaifani xususida hikoya" tarjima qilib, 1903-yilning 15-oktabridan to 1904-yilning 3-fevraligacha "Turkiston viloyatining gazeti"da e'lon qildi. 1909-yilda asli xitoy adabiyotidan olingan "Oq yelpog'ichli chinli xotun" hikoyasini taqdim etib, jadid namoyandalari orasida birinchilardan bo'lib adabiyotga nasr havosini olib kirdi. Oradan besh yil o'tib, 1914-yilda Abdulhamid Cho'lpon "Qurboni jaholat", "Do'xtur Muhammadiyor", "Bahor avvallari"; 1915-yilda Abdulla Qodiriy "Juvonboz", "Uloqda"; Munavvarqori Abdurashidxonov "Bizda hamiyat" hikoyalarini yaratdi. Shu tarzda o'zbek hikoyachiligining tamal toshi qo'yilib, shakl va mazmun, g'oya uyg'unlashdi. Shu davrdan boshlab adabiyot ijtimoiy hayotni yaqqol aks ettira boshladi. Uning vazifasi tuyg'ular tajassumini shunchaki badiiy ifodalash emas, balki fikr berish, o'yga toldirish, zamonning muammolarini o'rtaga tashlash va uning yechimlarini ko'rsatishdan iborat bo'lib qoldi.

Bu davrda hikoya "hikoyacha", "kichkina hikoyacha", "mayda hikoyacha", "hikoya" kabi nomlar bilan atalgan. Abdurahmon Sa'diy roman bilan hikoyani epik turga kiritib, ularning bir-biridan farqini uzun yoki qisqaligiga qarab ajratadi. U "povest" termini o'rniga "uzun hikoya", "novella" yoki "hikoya" o'rnida esa "qisqa hikoya" terminini qo'llaydi [1: 153]. Abdurahmon Sa'diy Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va Olimjon Ibrohimovning "Bizning kunlar" asarini romanga, Abdulla Qodiriyning "Uloqda", "Otam va bolshevik", Fitratning "Qiyomat", Cho'lponning "Yo'l esdaligi", "Oydin kechalarda" asarini hikoyaga, Olimjon Ibrohimovning "Qizil chechaklar", Fotih Amirxonning "Qadrli minutlar" asarini uzun hikoyaga, Sharif Kamolning "Hikoyalar"ini qisqa hikoyaga misol qilib keltirgan.

Hikoya janri ustidagi bu kabi tahlillar tabiiyki, o'z davrida turli bahs va munozaralarni keltirib chiqargan. Olim Sharafiddinov *"O'zbek adabiyotida g'arb ruhidagi, g'arb shaklidagi hikoyanavislik Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"i bilan boshlandi"* [2: 8], deb yozadi. Sotti Husayn esa *"Hikoya turmush hodisalarining birortasini tasvirlab beradi. Povest esa hikoyadan yuqori, romondan kichik bo'lib, hodisalarning hikoyaga qaraganda katta rasmini oladi"* [3: 5], deb ta'riflaydi. Ta'kidlash kerakki, keyingi davr adabiyotshunosligida nasriy asarlarning janr xususiyatlarini aniqlashda aynan Sotti Husaynning ta'riflari ulgu berdi.

Shu kungacha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'zbek jadid hikoyalarini uch davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir: shakllanish (1905–1917-yillar), rivojlanish (1917–1925-yillar), chekinish (1925–1929-yillar) davri.

Birinchi davr 1905-yilda yuz bergan rus inqilobi bilan yuzaga chiqib, oktabr inqilobigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Aslida esa asr boshida Turkiya va Eronda yuz bergan voqealar bu jarayonga zamin hozirlagan. 1905-yilgi rus inqilobi Turkiston xalqlari hayotiga yangi g'oyalarni targ'ib etib, o'z haq-huquqlarini tanish imkoniyatini berdi. Ayni shu davrda jadidlarning "ma'naviy otasi" hisoblangan Ismoil Gaspralining Boqchasaroyda chiqadigan "Tarjimon" gazetasi ham Turkistonga yetib kela boshladi. Yevropaning eng taraqqiy topgan mamlakatlari hayotidan xabardor bo'lgan Gasprali o'z fikr-mulohazalari va yangicha g'oyalarini shu gazeta orqali jahonga tarqatar edi. Unda dunyo bilan bo'ylashish uchun dunyoviy fanlarda bilim beruvchi maktablar ochish, millatni ma'rifatga chorlash kerakligi uqtirilar edi. Bu targ'ibot Turkiston jadidlari uchun g'oyaviy ko'mak va yo'lko'rsatkich vazifasini o'tadi. Natijada, yurtimizda ham yangi davr g'oyalari bilan yo'g'rilgan

gazeta-jurnallar nashr etila boshlandi. Hikoyalarda jaholat sabablari, undan xalos bo‘lish yo‘llari tasvirlandi. Sabab va oqibatlar ko‘rsatildi. Adabiyotshunoslar tomonidan “inqilobgacha bo‘lgan davr” deya ta’riflanadigan bu davr *“jadid adabiyotining yoshlig‘i, kuchsizligi davridir. Bu davrda jadid adabiyoti shaklan eskilikdan chiqmag‘an, o‘z fikriga yarasha, o‘ziga bop shakl, til tug‘dirmoqda edi. Fikr oldda, shakl orqada edi”* [4: 17]. Behbudiyning “Bir vafolik zaifani xususida hikoya”, “Bir a’mo bolaning hasrati”, “Oq yelpug‘ichli chinli xotun” kabi tabdil-tarjimalari, Cho‘lponning “Qurboni jaholat”, “Do‘xtur Muhammadiyor”, “Bahor avvallari”, Abdulla Qodiriyning “Juvonboz”, “Uloqda”, “Shodmarg”, Fitratning “Musulmon sevgisi”, Munavvarqorining “Bizda hamiyat” hikoyalari ana shu davr adabiyoti mahsulidir.

Jadidshunoslar tomonidan “inqilobdan keyingi davr” deya ataluvchi ikkinchi davr 1917–1925-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda adabiy mazmun shakllanib, til ishlanib, fikrni ramzlar orqali bo‘lsa-da erkin namoyon etish yuzaga keldi. Erksizlikni, mustamlaka jamiyatlarning idora usulini anglash, uning sabablari va undan qutulish yo‘llarini izlash davr taqozosi edi. Qodiriyning “Tinch ish”, “Jinlar bazmi”, Cho‘lponning “Ayriliq yo‘li”, “Oydin kechalarda”, “Oktabr qizi”, “Qurbon”, “Qor qo‘ynida lola”, “Chopon va paranji”, “Taraqqiy”, “Nonushta”, “Seni ko‘b ko‘rmasun”, “To‘y chiqib qoldi”, “Osmonda, yerda”, Mirmulla Shermuhammadning “Kammunizm chechaklari”, “Arafa kechasi”, “Bu kun bayram edi”, Fitratning “Qiyomat” va boshqa hikoyalari shu davr adabiy mahsuli edi. Bu ikki davrni jadidshunos Begali Qosimov sal oldinroqdan hisoblab, *“1900–1925-yillar “jadidchilik” tushunchasining paydo bo‘lishi va uning o‘z davrining peshqadam hodisasi sifatida baholangan davridir”* [5: 21], deydi.

1925–1929-yillarni shartli ravishda uchinchi davr – “chekinish” deb nomladik. Bu davrda Cho‘lponning “Novvoy qiz”, Botuning “Hoshimjon”, “Yangi qishloq”, “Hayit harom bo‘ldi”, Elbekning “Jadid Qoravoy”, “Dadamat”, “Qahhorxo‘ja”, “Yangi turmush izlovchi”, “Mashshoqchi Elbo‘ta”, Shokir Sulaymonning “Inqilob xotiralari”, “Dog‘li yo‘qotish” hikoyasi, bundan tashqari, qardosh xalqlar farzandi bo‘lgan va yurtimizda istiqomat qilgan Mahmud Suboyning “Asosli asos”, “O‘zgarish vaqtida”, “25-oktabr”, “Inqilob manzaralari”, “Tarixiy kunlar”, Zarif Bashirning “O‘lim sheriklari”, “Ipak ko‘ylak”, “Hormang”, “Endi tushundi”, “Turg‘unboyning tumorlari”, “Og‘ilxonada” hikoyalari buning yaqqol dalilidir. Sarlavhalardan ham ko‘rinib turibdiki, Turkistonda yuzaga kelgan vaziyat taqozosiga ko‘ra, ijodkorlar orasida asl maqsaddan chekinishlar ham kuzatilgan.

Garchi davr qanchalik evrilishlarni boshdan kechirmasin, hikoyachilik yildan yilga o‘sib, takomilga erishib bordi va XX asr hikoyachiligiga zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sa’diy A. Amaliy ham nazariy adabiyot darslari. – Toshkent, 1929.
2. Sharafiddinov O. O‘tkan kunlar. // Yosh leninchi, 1928-yil 8-fevral.
3. Husayn S. “O‘tkan kunlar” ham o‘tgan kunlar. // Sharq haqiqati, 1929-yil 5-avgust.
4. Hoshimov O. Jadid adabiyoti. – Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1929.
5. Qosimov B. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2022.


Gulruh SHODIYEVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

BUYUK MA’RIFATPARVAR

Ismoil Gasprali faoliyatiga bir nazar

Milliy pedagogika tarixining yaqin o‘tmishdagi sahifalari jadidlarning ta’lim sohasida olib borgan islohotlariga borib taqaladi. XIX asr oxirida boshlangan ushbu harakat amaliyotchisi Ismoil Gasprali edi. Jadidchilikning paydo bo‘lishi mana shu islohot bilan bog‘liq. Ismoil Gasprali 1884-yili birinchi “Usuli jadid” maktabini ochdi. Yangi maktab uchun o‘zi alifbo yozib, o‘sha yili “Tarjimon” bosmaxonasida nashr qildirdi. Bu uning mashhur “Xo‘jayi sibyon” (“Bolalar o‘qituvchisi”) kitobi edi [1: 163]. Alifbo kitobi 1910-yilga qadar 27 marta bosildi. Yangi maktabda diniy ilmlar bilan birga turkcha o‘qib-yozish, matematika, tarix, geografiya fanlari ham o‘quv dasturiga kiritilgan.

Ismoil Gaspralining ta’kidlashicha, ushbu birinchi yangi usul maktabida bolalar tekinga o‘qitilib, hatto kitob va daftarlari ham maktab tomonidan berilgan. Yangi maktabda dars 12 ta bola bilan boshlangan, darslar har kuni 4 soatdan bo‘lib, 45 kun davom etgan, 46-kuni birinchi imtihon kuni, deb e’lon qilingan [2: 20]. Taklif qilingan 200 kishidan 30 kishi imtihon marosimiga keladi. Imtihonga kelganlar esa, 40 kunlik darslarning natijasi o‘laroq, bolalarning turkcha o‘qib, yozishlarini, Qur’onning har sahifasini yod olmagan bo‘lsa ham bemalol o‘qiy olishini ko‘radilar. Tashrif buyurganlarning ko‘pchiligi ko‘rganlaridan o‘zlarini tuta olmay ko‘z yosh qiladilar. Imtihon kuni-



ning o‘zida maktab o‘quvchilarining soni qirqtaga yetadi. Bu muvaffaqiyat tufayli ikkinchi bir yangi maktab ham ochiladi. Ismoil Gasprali o‘zi taklif qilayotgan yangi usulni tushuntirar ekan, uni tushunmoq uchun eski usulning nuqsonlarini ko‘rish kerak, deydi. Yangi usul maktabini esa, quyidagicha tushuntirdi: “Ota-bobo kunlaridan qolmish milliy maktablarni isloh etmak usuli jadid demakdir”.

“Tarjimon” xabarlarini o‘qigan muallim, talabalar usuli savtiyani o‘rganish uchun Kavkazdan Bog‘chasaroyga kela boshlaydilar. Bog‘chasaroydagi birinchi namuna maktabi ham maktab, ham muayyan darajada “Dor ul-muallimin” vazifasini o‘taydi [3: 32]. Turli shaharlardan kelgan muallimlar bir-ikki oy maktabda qolib, muallimlik shahodatnomasini olganlaridan so‘ng o‘z shaharlariga qaytib ketishadi. Shu tariqa yangi usul maktablari uchun muallim tayyorlash boshlang‘ich davrda hal qilingan edi.

1898-yili Ismoil Gasprali tarafidan “Tarjimon” bosmaxonasida yangi usul muallimlari uchun qo‘llanma hisoblangan “Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh” kitobi chop etiladi. Kitobda muallif yangi usul maktablaridagi tashkiliy o‘quv jarayoni, ularning eski usuldan farqlarini ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinflar uchun darslik tayyorlab nashrdan chiqaradi. U tayyorlagan darslik 4 qismdan iborat bo‘lib, osondan qiyinga yo‘naltirilgan edi. Darslikdagi har bir mashq oldingisini davom ettiradi. Bu usul o‘quvchilarning dars mazmunini oson o‘zlashtirishlari uchun qulay edi. Ismoil Gasprali islom mutaassibligini yenggan holda, darslikda har bir mavzu bolaga yanada tushunarliroq bo‘lishi uchun turli predmetlar, hayvonlar, qushlar va hasharotlar rasmlarini ko‘rgazma sifatida ilova qiladi. Bu darslik “Xo‘jayi sibyon”, deb nomlangan edi [4: 32].

Darslikning birinchi qismi alifbodan boshlanadi. O‘quvchi bir harf bilan tanishgandan so‘ng muallim unga harfning yozilish shakllarini ko‘rsatadi. U bir vaqtning o‘zida o‘tilgan harfni ham o‘qish, ham yozishni o‘rganib boradilar. O‘quvchi harfni esida oson saqlab qolishi uchun harf katta qilib yozilib, yonida shu harf bilan boshlanadigan predmet yoki hayvon rasmi berilgan. Alifboni to‘la o‘rganish uchun 27 ta maxsus dars belgilangan. O‘quvchi alifboning hamma harflarini to‘la o‘zlashtirib olganidan keyin kichkina hikoyalarni o‘qishga o‘tadi. Hikoyalar o‘qib tugatilganidan so‘nggina arab tili asoslarini o‘rganishga kirishiladi. Buning uchun 13 ta dars belgilangan.

Darslikning ikkinchi qismi muqovasida “Turk tilini o‘rganish uchun maxsus darslik”, degan yozuv bor. Bu qism “Ona tili va arab tili asoslari” mavzusi bilan boshlanadi. Bunda muallif bolalar berilgan matnlarni anglagan holda to‘la tushunishlari kerakligini uqtiradi. Bolaning o‘qish malakasini shakllantirish uchun bu qismga bir necha hikoya kiritilgan.

Uchinchi qism “O‘qishga o‘rgatish va foydali xabarlar” deb nomlangan. O‘qish uchun quyidagi matnlar tavsiya qilingan: “Dunyo odamlari”, “Ishonch”, “Axloq”, “Cho‘pon qizi”, “Eshak va bulbul”, “Chumoli va chigirtka”, “Tirishqoq bola”, “Rus tarixidan”, “Vulqon”, “Tulki va turna”, “Qayiqda sayohat”, “Biz o‘qishimiz kerak”.

To‘rtinchi qism ham oldingisi kabi nomlangan bo‘lib, o‘qish uchun quyidagi matnlar berilgan: “Qrim – yashil orol”, “Asir va sher”, “Ikki buyuk shoir”, “Shimol mamlakatlari”, “Dengiz baliqlari”, “Janub mamlakatlari”. Ushbu kitob oz muddatda to‘rt ming nusxada tarqatilgan [5: 17].

Ismoil Gasprali Qrim, Volga bo‘yi turklari orasida yangi usulni biroz oyoqqa turg‘izib olganidan keyin, e’tiborini Rusiya imperiyasida yashayotgan turk musulmonlarining deyarli yarmini tashkil qilgan Turkiston o‘lkasiga qaratdi. Bu o‘lkadagi maktablarni isloh qilish orqali Turkiston musulmonlarini ham ajdodlari kabi buyuk bo‘lishlariga o‘z hissasini qo‘shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1997.
2. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
3. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixiga oid materiallar. – Moskva, 1926.
4. Ibrat. Ajziy. So‘fizoda. Tanlangan asarlar. – Toshent: Ma’naviyat, 1999.
5. Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.

Alfraganus universitetida 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami munosabati bilan tadbir tashkil etildi. Unda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, hajvchi shoir Abdurazzoq Obro‘y, “Til va adabiyot ta’limi” hamda “Sharq yulduzi” jurnallari ijodiy xodimlari qatnashdi. Universitetning ijodkor talabalari ham she’riy mashqlaridan o‘qib berdilar.



ONA TILIM



Armonlarga bir xo‘rsinib, yengni siltar zamon o‘tdi,
Ko‘rmaganmiz u kunlarni, lek ko‘rganlar omon o‘tdi,
Bir ulug‘ kun keldi valek, umid bizga qo‘lin tutdi,
Sobiq sho‘ro zanjiriga ayni qilich urgan yilim,
Avloniylar, Behbudiylar ardoq etgan ona tilim.

Al-Farg‘oniy hisob yetgan bir zamonlar Nil sathini,
Ot ustiga almashtirdi Sohibqiron o‘z taxtini,
Buxoriylar ilm deya dunyolarni kezgan kuni,
Sharq-u G‘arbni bog‘laguvchi qadim tarix Ipak yo‘lim,
Qancha davr ajdodlardan meros bo‘lgan ona tilim.

Hindistonga tomon boqib, qadam bosdik – izlar qoldi,
Ming o‘n sakkiz yulduzlarni sanamoqqa ko‘zlar toldi,
Mir Alisher Navoiyning Xamsasidan o‘rin oldi,
O‘shal joyda qolganmi yo mening ko‘nglim, mening dilim,
Chin yurtidan Qofqozgacha bo‘lgan sarhad ona tilim.

Bor haqiqat shular emas, bir sabodek yelganlari,
Hammasimas bizlargacha kitob bo‘lib kelganlari,
Paxtazordan tonna-tonna oq oltinni terganlarim,
Sabrimizni to‘ldirishgan, sukut saqlab turganmiz jim,
Endi esa jim turarlik zamon emas, ona tilim.

Hozir mana tinchlik davri, gashtin surar har bitta jon,
Bizga ishonch bildirilgan, mas’uliyat ham begumon,
Ko‘kka qarab bo‘y cho‘zmoqda bugun Yangi O‘zbekiston,
Safimizni shubha birla ozchilik deb aytolgay kim,
O‘ttiz yetti million xalqmiz va undan ko‘p, ona tilim.

Jasur TO‘QSONOV,
Alfraganus universiteti talabasi

Diqqat, tanlov!



“TIL VA ADABIYOT TA’LIMI” –
“ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ” –
“LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING”
ilmiy-metodik jurnali tanlov e’lon qiladi!

“YILNING ENG YAXSHI MATERIALI”

TANLOV YO‘NALISHLARI:

1. **“Eng yaxshi maqola”.**
2. **“Eng yaxshi dars ishlanma”.**
3. **“Eng yaxshi metodik tavsiya”.**
4. **“Eng yaxshi asar tahlili” (darsliklar asosida).**

☞ Tanlovga materiallar o‘zbek, rus yoki ingliz tilida **shu yilning 10-dekabrigacha** @MaqolaTanlovBot orqali qabul qilinadi. Materiallar “tanlovga” deb ko‘rsatilishi shart.

☞ Tanlov g‘oliblari **noutbuk, planshet, mobil telefon** kabi qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

☞ **G‘oliblarni taqdirlash marosimi 2025-yil yanvar oyida o‘tkaziladi.** Eng yaxshi materiallar jurnal sahifalarida chop etiladi.

ISSN 2010-5584
INDEKS 872